

**H.H. MAHMUDOV, R.T. BERDIYAROV,
G.M. ISROILOVA**

HUQUQSHUNOSLIK

67.
dl-37


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

H.H. MAHMUDOV, R.T. BERDIYAROV, G.M. ISROILOVA

HUQUQSHUNOSLIK

Noyuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik

«Voris-nashriyot»
Toshkent — 2010



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 2009 yil 27- oktyabrdagi buyrug'iiga ko'ra nashrga tavsya etildi.

Mahmudov H.H. Berdiyarov R.T. Isroilova G.M.
Huquqshunoslik/-T.: 2010. -256 b.

Mas'ul muharrir:

Sh.N. Ro'zinazarov
yuridik fanlar doktori, professor

Taqrizchilar:

R.R. Hakimov
yuridik fanlar nomzodi

M.A. Hamidova
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Mazkur darslik noyuridik oliy o'quv yurtlaruda o'tiladigan "Huquqshunoslik" fanining namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda mavzu rejalar asosidagi ma'ruzalar, tayanch so'z va iboralar, nazorat savollari har bir mavzuni mustahkamlash uchun test savollari va fanni chuqurroq o'rganish uchun foydalanishga tavsya etiladigan adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan. Darslikni tayyorlash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda amaldagi qonun hujjatlaridan, mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda nashr qilingan adabiyotlardan, etuk mutaxassis va huquqshunos olimlarning ilmiy asarlaridan foydalanildi.

Ushbu darslik noyuridik oliy o'quv yurtlari talabalari va huquqshunoslik faniga qiziquvchi boshqa keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar huquqshunoslik fanlarining rivojlanishini ilmiy-nazariy, amaliy va o'quv uslubiy tadqiq qilib o'rganish, talabalar ongiga huquqiy bilimlarni singdirish barobarida huquqiy ong va madaniyatni takomillashtirishni zaruriyat qilib qo'yemoqda. Ayniqsa, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish sharoitida huquqshunoslik fanlarining rivojlanishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarga etkazib berish muhim ahamiyat kash etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov e'tirof etganidek, "... davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, olyi va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislarni bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur". Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, asr talablariga to'liq javob beradigan barkomol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz².

Mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatni va huquqiy demokratik davlatni shakllantirish jarayonida, davlat va huquq masalalarini o'rganish, mehnat munosabatlariiga oid tushunchalarga ega bo'lish, oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi va qonun hujjalari talablaridan xabardor bo'lish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslarini bilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliviyyi iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar" asarida ilgari surilgan g'oyalar yuridik fanlarni o'rganish borasida ham muhim vazifalarini belgilaydi. Ushbu darslikni yozishda mazkur asardan ham unumli foydalaniolib, talabalarga foydalanish uchun tavsiya etildi.

Mazkur darslik tuzilishi jihatdan shartli ravishda beshta bo'limga ajratilib, ular "Davlat va huquq asoslari", "Mehnat huquqi asoslari", "Oila huquqi asoslari", "Sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar" hamda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquq asoslari" deya nomlandi.

Har bir bo'limda yo'nalishga doir tushunchalarga alohida e'tibor berishga, jumladan ***birinchi*** "Davlat va huquq asoslari" bo'limida davlat va huquq tushunchasiga ta'rif berildi, ularning kelib chiqishiga doir nazariyalar, asosiy belgilari, vazifalar, davlat organlari va tizimi haqida ma'lumotlar berish barobarida talabalar matndan samarali foydalanishlari uchun turli chizmalar ilova etildi. Mazkur

¹ Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir.// Xalq so'zi.-2009 yil. 6-dekabr.

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir/-T.: O'zbekiston, 2010. 74-75 b.

bo'limni o'rganar ekanmiz, uni nasaqat yuridik fanlar bilan, balki, iqtisodiy va siyosiy fanlar bilan ham uzyiy aloqada ekanligini ko'ramiz. Ushbu bo'limni alohida o'qitishdan maqsad, davlat-huquq masalalari to'g'risidagi tushuncha va kategoriyalarni kengroq o'rganish, davlat va huquqning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi asosiy qoida va tamoyillarini o'zlashtirish hamda umumnazariy bilimlarning amaliy faoliyatdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Chunki, davlat va huquqqa oid umumiyl tushunchalar huquqshunoslik fanlarini tushunishga yo'naltiruvchi, huquqiy bilimlarni egallahida muhim o'quv manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinch bo'limda mehnat huquqi tushunchasi, mehnat huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, mehnat shartnomasi tushunchasi va mazmuni, dam olish vaqt va turlari, yillik mehnat ta'illari, ijtimoiy ta'illar, mehnat intizomi va uni ta'minlash masalalari, intizomiy jazo choralar va ularni qo'llash shartlari va tartibi kabi masalalarni bayon etilishiga harakat qilindi.

Uchinchi bo'limda har bir insonning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan oilaviy munosabatlар, oila tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, oilaviy masalalarni huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlari, nikoh tushunchasi, nikohni tuzish tartibi, nikoh shartnomasi tushunchasi va mazmuni, ota-onva farzandlarning o'zaro oilaviy munosabatlardagi huquq hamda majburiyatlar yorildi.

To'rtinchi bo'limda sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tushunchasi va ular faoliyatining huquqiy asoslari, tizimi, ularning inson huquqlarini ta'minlashdagi asosiy vazifalari o'z ifodasini topgan.

Beshinch bo'limda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi asoslari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixiy ahamiyati, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, shaxs va jamiyat munosabatlari, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy hududiy va davlat tuzilishi, davlat hokimiyatining tashkil etilishiga oid masalalar bayon etib berilgan.

Prezident I.A.Karimov ta'birt bilan aytganda, fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'limgan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a silituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim¹.

Ushbu darslik huquqshunoslik sohasini o'quvchilar ongiga singdirish borasidagi yangicha ruhdagi ilk tadqiqotlardan ekanligi sababli unda ba'zi juz'iy kamchiliklar uchrashi va ayrim masalalar atroficha yoritilmagan bo'lishi mumkin. Soha mutaxassislari va kitobxonlar ushbu o'quv darslikning sifatini yanada yaxshilash borasida o'z mulohazalarini bildirishi kelajakdagi o'quv-uslubiy tadqiqot ishlarning samarali va mukammal bo'lishiga yordam beradi.

¹Qarang: Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.-T.:O'zbekiston. 1999. b.149-150

I Bo'lim. Davlat va huquq asoslari

1BOB. Davlat va huquq nazariyasi haqida asosiy tushunchalar

1 §. Davlat va huquq nazariyasi fani predmeti, asosiy tushunchalari

2 §. Davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar

3 §. Davlatning belgilari va asosiy vazifalari

4 §. Davlat shakllari. Davlat mexanizmi

1§. Davlat va huquq nazariyasi fani predmeti, asosiy tushunchalari

Mamlakatimizda mustaqillikdan so'ng amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yuridik fanlarning rivojlantirilishini ilmiy-nazariy va amaliy tadqiq qilib o'rganish borasida ulkan vazifalarni bajarishni taqozo etmoqda. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etish sharoitida yuridik fanlarning jumladan, ularning metodologik asosi bo'lgan davlat va huquq nazariyasingning rivojlanishi va uni o'qtishning yangi usul va metodlarini amaliyotga samarali joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat va huquq nazariyasi huquqiy fanlartizimida o'ziga xos yuridik poydevor bo'lib, uni huquqiy fanlar tizimining alifbosiga qiyoslash mumkin. Chunki davlat va huquq nazariyasi fani davlat, huquq tushunchasi, vujudga kelishi, mohiyati, uni belgilarini, rivojlanish bosqichlarini va o'ziga xos demokratik xususiyatlarini yoritib beradi. Davlat va huquq nazariyasi tushunchasi davlat va huquq nazariyasi to'g'risidagi umumlashtirilgan nazariy - uslubiy bilimlar tizimini ifodalaydi. U davlat va huquqni, uning tabiyati nimalardan iboratligrini tushuntiribgina qolmasdan, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, axloq va boshqalar bilan aloqasini ham ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "demokratiya avvalambor ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir. Aytish mumkinki, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati

demokratianing o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ikki jihatni, ikki qanotidir"¹.

Mazkur davlat va huquq nazariyasi fanining predmetini davlat va huquqning paydo bo'lishi, rivojlanishi, umumiy qonuniyatlar, mazmuni-mohiyati, maqsad va vazifalari, boshqa huquqiy fanlar bilan o'zaro aloqasi, inson va jamiat hayotidagi ahamiyati hamda davlat va huquqning istiqboli to'g'risidagi umumnazariy qonuniyatlar va shu kabilar tashkil etadi. Davlat va huquq nazariyasi umumnazariy fan sifatida davlat va huquqni ifodalovchi qoidalar, bilimlar tizimidir.

Davlat va huquq nazariyasi turli davlat va huquqiy tizimlarning paydo bo'lishi va bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi, boshqa huquqiy fanlar uchun umumnazariy negiz bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, davlatning huquqiy siyosatini, qonunchilik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishiga keng ta'sir ko'rsatadi. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq to'g'risidagi qarashlar, fikrlar, g'oyalar tizimi va barcha davlatlarga tegishli hodisalarning umumiy qonuniyatlarini yaxlit huquqiy institut sifatida o'rganadi.

Ma'lumki mamlakatimizda aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash va uni mustahkamlash yuzasidan qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganishni yaxshilash haqida"gi 1997 yil 25 iyundagi PF-1791-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi to'g'risida"gi 1994 yil 13 iyundagi qarori, shunga asosan qabul qilingan o'quv dasturiy majmualari davlat va huquq nazariyasini o'rganishda muhim asos bo'limoqda.

Davlat va huquq nazariyasi haqida nazariyotchi olimlar tomonidan turli xil qarashlar bildirilgan bo'lib, ba'zi huquqshunos

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: «Ma'naviyat», 2008.- 108 b.

olimlar davlat va huquq nazariyasini alohida-alohida fan sohalari sifatida e'tirof etishadi. Davlat va huquq nazariyasi ayrim olimlar ta'biri bilan aytganda, bir-biridan ajratib qo'yilgan fan sohalari emas, balki yaxlit fandir. Davlat va huquq ularning birligida hamda o'zaro aloqadorligida o'rganiladi. Davlat huquq tamoyillarini huquqiy normalarda mustahkamlaydi va ularning ro'yobga chiqishini ta'minlaydi, huquq esa davlat va uning organlari faoliyatini huquqiy asoslantiradi va yuridik jihatdan tartibga soladi.

Davlat va huquq nazariyasi umumyuridik fan sohalari uchun metodologik negiz, huquqiy fanlar tizimi haqida ma'lumot va tushunchalar beruvchi birlamchi huquqiy manba, yuridik fanlar negizi desak, xato bo'lmaydi. Shuningdek, davlat va huquq nazariyasi insoniyat va jamiyat hayoti murakkab tomonlarining huquqiy tabiatni va o'ziga xos jihatlarini tadqiq etib qolmasdan, davlat va huquqni, uning belgilari va tabiatni nimalardan iboratligini, iqtisodiyot, huquqiy madaniyat, ahloq kabilalar bilan o'zaro aloqalarini ham ko'rsatib beradi. Davlat va huquq nazariyasi o'z rivojlanishida bevosita yuridik fanlar bilan birga tarixiy, iqtisodiy, falsafiy hamda siyosatshunoslik fanlari bilan ham uzviy tarzda bog'lanadi.

Davlat va huquq nazariyasi barcha yuridik fanlar uchun umumiyligi fundamental va metodologik fan sifatida qaralib, uning predmeti - huquqshunoslikning asosiy tushunchalari davlat, jamiyat, huquq, davlat mexanizmi, demokratiya, huquqiy ong va madaniyat, qonunchilik va ijro munosabatlari, huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik kabi tushunchalarni va qoidalarni o'rganadi. Hozirgi zamonda ya'ni fuqarolik jamiyati shakllanayotgan hamda insonlarga xos ilm-fan sivilizatsiyasi davrida davlatga bo'lgan munosabat va davlatni idora etish mexanizmi, unga bo'lgan munosabat davlat va huquq nazariyasiga baho berish dastlabki davlat va huquq nazariyalaridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham davlat va huquq nazariyasini turli ijtimoiy fanlar bilan qiyoslash, ular o'rtaida uzviy aloqa va o'zaro bog'liqlik mavjudligi to'g'risida xulosa qilishga olib keladi. Chunki ijtimoiy fanlar inson tafakkurining mahsulidir, intellektual faoliyatining natijasidir.

Davlat va huquqga oid masalalar an'anaviy tarzda alohida nazarriy fan va o'quv predmeti tarzida o'rganilib kelinmoqda va u huquqshunoslik fanlari orasida yaqqol nufuzli mavqega ega. Mazkur fan o'zining metodologik va nazariy asos sifatidagi xususiyatlari bilan butun yurisprudentsiya sohasida ajralib turadi. Davlat va huquq nazariyasi huquqshunoslikning nihoyatda boy, serqirra, shu bilan birga murakkab va yurisprudentsiyaning (huquq dunyo-sining) kaliti bo'lib xizmat qiladi. Huquqiy tafakkur, siyosiy va huquqiy dunyoqarash, ong hamda yuridik madaniyatni shakllantirish, jamiyatdagi davlat - huquq to'g'risidagi xilma-xil ilmiy qarashlar xususida muntazam tizimli bilimlar hosil qilish - bu fanning asosiy vazifasidir.

Davlat va huquq nazariyasi jamiyat, davlat, huquq tushunchalari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham o'rganadi. Jamiyat bu tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida, odamlar o'rtasidagi o'zaro turli xil iqtisodiy, oilaviy, ma'naviy va boshqa munosabatlar, aloqlar yig'indisidir. Davlat muayyan hududda oliv hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega, jamiyat a'zolarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turuvchi siyosiy tashkilotdir. Davlat va huquq bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, davlat huquq orqali o'z faoliyatini belgilaydi va o'z navbatida huquq davlatsiz mavjud bo'la olmaydi.

Huquqiy fanlar tizimini quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin: nazariy tarixiy huquqiy fanlar (davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi); maxsus huquqiy fanlar (Konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, moliya huquqi, bank huquqi, soliq huquqi, fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi, xalqaro huquq); amaliy yuridik fanlar (kriminalistika, sud buxgalteriyasi). Shuningdek, yuridik fanlarni moddiy (jinoyat huquqi, tadbirkorlik huquqi, qishloq xo'jalik huquqi) hamda prosessual huquqiy fanlarga (jinoyat-prosessual huquqi, fuqarolik-prosessual huquqi, xo'jalik-prosessual huquqi)ga ajratish mumkin.

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq rivojlanishining umumiy o'ziga xos xususiyatlarini, jahon taraqqiyoti bilan bog'liq

holda tadqiq etadi. Davlat va huquq nazariyasining kishilik jamiyati taraqqiyotiga muvosiq rivojlanib va shakllanib hamda demokratlashib borishi yangidan-yangi metodologik yo‘nalishlarga hamda yuridik munosabatlarning sivilizatsiya sharoitida jamiyatni boshqarishiga asoslanadi.

Davlat va huquq nazariyasi usullari (metodi) uning predmeti bilan chambarchas bog‘liqdir. Fanning predmeti “U nimani o‘rganadi?” – degan savolga javob bersa, usullari esa qanday o‘rganilishi haqidagi savolga javob beradi. “Metodologiya” so‘zi yunoncha so‘zdan olingen bo‘lib u “biror narsani o‘rganish yo‘li, usuli” ni anglatadi. Metod bu umumiylar ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tarzda izga solingen faoliyatdir. Metod bu maxsus ma’noda bilish vositasi, o‘rganiladigan mavzuni tafakkurda hosil qilish yo‘llaridir.

Davlat va huquq nazariyasi o‘rganishda umumiylar, umumiylar ilmiy va maxsus uslublar mavjud bo‘lib, ular davlat va huquqning nazariy tushunchalarini, qonuniyatlarini samarali o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Xususan umumiylar (metod) usullarga - dialektik, falsafiy usullar kirsa, umumiylar ilmiy usullarni - qiyosiy-huquqiy, tizimlilik, tarixiylik kabilar tashkil etadi.

Davlat va huquq nazariyasining davlat va huquq tushunchasini aniqlashga yordam beruvchi maxsus ilmiy usul (metod)lari mavjud. Formal-mantiqiy usul - davlat va huquq ob‘ektining mohiyatini, asosiy mazmunini nazariy shakl va uslubda, abstraktsiya (mavhumlik) va mantiqiy qonuniyatlarga asosan o‘rganadi. Formal-yuridik usul - huquq normalarini va umum huquqning ichki tuzilishini o‘rganadi, huquqning shakllari va manbalarini tahlil qiladi. Umuman, bu usul davlat va huquqning tabiatidan kelib chiqqan holda, u davlat va huquqning fenomeni (eng nodir hodisa tomonlari)ni ochib berishga, tasniflashga va ma’lum tizimga solishga yordam beradi. Qiyoslash usuli - davlat va huquq haqidagi hodisa va fikrlarni (qarashlarni) qiyoslab o‘rganishdir. Davlat va huquqni modellashtirish usuli - bu usulning mohiyati shundaki, u har xil davlat va huquq hodisalarini o‘rtasida ma’lum bir o‘xshashlik mavjudligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, davlat va huquq nazariyasi tarmoq va maxsus huquq sohalarini rivoj topishida asosiy o'rincutadi, chunki umumnazariy tushuncha va qonuniyatlarini yaxshi egallamasdan turib huquq tarmoqlariga oid bilimlarni oshirib bo'lmaydi. Davlat va huquq nazariyasi huquqiy fan sifatida talabalar va barcha qiziquvchilar uchun davlat, jamiyat va inson munosabatlarini huquqiy tartibga solish qonuniyatlarini, o'zaro munosabatini, ularning vujudga kelishi va rivojlanib borishi kabi ilmiy nazariy bilimlarining shakllanib borishiga xizmat qiladi.

2§. Davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar

Davlat insoniyat va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida, turli hududlarda turlicha davrlarda shakllangan siyosiy institutdir. Davlatning mazmun mohiyatini anglashga bo'lgan turlicha qarashlar davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni ham ma'lum guruhlarga ajratishga asos bo'ladi. Davlat va uning mohiyati, kelib chiqishiga bo'lgan qarashlar har bir tarixiy davrda jamiyat manfaatlari va ehtiyojlari bilan bog'liq holda o'zgarib borgan. Jamiyat davlatsiz va o'z navbatida esa davlat ham jamiyatsiz taraqqiy etmasligi ma'lum.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, "Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas"¹. Shu bois davlat, jamiyat, fuqaro tushunchalarining mazmun-mohiyatini chuqrurroq tahlil etib borish va yosh avlod tarbiyasi va bilimining takomillashuviga joriy etish asosiy vazifalardan biridir.

Davlat jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lgan, davlat hokimiyyat vakolatini amalga oshiradigan siyosiy tashkilot sifatida yuzaga kelgan. Bugungi kunda davlat tushunchasi,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: «Ma'naviyat», 2008. -125 b.

uning paydo bo'lishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud bo'lib ular ichida diniy, shartnomaviy, materialistik, patriarchal va sinfiy kabi qator huquqiy maktablar mavjud.

Davlat— bu suverenitetga, boshqaruv mexanizmiga hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan shuningdek, huquq normalarini yaratishga qodir, jamiyat siyosiy tizimining, turli shaxslar va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o'zaro munosabatini yo'naltiruvchi siyosiy institutdir.

Davlat turli hududlarda turlicha davrlarda yuzaga kelgan va insoniyat tarixiy, ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllanib borgan. Lekin hozirga qadar huquqshunos olimlar tomonidan davlat qachon va qanday holda shakllanganligi hamda uning tub mohiyati xususida yagona to'xtamga kelinmagan.

Davlatning paydo bo'lishi haqidagi qarashlarning sharqiy yo'nalish nazariyotchilari va g'arbiy yo'nalish nazariyotchilariga ham ajratishadi. Lekin bu qarashlar ham shartli bo'lib, ularni mutlaqo to'g'ri qarash sifatida ham baholab bo'lmaydi. Bugungi kunda nazariyotchi olimlar o'tasida davlat mohiyati va uning paydo bo'lishi xususida ko'pgina fikrlar bildirilib, ularning ayrimlari o'z nazariy maktablarini ham yaratishgan¹. Quyida ularning ba'zilarini keltirish mumkin:

1. Teologik (ilohiy) nazariya bo'lib uning tarafdorlari (F.Ak-vinskiy, J.Mariten) davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar va ular "butun hokimiyat xudoniki" degan qoidani ilgari suradilar. Bu nazariya qadimda paydo bo'lган va o'rta asrlarda keng tarqalgan.

2. Patriarxal nazariya tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oidalan bevosa kelib chiqqan, monarch hokimiysi esa go'yo oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan va Arastu asarlarida asoslab berilgan) XVII asrda ingliz olimi Filmerning "Patriarxal" asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam atoning hokimiyatni xudodan

¹ Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari: Darslik. -T.: Sharq, 2002 -10 b.

olib, o'zining katta o'g'li— Patriarxga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollariga bergenligini isbotlashga uringan.

3. Ijtimoiy shartnoma nazariyasi XVII-XVIII asrlarda keng yoyilgan. Gollandiyada ushbu nazariyani Grosiy va Spinoza, Angliyada Lokk va Gobbs, Fransiyada Russo, Rossiyada A.N.Radishchev rivojlantirgan. Ularning fikricha, hokimiyat xalqqa tegishli bo'lib, xalq uni monarxga bergan. Agar monarx hokimiyatni suiiste'mol qilsa, xalq qo'zg'olon ko'tarishga va monarchni taxtdan ag'darishga haqli bo'ladi. Ijtimoiy shartnoma nazariyasiga ko'ra, davlat ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasidir. Davlat o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini davlatga beradilar, deya hisoblashadi.

4. Zo'rlik (zo'ravonlik) nazariyasi tarafдорлari fikriga asosan (E. Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy) davlatning kelib chiqishini harbiy, siyosiy omillar asosida zo'rlik harakati bilan ya'ni bir xalqning, (qabilaning) boshqa xalqni (qabilani) bosib olishi natijasida yuzaga kelganligini asoslashga harakat qilishadi. Davlat g'olibning hokimiyatini mustahkamlash uchun tuziladi.

5. Irrigasiya nazariyasi mohiyatiga ko'ra, davlatning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liqidir. Ushbu nazariyaning asosiy mazmuni va mohiyatini nemis olimi Vittfogelning "Sharq istibdodi" asarida ifodalab berishga harakat qilingan.

6. Sinfiy nazariya namoyandalari (K.Marks, F.Engels) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar - ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha qiymat va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qaramaqarshi iqtisodiy manfaatlariga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. Ushbu jarayonlarning ob'ektiv natijasi o'laroq davlat o'zining maxsus boshqarish va bostirish vositalari bilan ana shu sinflarning kurashini bostirib turadi. Bunday davlat hukmonr sinfnинг manfaatlarini doimiy tarzda himoya qilib boradi.

Mazkur nazariyalar mohiyatidan shunday xulosa qilish mumkinki, ilmiy izlanishlar keng yo'naliishlarda olib borilishiga qaramasdan davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar yagona

to'xtamga kelmagan. Oqibatda hanuzgacha davlatning tub mohiyati, uning kelib chiqishi bilan bog'liq turli xil nazariy qarashlilar rivojlanib borayotganligi, davlatning kelib chiqishiga oid qarashlarning takomillashib borishiga va bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishlarning ortib borishiga sabab bo'lmoxda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida¹, biz barpo etayotgan davlat eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozimligini ta'kidlab o'tadilar.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Biz yaqin o'tmishimizdan sinsiy hukmronlikning quroli sifatida davlat haqidagi markscha g'oyani shior qilib olib, bu nazariyani dogmaga, davlat va huquqni esa sinsiy kurash, sinsiy raqiblarni engish vositasiga aylantirgan edik. Demokratiya sharoitlarida esa davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'rlik va bostirish yo'li bilan emas, balki ijtimoiy kelishuv, xalq ta'biri bilan aytganda, murosai madora bilan bartaraf etish vositasiga aylanadi"². Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga qonun ustuvorligini birlamchi tarzda ifodalovchi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab oldi. Huquqiy davlat bu huquq normalari asosida tashkil topadigan va jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorligini ta'minlaydigan siyosiy tashkilotdir.

Huquqiy davlatning asosiy belgilari bu qonun ustuvorligi, inson huquqlari va majburiyatlarining birlamchiligi, davlat hokimiyatining taqsimlanishi, davlat va shaxslarning o'zaro mas'ulligi, davlat va jamiyat boshqaruvida xalq ishtiroki, demokratik institutlarning mavjudligi va boshqalardir.

Fuqarolik jamiyat - bu axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy munosabatlar va institutlar majmui bo'lib, ular yordamida guruhlar, jamiyat a'zolarining ehtiyojlari va manfaatlari ta'minlanadigan jamiyatdir. Prezident I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, "Biz uchun fuqarolik jamiyatij ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol

¹Karimov I.A. Vatan sajadogoh kabi muqaddasdir.3-t,-T.: «O'zbekiston», 1996, 7-8 betlar.

²Karimov I.A. Vatan sajadogoh kabi muqaddasdir.3-t,-T.: «O'zbekiston», 1996, 19-20 betlar.

toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi"¹.

Hozirda keng tarqalgan davlatning paydo bo'lishi xususidagi nazariyalarning ayrimlarini tahlil etib, shunday xulosaga kelish mumkinki, insoniyat yaratilibdiki, uning ijtimoiy taraqqiyoti turli hududlarda, sivilizatsiya turlicha tarzda va turli vaqtzlarda shakllanib, rivojlanib borgan va bu hol davlatning mohiyati va kelib chiqishi to'g'risidagi turlicha nazariya va qarashlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Har bir nazariyaning asosida haqiqatga yaqin qarashlar va g'oyalar mavjud va ular insoniyatning davlat va jamiyat paydo bo'lishi xususidagi turli sub'ektiv yondashuvlari va ularning tarafдорлари paydo bo'lishiga va har xil nazariya maktablarining shakllanib borishiga zamin yaratadi.

3§. Davlatning belgilari va asosiy vazifalari

Davlat tadrijiy demokratiya sharoitida sivilizatsiya talablariga muvofiq ravishda rivojlanib boradigan, iqtisodiy va ma'naviy omillar ta'sirida hokimiyatning mamlakatda tartibotni ta'minlaydigan bir butun siyosiy tashkilotiga aylanadi. Davlat insoniyat va jamiyat taraqqiyotining mahsulidir.

U har qanday jamiyat siyosiy tizimining bir qismi, hokimiyatni amalga oshiruvchi vositadir. Uning faoliyati jamiyatning hamma sohasiga ta'sir qiladi. U vakolatni xalqdan oladi va o'ziga tegishli vakolatni o'zining maxsus tuzilmalari - davlat organlari orqali amalga oshiradi. Davlat xalq va millat manfaatlarini ko'zlasa, unga ijtimoiy hayotda, davlat ishlarida, xo'jalik yuritishda, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda erkinlik bersa, tinchlik siyosatini yurgizsa, demokratik taraqqiyotga erishiladi.

Davlat belgilari – bu davlatni mustaqil mamlakat sifatida e'tirof etish uchun sabab bo'ladigan tushunchalardir. Mustaqil davlat bo'lish uchun har bir davlatning o'z hududi, aholisi (xalqi), davlat ramzları, fuqaroligi, armiyasi, oliy hokimiyat organlari,

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: «O'zbekiston», 1997.-173b.

pul birligi, soliq tizimi bo'lishi lozim. "...davlat - o'ta maxsus vazifalarni hal etishni, shuningdek, jamiyat tabiatidan kelib chiqadigan umumiy ishlarni bajarishni ta'minlovchi, tarixan tarkib topgan jamiyat uyushishining mazmuni bo'lgan yagona umumiy universal shaklidir"¹. Davlatning belgilari uni mustaqil siyosiy tashkilot, tuzilma sifatida anglatib turuvchi keng qamrovli xususiyatlari, belgilaridir. Davlatlar davlat sifatida e'tirof etilishi uchun uning o'ziga xos bir qator xususiyatlariga ega bo'lishi lozim. Davlatning belgilari, xarakteri va o'ziga xos jihatlari uning tarixiy rivojlanishi hamda ijtimoiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Davlat va huquq sohasidagi nazariyotchi olimlar tomonidan umume'tirof etilgan davlatning asosiy belgilari quyidagilar:

Aholining hududiy uyushganligi. Bu aholining ma'lum ma'muriy hudud, davlat chegaralari doirasida yashashliligidir. Davlat dastlab paydo bo'lgan davrlarda aholida uyushish qarindoshlik, qabilaturug' asosida shakllangan bo'lsa, keyinchalik bu o'z ahamiyatini yo'qtib hududiy birlashish tamoyili asosiy o'rinn egalladi. Davlat o'zining mustaqil hokimiyati asosida amalga oshiriladigan, aniq chegaralangan hududga ega bo'lib, mazkur hududda yashaydigan aholi davlatning fuqarolariga aylanadi. Aholining ma'lum hududda birlashuvi uzoq tarixiy davrlarda va tarixan yaqin, madaniyati, urfdotasi va o'ziga xos jihatlari bilan uyg'un xalqlar orasida yuzaga keladi.

O'ziga xos ommaviy (rasmiy) hokimiyat mavjudligi. Bu xalq nomidan ish ko'rishi mumkin bo'lgan rasmiy davlat hokimiyatidir. Davlat hokimiyatining o'rni hokimiyat va boshqaruv apparatining, majburlov davlat mahkamasining mavjudligida namoyon bo'ladi.

Davlat suvereniteti. Davlat suvereniteti har bir davlatning erkinligi, mustaqilligini anglatuvchi, davlatning ichki va tashqi siyosatida mustaqil siyosat olib borishini ifodalaydi. Davlat hokimiyatining mamlakat ichki va tashqi faoliyatida har qanday boshqa hokimiyatdan mustaqilligi va erkinligini o'zining barcha ishlarini tanho va mutlaqo mustaqil hal etishida namoyon bo'-luvchi muhim belgisi sifatida ifodalanadi.

¹ Islomov Z., Mirhamidov M. va boshqalar. Huquqshunoslik. O'quv qo'llanma.-T.: «O'AJBNT» markazi, 2002. -11b.

Huquq tizimining mayjudligi. Davlat hamma vaqt huquq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, davlat huquqsiz mavjud bo'lmaydi. Davlat huquq ijodkorligi ya'ni o'z qonunlarini yaratish, barcha aholi uchun rioya qilinishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlari orqali siyosiy hokimiyatini mustahkam tutib turadi. Davlat huquq ijodkorligi orqali jamiyatda hokimiyat qoidalarining bajarilishini hamda mamlakatda qonuniylik tamoyili asosida siyosiy hokimiyatni saqlab turishini ta'minlaydi.

Soliqlar hamda yagona pul tizimining mayjudligi. Qadimdan davlatlar o'z siyosiy hokimiyati, boshqaruvin mexanizmini saqlab turish uchun aholidan turli soliqlar undirishgan. Shuningdek, davlat mustaqilligining muhim belgisi sifatida tanga va pullar zarb qilib pul siyosatini olib borgan. Bugungi kunda ham har bir suveren davlat o'z pul va soliq siyosatini yuritishga intilmoqda. Soliqlar asosan davlat boshqaruvin hokimiyatini tutib turish, davlat tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoyalash va boshqa maqsadli yo'nalishlar uchun undiriladi.

Albatta, turli tarixiy davrlarda davlatning belgilari turlicha tarzda izohlangan va turli xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda uning belgilari o'ziga xos ma'no-mazmun kasb etgan. Mazkur davlat belgilari bugungi demokratik shart-sharoitda ham o'zining mazmunini saqlab qolgan holda davlat va huquq nazariyasini tadqiq etishda muhim o'rinn tutadi.

Davlat oldida siyosiy hokimiyat sifatida doimo ma'lum bir funksiyalar turadi. **Davlatning funksiyalari** — davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib, u davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirish imkonini beradi. Davlatning funksiyalari - bu davlat faoliyatining bosh yo'nalishlari bo'lib, jamiyatni boshqarish jarayonida tegishli shakl va usullar yordamida davlatning maqsad va vazifalarini, mohiyati va ijtimoiy-huquqiy belgilarini ifoda etadi. Davlat funksiyalari uning istalgan barcha faoliyatlari bo'lmasdan, balki asosiy va bosh yo'nalishlaridir, bu faoliyat yo'nalishlarini davlat tarixinining u yoki bu bosqichida yoki o'zining butun amalda bo'lish davrida chetlab o'tishi mumkin bo'lmaydi. Bu davlatning u yoki bu doiradagi mustahkam, shakllangan faoliyatidir. Davlatning

funksiyalari turlicha bo'lib, ularning paydo bo'lishi yoki o'zgarishi jamiyat oldida turadigan vazifalarning ketma-ketligi va navbatiga bog'liqdir. **Vazifa** – bu echimini talab qiladigan jihatlar bo'lsa, **funksiya** – bu faoliyat turi bo'lib, shu vazifani echishga qaratiladi. Umuman, vazifa va funksiya o'zaro aloqada bo'lsa-da, lekin bir xil tushunchalar emas. Qandaydir vazifalarning bajarilishi, qaysidir funksiyaning yo'qolishiga va aksincha, birinchisining paydo bo'lishi ikkinchisining yuzaga chiqishiga olib keladi.

Davlatning har bir funksiyasi o'zining mazmuniga va ta'sir etish ob'ektiga ega. Davlatning funksiyalari barcha va ko'pchilik organlar tomonidan bajariladi. Muayyan davlat organlarining funksiyalari davlatning funksiyalariga qarama-qarshi bo'lmasdan, ularga bo'ysundirilgandir va ular ma'lum tizim va sohani tartibga soladi. Davlatning funksiyalari davlatning oldidagi ma'lum kompleks maqsadlarni xavfsizlik, farovonlik, qonuniylik kabilarni butun davlat miqyosida birdek yuritish va ta'minlashiga qaratiladi.

Davlat funksiyalari amal qilish davomiyligiga ko'ra:

- 1) doimiy;
- 2) vaqtinchalik funksiyalarga ajratiladi.

Davlat funksiyalari faoliyat doirasiga ko'ra:


- 1) ichki funksiyalar;
- 2) tashqi funksiyalarga bo'linadi.

Ichki funksiyaga quyidagilar kiradi:

- A) regulyativ (tartibga solish, boshqarish) funksiyasi;
- B) qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish) funksiyasi.

Davlatning tashqi funksiyasi davlatlararo vazifalarni bajarish bilan bog'liq. Davlatning tashqi funksiyasiga xalqaro hamkorlik faoliyatini hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzi va salohiyatini oshirish, tashqi siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni integrasiyalash, tashqi iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish va boshqalar kiradi. Tashqi funksiyalar davlatning xalqaro maydondagi faoliyatining asosiy yo'naliishlaridir. U xalqaro hamkorlik, tashqi siyosiy faoliyat, tashqi iqtisodiy faoliyat, mudofaa va xavfsizlik va boshqalardan iborat.

Davlatning tashqi funksiyalaridan biri tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik har qanday davlat uchun hayotiy zaruriyatdir. Bugungi kunda davlatning tashqi funksiyalarini amalga oshirishda xalqaro



hamjamiyat tomonidan xalqaro huquqning o'zagini tashkil etuvchi umume'tirof etilgan princip va qoidalar ishlab chiqilgan.

Mustaqil davlatimiz rivojlanishining tarixiy pallasida jamiyatni demokratlashtirish va isloh etish, davlat funksiyalarini ta'minlanshini tahlil etish ijtimoiy fanlar, xususan yuridik fan nuqtai nazardan o'rghanish dolzARB masalalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir"¹ – deb nomlangan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'rurasida davlat va uning vakolatli organlariga katta mas'uliyat qo'yilgan va qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlarni nazariy mushohada qilmasdan, huquq mavqeini oshirmasdan jamiyatni demokratlashtirish va isloh etish borasidagi ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni hal qilish qiyin.

Demokratik huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, bozor munosabatlarini takomillashtirishning huquqiy negizlarini tadqiq etishni amalga oshirish yuridik fan oldida turgan dolzARB ustuvor vazifadir.

O'zbekiston Respublikasining asosiy ichki funksiyalariga xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy himoya, moliyaviy nazorat, jamiyatda tinchlik, totuvlikni va huquq tartibotni ta'minlash, tabiatni muhofaza etish (ekologik) va boshqalar kiradi.

Asosiy iqtisodiy funksiyalarga – mamlakatni iqtisodiy rivojlanish umumiyl dasturlarini aniqlash, iqtisodiyot sohalarini rag'batlantirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, samarali bandlik siyosatini shakllantirishni kiritish mumkin.

Ijtimoiy funksiyalarga esa muhtoj bo'lganlarga yordam ko'rsatish, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, ta'llim-tarbiya va boshqalarga tegishli mablag' ajratish, ularni rivojlantirishni amalga oshirish, ijtimoiy adolat tamoyillariga qat'iy amal qilish va boshqalar kiradi.

¹ Qarang: Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.:«O'zbekiston». 2005.

Davlatning moliya nazorati funksiyalarini ishlab chiqaruv-chilaming daromadlarini aniqlash, hisobga olish va o‘z navbatida ularni davlat byudjetiga yo‘naltirish hamda soliq siyosatini tartibga solish tashkil etadi.

Mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minalash funksiyasini barqarorlik, tinchlik va o‘zaro kelishuvlikni ta’minalashga qaratilgan, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan va doimiy ravishda olib boriladigan faoliyat deb qarash mumkin. Huquq-tartibotni ta’minalash funksiyasi nafaqat bu yo‘nalishdagi qonunlarni ishlab chiqish yoki qabul qilishdan iborat, balki ularning so‘zsiz amalda bajarilishini ta’minalash lozim.

Davlatning tabiatni muhofaza etish funksiyasi uning respublika atrof-muhitiga va ekologik vaziyatiga zarar etkazmaslik, tabiat resurslaridan oqilonqa foydalanish, Orolbo‘yida ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan ishlarni olib borish va aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash va ekologik rang-baranglikni asrash kabilarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi funksiyalari asosan Respublika Konstitutsiyasining 17-moddasi tamoyillari¹ asosida tartibga solinib, boshqa davlatlar bilan o‘zaro manfaatdorlik asosidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mamlakatni mudofaa va xavfsizligini ta’minalashdan iboratdir. Suveren davlat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi jahondagi barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a’zosidir.


4§. Davlat shakllari. Davlat mexanizmi

Davlat shakllari tushunchasiga huquqiy adabiyotlarda turlicha ta’rif berilib, umumiy ma’noda davlat boshqaruv shakli, tuzilish shakli hamda davlat siyosiy idora usuli (rejimi) bilan birgalikda olingan davlat hokimiyatidir.

Davlatning shakli deyliganda – boshqaruv, davlat tuzilishi va siyosiy rejimi shaklida namoyon bo‘ladigan davlat hokimiyatining tashkiloti tushuniladi. **Davlatning shakli tushunchasi** o‘z ichiga oliy davlat

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”. 2009 y.


hokimiyatining tashkilotini, uning kelib chiqish manbalarini, hokimiyat oliy organlarining o'zaro va xalq bilan munosabatlari tamoyillarini, davlat hokimiyatining hududiy tashkiliyligi hamda davlatning uning tarkibiy qismlari bilan o'zaro munosabatini, davlat hokimiyatini amalga oshirish usul va uslublarini qamrab oladi. Davlat shakli uning paydo bo'lishi va taraqqiyotining muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan bog'liqdir. *Davlat shakli uch tarkibiy qismi* (yoki tomoni) boshqaruvin shakllari, davlat tuzilish shakllari hamda davlat siyosiy rejimidan iborat yaxlit siyosiy hokimiyatdir. Davlatning shaklini o'rganish hokimiyat davlatda qanday tashkil qilingan, u qaysi organlar orqali namoyon bo'ladi, bu organlarning paydo bo'lish tartiblari qanday, ularning vakolat muddatlari va davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va boshqalarni tushunishga yordam beradi.



Boshqaruv shakli deyilganda, davlat hokimiyati va oliv boshqaruv organlarining paydo bo'lishi va tashkil topishining ma'lum tartibi tushuniladi. Davlat tuzilishi davlatning hududiy tuzilishini, markaziy va mahalliy hokimiyatlarning o'zaro munosabatlarining ma'lum tartibini belgilaydi. Siyosiy (davlat) rejimi esa siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning yo'llari va usullarini ifodalaydi.

Davlat mexanizmi. Davlat mexanizmi o'zining tuzilishi va mamlakat faoliyatining muayyan ob'ektiv tamoyillari asosida tashkil etilib faoliyat yuritadi, u jamiyatni davlat yo'li bilan boshqarishning eng muhim xususiyatlarini ta'minlaydi.

Davlat mexanizmi - davlat organlari va muassasalarining davlat ko'rsatmalarini, davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshiruvchi yaxlit iyerarxik tizimdir. Davlat mexanizmiga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:



1.Davlat organlari va muassasalarining yaxlit iyerarxik tizimidir. Uning yaxlitligi davlat organlari va muassasalari faoliyatini yuritish tamoyillari, vazifalari va maqsadlarining yagonaligi bilan ta'minlanadi.

2.Davlat xizmatchilar (amaldorlar, ba'zan boshqaruvcilar deb yuritiladi) faoliyat ko'rsatayotgan davlat organlari va muassasalari mexanizmining dastlabki tarkibiy qismidir. Davlat organlari subardinatsiya va muvofiqlashtirish asoslari bilan o'zaro bog'liqdir.


3.Davlat majburlov apparatiga ega bo'ladi. Biron bir davlat majburlov apparatisiz faoliyat yurita olmaydi.

Davlat mexanizmining tarkibiy elementlari - davlat apparati, davlat korxonalarli, davlat tashkilotlari va muassasalari, yordamchi tuzilmalar va shu kabi tashkilotlardan tarkib topib, ularning yordamida davlat o'z hokimiyatini amalga oshiradi va jamiyatda davlat rahbarligini ta'minlaydi. Davlat mexanizmining tarkibiy qismini bir maromida faoliyat yurishini muvofiqlashtiradi.


Davlat organi davlat mexanizmining dastlabki tarkibiy tuzilmasi bo'lib davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi, davlat funksiyalarini ijro etuvchi hokimiyat vakolatiga ega tizimdir.

Davlat organi o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlaridan iborat bo'lib, mustaqillik va qonuniylik asosida boshqa tizimlarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi va huquqiy aloqani ta'minlaydi. Davlat organlari davlat xizmati xodimlarining huquqiy maqomini belgilab, me'yoriy hujjatlar qabul qilish, ijrosini va nazoratini ta'minlashga qaratilgan faoliyat yuritadi. Davlat organlari davlat vazifalarini bajarishda faol ishtirok etib, uning o'ziga xos shakl va usullaridan foydalanadi, vakolatli davlat organlari tomonidan ular bajaradigan, qaror qabul qiladigan aniq masala va vazifalarni belgilaydi. Davlat organlari kelib chiqishi asosiga ko'ra, birlamchi (monarxiya tipida) yoki hosila (saylanadi yoki tayinlanadi) organlarga bo'linadi. Hokimiyat vakolati hajmiga ko'ra umumiy va maxsus vakolatli organlarga, faoliyat doirasiga ko'ra oly va mahalliy davlat organlarga bo'linishi mumkin. Shuningdek, davlat organlari shakllanishiga ko'ra, saylab qo'yiladigan va tayinlanadigan, kollegial yoki alohida bo'lishi mumkin.

Davlat apparati - davlat mexanizmining bir qismi bo‘lib, davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan, davlat vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir. Davlat apparatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari - bu mamlakat aholi manfaatlarini himoyalash, qonuniylik, demokratizm, oshkoraliqka amal qilish, davlat hokimiyatining taqsimlanganligi kabilardir.



Davlat organları tasnifi



Tayanch so‘z va iboralar

Davlat tushunchasi, fanning predmeti ularning o‘zaro munosabati. Davlat va huquq nazariyasi fanining fundamental va metodologik fan sifatida o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat va huquq nazariyasining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasi. Davlatning rivojlanish bosqichlari. Davlat va jamiyat tushunchalari. Davlatning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarning turlari va ularning mazmuni. Teologik nazariya. Patriarxal nazariya. Sharhnomalama nazariyasi. Sinfiy nazariya. Nazariyalarning xilma-xilligi. Davlat belgilari, shakllari. Davlat mexanizmi, organlari va ularning vazifalari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Davlat va huquq nazariyasi fani predmetini ayting.
2. Davlat va huquq nazariyasi fani ob’ekti tushunchasini izohlang.
3. Davlat va huquq nazariyasi fanining iqtisodiy, tarixiy fanlar bilan bog‘liqligiga misollar keltiring.
4. Davlat va huquq nazariyasi fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi qarashlarning xilma-xilligi sabablarini tushuntiring.
6. Davlatning paydo bo‘lishi xususidagi nazariyalarni sanang.
7. Patriarxal va teologik nazariyalarning mohiyatini tushuntiring.
8. Sharhnomalama nazariyasi asoschilarini kim va ularning nazariy maktabi qarashlarining mohiyati nimadan iborat?
9. Davlatning boshqaruv va tuzilish shakllarini izohlang.
10. Davlat mexanizmi va organlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.

2 BOB. Huquq nazariyasi, mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari

- 1§. Huquq tushunchasi, mazmuni va mohiyati**
- 2§. Huquqning mohiyati to‘g‘risidagi nazariyalar, huquqning tamoyillari va funksiyalari**
- 3§. Huquq manbalari, huquq normalari va ularni sharhlash**
- 4§. Huquqiy munosabatlar. Huquqiy ong va madaniyat**

1§. Huquq tushunchasi, mazmuni va mohiyati

Nazariya nafaqat keljakni belgilash yoki bashorat qilish, balki ijtimoiy, siyosiy va huquqiy taraqqiyotni mo‘ljallash uchun ham ahamiyatlidir. Huquq nazariyasi, ya‘ni uning qaysi tarmog‘i bo‘lishidan qat‘i nazar, fundamental ilmiy-metodologik asoslari tufayli jamiyatni demokratlashtirish va yangilashni harakatga keltiruvchi kuch sifatida muhim o‘rin tutadi.

Huquqiy nazariy tafakkur jamiyatni isloh qilish jarayonida vujudga kelayotgan munosabatlarning mohiyatini to‘la va har tomonlama chuqr anglash, qolaversa, uning kelgusidagi istiqbolini bashorat qilishda ham yordam beradi.

Jamiyatni yangilash sharoitida yuridik fanning asosiy vazifasi- milliy huquqiy ta‘limotni, ijtimoiy munosabatlarning qonuniyatlarini va huquqiy qoidalarini o‘rganishda, talqin qilishda, ularga ilmiy baho berishda yangi jamiyatning xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish va amaliyot uchun har tomonlama mukammal, asoslangan nazariy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Bu esa huquq sohalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish va tashkil qilish jarayonida amaliyot bilan uzviylikni ta’milash borasida tub o‘zgarishlar yasashni, yangi shakl va usullarni o‘zlashtirishni talab qiladi¹.

Huquq - ijtimoiy munosabatlarni normativ tartibga soluvchi tizim bo‘lib, uning asosiy qismi qonunchilikda o‘z ifodasini topadi, rasmiy manbalarda normativlik va rasmiy xarakterga ega bo‘lib, qonuniylik va adolatparvarlik qoidalariga asoslanadi.

¹ Ro‘zinazarov Sh.N. Yuridik fanlarning rivojlanishi va zamonaviy muammolari
Mas‘ul muharrir: H.R.Rahmonqulov.-T.: 2006.-7 b.

Huquq - tenglik, adolat va erkinlik g'oyalariga asoslanib, ko'p jihatdan qonunchilikda va boshqa huquqiy manbalarda o'z ifodasini topuvchi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamma uchun majburiy huquqiy normalar yig'indisidir. Hozirgi zamон huquqshunoslari huquq tushunchasini o'z asarlarida turlicha talqin etmoqda, qarashlarning xilma-xilligi asosida esa fikrlar tobora takomillashib bormoqda.

Huquq tushunchasi, uning mazmun-mohiyati xususida, paydo bo'lishi va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida olimlar tomonidan qator fikrlar bildirilib, ularning ta'riflari turli davrlarda turlicha talqin qilingan.

Qadimdan insoniyat huquq masalalari bilan jiddiy shug'ullanib keladi, lekin tadqiqotchi olimlarning har biri unga o'z qarashlarini singdirib borgan. Vaqt o'tishi bilan huquq haqidagi tushunchalar o'zgarib borgan, uning mohiyatini tushuntirishga ham turlicha qoidalar asosida yondashib kelingan. Huquq xususida bugungi kunda yuridik adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan bo'lsada, ularning har birida o'ziga xos ma'no-mazmun mavjud. Huquqshunos Laurens Fridmanning aytishicha, huquq tushunchasi shishadek nozik, sovun ko'pigidan hosil bo'ladigan pufaklarday omonat, vaqtdek tutqich bermas ko'pdan-ko'p ma'nolarga ega.

Huquq bu davlat tomonidan o'rnatilgan yoki ma'qullangan va qo'riqlanadigan, hamma uchun majburiy bo'lган yashash qoidalaridir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi reguliyatordir¹.

Shuningdek, huquq davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimidir², - deya ta'riflashadi. Boshqacha aytganda, huquq davlat tomonidan o'rnatiladigan, barcha shaxslar uchun bajarilishi va rioya etilishi majburiy bo'lган, davlatning vakolatli organlari tomonidan qo'riqlanadigan va bajarilishi ta'minlanadigan umummajburiy qoidalari majmuidir.

Huquq tushunchasi va mohiyatini yoritishda turlicha qarashlar

¹ Qarang: Davlat va huquq nazariyasi. A.A'zamxo'jayev va Sh. O'razayev tahriri ostida. - T.: 1992,-255 b.

² Tojixonov U, Saidov A. Davlat va huquq asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: 1999,- 40 b.

mavjud bo'lib, huquqqa istisnosiz faqat yuridik normalar tizimi deb qarovchi normativ yondashuv, huquqni uning tomonidan boshqariladigan ijtimoiy munosabatlar bilan bir xil, tenglash-tiruvchi sosiologik yondashuv va huquqni ozodlik va adolat mezonlari bilan bog'lovchi falsafiy yondashuvlar shakllandi.

Huquq tushunchasini ikki xil ma'noda ya'ni me'yorlar, qoidalar yig'indisi sifatida ham, ma'lum bir sub'ektlarga jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli huquq sifatida ham qarash mumkin.

Huquq bevosita davlat bilan bog'liq bo'lib, davlatsiz huquq bo'la olmaydi, chunki huquqni aynan davlat o'rnatadi, rasmiylashtiradi, bajarilishini ta'minlaydi va bevosita rioya etilishini nazorat qiladi. Xuddi shuningdek, davlat ham huquqqa ehtiyoj sezadi, huquq qoidalari orqali hokimiyatni tutib turadi, vakolatlarini qonun chiqarish yo'li bilan asoslaydi hamda davlatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Huquq tushunchasi, uning ma'ni-mazmuni xususida Aflatun va Arastu, I.Kant, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino kabi olimlar o'z asarlarida tavsif berib o'tganlar. I.Kant huquq to'g'risida fikr bildirib, adolatni amalga oshiruvchi, qonun sohibining erki irodasini ifodalovchi hamda tabiiy isbot talab qilib bo'lmaydigan qoidalari majmui sifatida ta'rif beradi. Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida huquqni fazil kishilarni haqiqiy baxtga erishish vositasi, davlatda tinchlikni ta'minlash, taraqqiyotga sharoit yaratish hamda insonni asrash, ehtiroslarni jilovlab turuvchi va tartibga soluvchi qurol sifatida ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov huquqqa ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi sifatida yondashiladi, deya ta'rif beradi¹. Huquq bilan axloq o'rtasida ancha farqlar bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: Huquq va axloq o'rnatilishi, shakllanishi va manbalariga, ularni ta'minlash usullariga, o'z qoidalaringin ifodalanish shakliga, kishilar ongiga ta'sir etish xarakteri va usullariga, insonning xulqiga nisbatan qo'yiladigan talablarga, ta'sir doirasiga,

¹Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir.3-t,-T.: «O'zbekiston», 1996.-20 b.

tegishli qoidalari buzilganda qoidabuzarga nisbatan belgilanadi-gan javobgarlikning xarakteri va qo'llanish tartibiga, ta'sir choralarining xususiyatiga va boshqa jihatlariga ko'ra farqlanadi.

Umuman, huquq bu davlat tomonidan o'matiladigan, jamiyat-dagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi, ma'lum hujjatlarda o'z ifodasini topgan, davlat organlari tomonidan yaratilgan va qo'riqlanadigan barcha uchun umummajburiy bo'lgan normativ hujjatlar yig'indisidir. Shuningdek, huquq o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, bu belgilar ma'lum huquq haqidagi tushunchalarni to'laroq, batafsil yoritish va to'ldirishga imkon beradi.

2§. Huquqning mohiyati to'g'risidagi nazariyalar, huquqning tamoyillari va funksiyalari

Huquq va uning kelib chiqishi haqidagi, shuningdek, uni normativ tartibga solish tizimi to'g'risidagi qarashlar jamiyatning rivojlanish jarayoniga, huquq haqidagi ilmning o'sishiga hamda ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'siriga ko'ra o'zgarib turgan.

Huquq mohiyatini to'g'ri tushunish faqat huquqshunoslik fanining samarali rivojlanishiga xizmat qilibgina qolmay, balki amaliyotchi huquqshunoslар uchun ham, huquqni qo'llanish va muhofaza etish bo'yicha faoliyatlarida nihoyatda zarurdir. Huquqning nima ekanligini yaxshi bilmay turib, uning to'g'ri qo'llanilishi, qonuniylik, huquqiy mas'uliyat haqida gapirish mumkin emas.

Huquq umumijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, barcha kishilar-ning manfaatlariga xizmat qiladi, tashkiliy birlikni, intizomni, barqarorlikni va ijtimoiy adolatning qaror toptirishni ta'minlaydi.

Huquqning tamoyillari uning mazmuni, mohiyati va jamiyat-dagi o'rni (vazifasi) ni tavsilovchi eng asosiy qarashlar, g'oyalalar va qoidalardir. Huquq tamoyillari qonun chiqaruvchi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi g'oyalalar sifatida maydonga chiqarkan, huquqiy normalarni takomillashtirish yo'llarini belgilab beradi.

Chunonchi, S.S.Alekseev qonuniylik, adolat, yuridik tenglik,

ijtimoiy erkinlik, fuqarolik burchi, ob'ektiv haqiqat, sodir etilgan ayb uchun javobgarlik tamoyillarini alohida ajratib ko'rsatadi.

V.K. Babayev huquqdag'i adolat va ozodlik bosh tamoyillarini bayon etib, bu tamoyillar huquqning boshqa, ya'ni huquqni shakllantirish va uni amalga oshirishdagi demokratizm, qonuniylik, milliy tenglik, insonparvarlik, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, davlat va shaxs o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat tamoyillarida o'z rivojini topadi, deb hisoblaydi.

Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalar

Taddiy huquq nazariyasi (Lökk,Russo, Monteske,Radishchev, XVII-XVIII asrlar) Davlat tomonidan yaratilgan pozitiv (jobiy) huquq bilan birga, undan ham yuqorida turadigan insonga u tuqiliscidan xos bolgan, undan aqalmas tabiiy huquq ham bor, deb hisoblaydilar (yashash huquqi, mehnat gilish huquqi, boshpana huquqi, erkin xarakatlansh huquqi va boshqalar).

Realistik huquq maktabi (R.Iereng). Huquq bu davlat tomonidan himoya qilinadigan manfaat bo'lib, u davlat hokimiyatsiz hech narsa emas. Huquq - himoyalangan davlat manfaatidir.

Psixologik huquq maktabi (Petralskiy, Merill). Kishilarning ruhiyati jamiyat, axloq, huquq va davlatning rivojanishini belgilab beradigan omildir. Bu nazariya vakillarining fikricha, haqiqiy huquq kishilarning o'z huquq va majhuriyatlar to'g'risidagi ruhiy kechimmlaridir.

Huquqni tushunishga tarixiy yondashuv (G.Gugo, K.Savin i. F.Puxta, XVII asr oxiri XIX boshlari). Qonunshunos huquq normasini o'zingiz irdosi bilan o'mata olmaydi, balki u shakllangan normani rasmiy lashtirib qo'yadi, xolos. Bu nazariya vakillarining fikricha, huquq tarixiy jarayon davomida xuddi til yoki muayyan millat kabi birovning ko'satmasi yoki davlatning aralashuviziz asta-sekin tarkib topadi va rivojlandi.

Huquqni tushunishda normativlik nazariyasi (G.Kel'zen, R.Shtammler, Novgorodsev XX asr). Bu nazariya vakillari huquqning butun tizimi, zinapoya tuzilishiga ega bo'lib, bu zinapoyaning boshida asosiy (suveren) huquq normasi turadi va quvi pog'onadagi normalar yuqorida suveren normadan kelib chiqadi. deb hisoblaydilar.

Materialistik (sinifiy) huquq nazariyasi (K.Marks, F.Engels. XIX-XX asr). Bu nazariya vakillari fikricha, huquq bu hukmon sinifining qonun darajasiiga ko'tarilgan erki bo'lib, uning mazmuni jamiyat hayatidagi iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Huquq tamoyillarining yana bir ro'yxati O.I.Sibulskaya tomonidan taklif etilgan.

Bular - ijtimoiy adolat, insonparvarlik, fuqarolar teng huquqliligi, huquq va majburiyatlar birligi, huquqda ishontirish va majburloving qo'shilishi tamoyillaridir.

Huquq tamoyillari, huquq normalarini takomillashtirish yo'llarini aniqlaydi, qonunshunos uchun bosh g'oyalari ko'rinishida yuzaga chiqadi. Huquq tamoyillari huquq uchun xos bo'lgan quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- umumhuquqiy qoidalari (qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm);
- sohalararo (odillik, javobgarlikning muqarrarligi, oshkoraliq);
- sohaviy (fuqarolik huquqiy munosabatlarda tomonlarning tengligi, soliq masalalarida soliq to'lovchining haqligi
- prezumpsiyasi, aybsizlik prezumpsiyasi);

Huquqning o'ziga xos jihatlari quyidagilardir: Huquqning barcha uchun majburiyligi; huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi; sub'ektiv huquqlar orqali harakat qilish hamda davlat tomonidan qo'riqlanishi va bajarilishi ta'minlanganlidir.

Huquq tushunchasi adolatdan ajralmas bo'lib, qadimgi Rim huquqida ham huquqning halol tushunchasi, yashash, o'zgalarni ranjitmaslik, har kimga keraklisini berish kabi qoidalari yozib qo'yilgan edi. Huquq ezzulik va adolatlilik san'ati sifatida e'tirof etilgan.

Huquqning asosiy funksiyalari - tartibga solish, muhofaza qilish va tarbiyalash kabilalar hisoblanadi.

Tartibga solish funksiyasi - amaldagi ijtimoiy aloqalar va tariblarni mustahkamlash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, u yoki bu sub'ektning faol xulqini ta'minlaydi.

Muhofaza qilish funksiyasi - huquqiy himoya va yuridik javobgarlik choralarini belgilash, shaxslarning zimmasiga mas'uliyat yuklash tartibini o'rnatishdan iborat.

Tarbiyalash funksiyasi - jamiyatda huquq normalariga qat'iy amal qilish lozimligi, u cheklagan hatti-harakatlardan tiyilish lozimligi orqali tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

3§. Huquq manbalari, huquq normalari va ularni sharhlash

Huquqning manbai deyilganda – yuridik adabiyotlarda e'tirof etilganidek, umumiy ma'noda huquqning ifoda etilishi, mustahkamlab qo'yilish shakli tushuniladi. Huquq shakllarining o'ziga xos xususiyatlari uning fuqarolar erkini normativ mustahkamlashi, xalqning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy hokimiyatni ta'minlashi, manfaatlarni ifodalashning muhim demokratik shakli sifatida qonunlar ahamiyatini tasdiqlashi bilan xarakterlanadi. Huquqning manbalari bilan bir qatorda davlatning huquqiy qarorlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, uning irodasini ifoda etuvchi shakllarini ham inobatga olish darkor. Chunki huquq shakllari yordamida davlat o'zining ajralmas xarakteri va belgilarini namoyon etadi.

Davlat va huquq nazariyasida huquqning 4 ta manbai haqida fikr bildiriladi.

- normativ-huquqiy hujjat;
- normativ shartnoma;
- sud (huquqiy) presedent;
- huquqiy odat.

Normativ-huquqiy hujjat - bu vakolatli davlat organlarining huquq ijodkorligi faoliyati hujjati bo'lib, uning asosida huquq normalari o'rnatiladi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

Normativ shartnoma - bu ikki va undan ortiq tomonlarning o'zaro kelishivi bo'lib, uning natijasida huquq normalari o'rnatiladi, o'zgartiriladi va bekor qilinadi yoki boshqacha qilib aytganda shartnoma - fuqarolar va yuridik shaxslarning o'zaro munosabatlari qoidalari, huquq va majburiyatlarini aniqlovchi yuridik hujjatdir. Huquqning manbai sifatida normativ shartnomaning asosiy xarakterli belgilardan biri undagi taraflarning erki va irodasini ulami xohishiga qarab ifodalishidir.

Sud (huquqiy) presedenti deyilganda sud yoki ma'muriy organning yozma yoki og'zaki shakldagi qarori tushunilib, bu qaror kelajakda shunga o'xshash (analogiya) barcha ishlarni ko'rib chiqishda ma'lum norma, etalon (namuna) yoki odatiy qoida

bo'lib hisoblanadi. Huquq manbaining bu turi - qadimiy manbalardan biri bo'lib, qadimgi dunyo mamlakatlarida keng qo'llanilgan. Hozirda esa anglosakson huquq tizimi davlatlarida (Buyuk Britaniya, AQSh, Kanadada)sud presedenti huquqning asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Huquqiy odat – bu uzoq muddat davomida qo'llanib kelinayotgan rasmiy hujjatlarda o'z ifodasini topmagan davlat tomonidan tan olingan xulq qoidalaridir.

Huquqiy odatning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: uzoq muddatda amal qilishi; unga doimiy amal qilinishi; uning davlat tomonidan tan olinishi; uning lokal xarakterga egaligi ya'ni nisbatan kam guruh kishilar yoki hududlar doirasida qo'llanishi. Arab va boshqa qator islom mamlakatlarida huquq manbai sifatida musulmon diniy qarashlarga e'tibor qaratiladi. Musulmon huquqining manbai quyidagilardan iboratdir: *Qur'on* - Ollohnning Muhammad payg'ambarga aytilgan (qaratilgan) nasihatlari, *Ijmo* - Qur'on qoidalarini xalifalar (bilimdon kishilar) tomonidan aniqlashtirib ifoda etilishi, *Sunna* - bu kundalik urf - odatlar qoidalari bo'lib, Muhammad payg'ambarning aytgan nasihatlarini o'zida mujassam etgan va keyingi ulamolar tomonidan amalga oshirilgan to'plamdir.

O'zbekistonda huquq manbalari 2000 yil 14-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuning 5-moddasiga ko'ra quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- Oliy Majlis palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;
- Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarorlari.

Mazkur qonunning 6-moddasasi qoidalariiga asosan normativ-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlari hisoblanadi va ular O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston

Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari **qonun hujjatlari** hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari **qonun osti** hujjatlari hisoblanadi.


Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari xalqaro huquqning asosiy qoidalari bo'lib, ular xalqaro huquqning barcha sub'ektlari tomonidan tan olingan. Ular ichida davlat suverenitetini hurmat qilish, zo'rlik ishlatmaslik yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilmaslik, davlatning hududiy yaxlitligi, chegaralarning buzilmasligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ichki ishlarga aralashmaslik, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, insонning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish kabilar qayd etilgandir.

Xalqaro shartnoma – xalqaro huquqning ikki yoki bir necha sub'ekti tomonidan qabul qilingan bitim bo'lib, huquq va majburiyatlarni belgilovchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi hujjatdir. Bunday shartnoma 1995 yil 22-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning qoidalari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga nisbatan ustunlikka ega.

Qonunlar o'z navbatida, *Konstitutsiyaviy qonunlar, kodifikatsiyalangan va joriy qonunlarga bo'linadi*. Kodekslar bu kodifikatsiya xususiyatiga ega bo'lgan qonun bo'lib, o'zida ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasini batafsil tartibga soluvchi normalarni birlashtiradi. Masalan, Soliq kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Mehnat kodeksi va hokazolar.

Odatda qonunlar ushbu hududdagi barcha sub'ektlar, ya'ni fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun majburiydir. Huquq normalari talablarining

Huquq normalarini sharhlash (Tasnifi)



O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijliklar va fuqaroligi bo'limgan shaxslar uchun majburiyligi huquqning umumiy tamoyili hisoblanadi. Lekin istisnolar ham mavjud. Masalan, "Harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunning talablari faqat O'zbekiston fuqarolariga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasining "Referendum to'g'risida"gi Qonuniga binoan referendumda faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarolari qatnashishi mumkin.

O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarorlari xo'jalik va madaniy qurilishning eng muhim masalalari bo'yicha qabul qilinadi. Ular odatda umumiy xususiyatga va huquq normalariga ega bo'lib, huquq manbalari hisoblanadi.

O'zbekistonda vazirliklar, tashkilotlarning hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga dahldor normativ hujjatlarni qayd etish davlat tizimi joriy etilgan. Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Huquq normasi umumiylar xulq-atvor qoidasi sifatida hayotiy munosabatlarda takrorlanib turadigan narsalarni umumlashtirish zarurati natijasida shakllanadi va ko'p marta qo'llashga mo'ljallangan bo'ladi, shuningdek, hamisha qandaydir umumiylar belgilarga ega bo'lgan shaxslarga qaratilgan bo'ladi.

Huquq normasi davlatning (xalqning) irodasini aks ettiradi, davlat tomonidan normativ hujjatlarda shakllantiriladi, davlatning irodasi sifatida namoyon bo'ladi, davlat tomonidan muhofaza qilinadi, davlat nuqtai nazaridan eng muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi.

Huquq normasi tuzilishiga ko'ra uch tarkibiy qismi: gi poteza, dispozitsiya va sanksiyadan tashkil topgan.

Gipoteza - huquq normasining tarkibiy qismi bo'lib, unda norma amal qila boshlaydigan, ijro etiladigan sharoitlar bayon etiladi.


Dispozitsiya - huquq normasining shunday tarkibiy qismiki, unda xulq-atvor qoidalaring o'zi shakllantiriladi, huquq sub'ektlarining huquq va majburiyatlar belgilanib, tavsif beriladi. Dispozitsiya - shu hulq atvor qoidasini o'zida ifodalaydi.


Sanksiya - huquq normasining huquqbuzarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan davlat majburlov choralarini belgilaydigan tarkibiy qismi bo'lib, huquq normasini bajarmaganlik uchun davlat organlari qo'llaydigan majburlov chorasi hisoblanadi. Sanksiyaning turlari jarima, qamoq, ozodlikdan mahrum etish va boshqalar bo'lishi mumkin. Huquq normalariga amal qilmaslik huquqbuzarlik sifatida e'tirof etilib yuridik javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

Huquqbuzarlik qasd yoki ehtiyoitsizlik ko'rinishida bo'ladi, huquq qoidalariaga rioya qilmaslik oqibatida jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga etkaziladigan moddiy va ma'naviy zarar yoki xavfli harakat va harakatsizlikdir. Huquqbuzarlik huquq va muomala layoqatiga ega sub'ekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normasi talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, jamiyat


va davlat manfaatlariga ziyon keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir. Huquqbazarlik belgilari sifatida aybli, huquqqa xilof, jamiyat uchuchn ijtimoiy xavfli xarakterga ega, jazoga sazovor qilmishdir. Huquqbazarlik yuridik fakt hisoblanib, ob'ekt, ob'ektiv tomon, sub'ekt hamda sub'ektiv tomon kabi unsurlardan tashkil topadi. Huquqbazarlik sodir etgan sub'ektlarga nisbatan qonun hujjatlarida yuridik javobgarlik choralari nazarda tutilgan.

Yuridik javobgarlik bu huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida nazarda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo'llashi bo'lib, bunday aybdor shaxslarga nisbatan muayyan huquqlardan mahrum etilgan holda choralar qo'llaniladi. Yuridik javobgarlik belgilari davlat majburlov choralar bilan bog'liqligi, sodir etilgan huquqbazarlikdan so'ng qo'llanilishi, tegishli vakolatli organlar tomonidan prosessual qonun hujjatlari orqali amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Huquqbazarlikning ijtimoiy xavfliligi, etkazilgan zaraming miqdori, qonun hujjatlarida belgilangan holatlarni inobatga olgan holda intizomiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy hamda jinoiy-huquqiy yuridik javobgarlik choralar qo'llanishi nazarda tutilgan.





Huquqbuzarlik



4§. Huquqiy munosabatlar. Huquqiy ong va madaniyat

Huquqiy munosabatlar bu - huquqning ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan real ta’siri bo‘lib, uning ishtirokchilari tomonidan tegishli ravishda sub’ektiv huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Huquqiy munosabatlar bu huquqiy normalar yordamida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Huquqiy munosabat o‘zaro sub’ektiv huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar ya’ni huquq sub’ektlari o‘rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir. Bunday munosabatlarda kamida ikki tomon o‘zaro huquqiy munosabatga kirishadi.

Davlat va huquq nazariyasi qoidalariga asosan huquqiy munosabatlarning quyidagi asosiy belgilari mayjud:

1) huquqiy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir turi bo‘lib, ijtimoiy sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatni huquq normalari asosida belgilaydi.

2) huquqiy munosabatlar huquq normalari asosida vujudga keladi;

3) huquqiy munosabatlar sub’ektiv huquqlar hamda majburiyatlar vositasida shaxslar o‘rtasidagi aloqalardir;

4) huquqiy munosabat erkin, irodaviy munosabatlar bo‘lib, uning paydo bo‘lishi uchun ishtirokchilarining erki (irodasi) lozim bo‘ladi.

5) huquqiy munosabatlar davlat tomonidan qo‘riqlanadi va uning tarkibida davlat o‘z majburlov kuchiga tayanadi va tartibga soladi.

Huquqiy normalar o‘zgalaming vazifa va funksiyalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradilar, huquqiy munosabatlarni tartibga solish bilan huquq amaliyotga tatbiq etiladi. Huquqiy munosabatlar bu uning sub’ektlari o‘rtasidagi aloqa bo‘lib, huquqiy normalarga asosan yuzaga keladi, sub’ektiv huquq va majburiyatlar uning asosiy mazmunini bildiradi.

Huquqiy munosabatlarning elementlariga quyidagilar kirdi:

1. huquq ob’ekti (ashyolar, munosabatlar);

2. huquq sub’ekti (yuridik va jismoniy shaxslar)

3. yuridik fakt (harakat va hodisalar)

Huquqiy munosabatlarning turkumlanishi turli xil asoslarga ko‘ra amalga oshirilib, ularni quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin.

a)huquqning tarmoq (soha)larga mansubligiga ko'ra (davlat (Konstitutsiyaviy) huquq, fuqarolik-huquqi, ma'muriy huquq);

b)huquqiy munosabat mazmunining xarakteriga asosan (umum-regulyativ, regulyativ, qo'riqlovchi huquqiy munosabatlar);

d)huquqiy munosabatlarning sub'ektlariga ko'ra (nisbiy, absolut, umumiyl);

e)huquqiy munosabatlardagi majburiyatlarning xarakteriga binoan (passiv va aktiv tipdagi huquqiy munosabatlar);

Huquqiy ong huquqning ajralmas tarkibiy qismi va uning bajarilishini ta'minlovchi vositadir. Huquq - kishilarning erki va ongi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Huquqni yaratish jarayoni kishilarning ongli faoliyati bilan bog'liq (huquq ijodkorligi) yoki huquq ushbu faoliyatining natijasidir.

Huquqiy ong - jamiyatdagi huquqiy hodisalarga va huquqqa nisbatan kishilarning munosabatlarni ifoda etuvchi (bildiruvchi) qarashlar, tuyg'ular, mulohazalar va tasavvurlarning yig'indisidir. Huquqiy ong tushunchasi shu bilan cheklanmasdan, u o'z ichiga yana huquqiy idrok, huquqiy normalar talablarini his qilish, kishilar tomonidan o'zining xatti - harakatlarining huquqiy qoidalarga mos kelish kelmasligiga baho bera olish qobiliyatiga ega bo'lish kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi.

Huquqiy ong o'ziga xos xususiyatlarga ko'ra, jamiyatda tutgan o'miga ko'ra siyosiy ongdan farq qiladi. Demak, huquq va huquqiy ong birgalikda shakllanadi, ya'ni dialektik birlikda bo'ladi. Huquq va huquqiy ong ob'ektiv shart sharoitdan kelib chiqqan holda shakllanadi, bir-biri bilan o'zaro harakatda bo'ladi.

Jamiyatda yuksak huquqiy ongning shaklanishiga davlat, huquq, siyosat, madaniyat taraqqiyoti darajasi, siyosiy partiyalar, an'analar, milliy xususiyatlar va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy ong tuzilishiga ko'ra huquqiy g'oya va huquqiy psixologiyalardan tashkil topadi.

Huquqiy g'oya bu jamiyatning huquqiy qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari va talablarning ilmiy tizimlashgan ifodasidir. Huquqiy g'oya huquq ijodkorligi va huquq ijrosi masalalarini o'z ichiga oladi. U g'oyaviy konsepsiya sifatida huquqning kelajakdag'i rivojiga baho berishni, u yoki bu huquqiy aktlarni qabul qilishning

maqsad vavazifalarini, asosiy huquq prinsiplarini, huquqiy tartibga solish mohiyatidan kelib chiqib, ularning mazmunini ifoda etadi.

Huquqiy psixologiya – alohida ijtimoiy guruqlar yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, qarashlар, fikrlar yig'indisidir. Huquqiy psixologiyaning shakllanishida ijtimoiy guruh yoki jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Huquq g'oyasi bilan huquq psixologiyasi o'zaro dialektik bog'liqidir. Huquqiy ongning tarkibi (strukturasi) da huquqiy ideologiya, g'oya asosiy va etakchi ahamiyat kasb etadi. Huquqiy psixologiya huquqiy ideologiya(g'oya)ni ta'minlab turivchi muhim manbalardan hisoblanadi.


Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi (tasavvurlari), qonunchilikning ahvoli, huquqni tatbiq etish ishlarini tashkil etish, huquqning obro'yи va hokazolardan tashkil topadi.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya etishidir. Jamiyatning huquqiy madaniyati aholi huquqiy ongingining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni u aholi tomonidan huquq haqidagi bilimlarning o'zlashtirilganligida namoyon bo'ladi.


Huquqiy madaniyatning asosiy xususiyati shundaki, u nafaqat huquqni yoki uning tatbiq etilishini, balki u har bir shaxsning huquq haqidagi, qonun hujjatlari ijrosi haqidagi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati haqidagi kompleks tasavvurlarini ham ifodalaydi. Huquqiy madaniyat huquqiy ong bilan bog'liq bo'lib, unga suyanadi, lekin u mustaqil kategoriya sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni o'zida nafaqat tegishli huquq normalarida qayd qilingan sosial-psixologik jarayonlarni, balki shaxslarning yuridik ahamiyatga ega bo'lgan xulqi, huquq ijodkori ko'rinishidagi faoliyati hamda uning natijalarini mujassamlashtiradi.

Xulosa sifatida aytish kerakki, huquqiy madaniyat - bu aholining, ayniqsa yoshlarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquq qoidalarini hurmat qilishi hamda unga rioya qilishi demakdir.


Huquqiy ong



Huquqiy madaniyat



**Huquqiy
munosabatlar**
(tasnif)



Tayanch so‘z va iboralar

Huquq tushunchasi, ahloq tushunchasi va ularning o‘zaro nisbati. Huquq tizimi va sohalari. Huquqning belgilari va o‘ziga xos jihatlari. Huquqning vazifalari. Huquqning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarning turlari va ularning mazmuni. Huquq normalari, gipoteza, dispozisiyavasanksiyatoshunchalari. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Huquq tushunchasi va uning asosiy belgilarini aytинг.
2. Huquqning tizimi, sohalari tushunchalarini izohlab bering.
3. Huquqning ijtimoiy ahamiyati, asosiy vazifalarini aytинг.
4. Huquq normalari, gipoteza, dispozisiya, sanksiyatoshunchalari izohlab bering.
5. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishidagi asosiy omillarni tushuntiring.
6. Huquqning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarning turlari va asoschilarini aytинг.

Test savollari

1) Prezident I.A.Karimovning "fanning vazifasi kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat. Fan jamiyat taraqqiyotini olg‘a siljituvchi kuch, vosita bo‘lmog‘i lozim", - degan oqilona ta’riflari qaysi asarida bayon etilgan?

- A) "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralarini" asarida.
- B) "Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz" asarida.
- D) "Bizdan ozod va obod vatan qolsin" asarida.
- E) "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir" asarida.

2) Quyidagi qatorlarning qaysi birida faqat sohaviy yuridik fanlar keltirilgan?

- A) sud tibbiyoti, kriminalistika, kriminologiya va sud psixiatriyasi.
- B) fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq, moliya huquqi, soliq huquqi.
- D) sud psixiatriyasi, sud ballistikasi, sud buxgalteriyasi, ma'-muriy faoliyat.
- E) kriminalistika, huquqiy statistika, sud tibbiyoti, ommaviy huquq.

3) Davlat va huquq nazariyasining predmetini nima tashkil qiladi?

- A) davlat va huquq tarixi va falsafasining qonuniyatlarini o'rganish.
- B) davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy va umumiy qonuniyatlarini o'rganish.

- D) o'z ichida butun davlat, jamiyat va shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish qonuniyatlarini o'rganish.
- E) har xil shakldagi davlat va huquq munosabatlarini o'rganish.

4) Davlat funksiyalarini faoliyati doirasiga ko'ra turlarini ko'rsating:

- A) siyosiy va amaliy tajriba funksiyasi.
- B) ilmiy bashorat va dunyoqarash funksiyasi.
- D) regulyativ va qo'riqlash funksiyasi.
- E) ichki va tashqi funksiyasi.

5) Demokratik jamiyatni izohlang.

- A) bu jamiyatda davlat manfaatlari inson manfaatlaridan yuqori turadi.
- B) bunday jamiyatda faqat ishchi va dehqonlarning huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi.
- D) bunday jamiyatda iqtisodiy jihatdan hukmon shaxslarning manfaatlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi.
- E) bu jamiyatda inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olinadi hamda hokimiyat xalq tomonidan amalga oshiriladi.

6) Davlat tushunchasiga berilgan zamonaviy ta’rifni belgilang?

- A) moliyaviy jihatdan hukmron bo‘lgan hamda barcha fuqarolarga iqtisodiy jihatdan yordam beruvchi siyosiy tashkilot.
- B) jamiyatda adolatni o‘rnatuvchi, siyosiy arboblarni davlatni boshqarishda birlashtiruvchi murakkab siyosiy va yuridik tashkilot.
- D) ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiq-lashtirib turuvchi, hamma uchun majburiy bo‘lgan huquqiy normalar chiqaruvchi va majburlov apparatiga ega bo‘lgan siyosiy tashkilotdir.
- E) iqtisodiy jihatdan xukmron sinfnинг manfaatini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlarning yig‘indisi.

7) Davlatning tashqi funksiyasini aniqlang?

- A) boshqa davlatlar bilan madaniy tadbirdarlarni amalgalashish.
- B) mamlakat mudosaasi va xavfsizligi.
- D) mamlakat mudosaasida davlatlar bilan hamdo‘stlik aloqalari o‘rnatish.
- E) barcha javoblar to‘g’ri.

8) Davlatning tuzilishiga ko‘ra qanday shakllari mavjud?

- A) demokratik, g‘ayridemokratik, avtoritar.
- B) federativ, konfederativ, respublika.
- D) unitar, federativ, avtoritar.
- E) unitar, federativ, konfederativ.

9) Davlatning boshqaruv shaklini aniqlang?

- A) monarxiya va imperiya.
- B) monarxiya va respublika.
- D) barcha javoblar to‘g’ri.
- E) federativ va parlamentar.

10) Davlatning unitar ta’risini belgilang?

- A) bu davlatlarning muayyan ittifoqi bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy maqsadlar uchun shartnomaga yoki bitim asosida tuziladi.
- B) davlatning yagona tizimdagagi hokimiyat va boshqarish organlari, yagona qonunchilik va fuqarolikning bo‘lishi.

D) davlatlarning shartnoma va qonuniy tartibga solingan birlashuvini ta'sis etishga asoslangan ittifoqi.

E) barcha javoblar to'g'ri.

11) Hokimiyatning taqsimlanishini tushuntiring.

A) hokimiyatning Vazirlar Mahkamasi, prokuratura va sudsiga bo'linishi.
B) hokimiyat vakolatlarining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlanishi.

D) hokimiyatning sudlov, tashqi ishlari vazirligi funksiyalariga taqsimlanishi.

E) hokimiyatni o'liy va mahalliy organlarga taqsimlanishi.

12) O'zbekiston Respublikasida ijroiya hokimiyat organlari tizimiga qaysi organlar kiradi?

A) Prezident, suds, vazirliklar.

B) Oliy Majlis, Konstitutsiyaviy sud va prokuratura.

D) Prezident, Vazirlar Mahkamasi, hokimlar, o'zini o'zi boshqarish organlari.

E) Vazirlar Mahkamasi, hokimliklar va Qonunchilik palatasi Kengashi.

13) Quyidagilardan qaysi biri ijro etuvchi organlar tarkibiga kirmaydi?

A) Oliy Majlis.

B) shahar va tuman hokimliklari.

D) hukumat, vazirlik va davlat qo'mitalari.

E) mahalliy hokimiyat organlari.

14) Quyidagilardan axloq normalariga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang?

A) davlat tomonidan ishlab chiqiladi.

B) aholining belgilangan qatlami xohishi va istagini bildiradi.

D) faqat jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va jamoatchilik fikri kuchi bilan himoyalananadi.

E) normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanadi, umummajburiy ahamiyatga ega.

15) Quyidagilardan qaysi biri huquqning asosiy belgilari hisoblanmaydi?

- A) barcha uchun majburiyligi.
- B) davlat tomonidan ta'minlanganligi.
- D) jamoatchilik tomonidan himoya qilinishi.
- E) davlat tomonidan o'rnatilganligi.

16) Huquq normalarning ifodalanish shakliga ko'ra qanday turlari mavjud?

- A) yozma shakldagi va og'zaki shakldagi normalar.
- B) huquq, ahloq, odat, korporativ va boshqa normalar.
- D) favqulodda vujudga kelgan normalar va ahloq normalar.
- E) siyosiy, tashkiliy, etik, estetik va boshqa normalar.

17) Ta'minlanishi va o'rnatilishi usuliga ko'ra qanday normalar mavjud?

- A) huquq, axloq, odat, korporativ va boshqa normalar.
- B) favqulodda vujudga kelgan normalar va ahloq normalar.
- D) siyosiy, tashkiliy, etik, estetik va boshqa normalar.
- E) yozma va og'zaki shakldagi normalar.

18) Huquq prinsiplariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

- A) evristik prinsip.
- B) qonuniylik prinsipi.
- D) fuqarolarning qonun oldidatengligi prinsipi.
- E) insonparvarlik prinsipi.

19) Quyidagi belgilardan qaysi biri huquqqa xos emas?

- A) odatlanish kuchidan foydalanish.
- B) bajarilishining majburiyligi.
- D) davlat tomonidan o'rnatilganligi va kafolatlanganligi.
- E) normativligi.

20) Hozirgi zamonda huquq tushunchasini ifodalovchi qoidani belgilang.

- A) mazmuni jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlari bilan belgilanadigan va hukmron sinflarning qonun darajasiga ko'tarilgan erki ifodasi.
- B) yuridik normalar bilan tartibga solinuvchi odamlarning real xatti-harakati, Huquqiy munosabatlar tizimi.
- C) davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksiyalangan va uning majburlov kuchi bilan ta'minlangan umummajburiy xatti-harakat qoidalari tizimi.
- E) kishilarning o'z huquq va majburiyatlariga bo'lgan ruhiy munosabati.

21) Huquq normalari - bular ...

- A) jamoat tashkilotlari tomonidan o'rnatilgan va ularning a'zolari uchun majburiy bo'lgan xatti-harakat qoidalari.
- B) kishilarning adolat to'g'risidagi tasavvurlariga mos keluvchi hatti-harakat qoidalari.
- D) odat tusiga kirgan hatti-harakat qoidalari.
- E) normativ aktlarda ifodalanadigan va davlat tomonidan kafolatlanadigan xatti-harakat qoidalari.

22) Huquqiy tarbiya bilan shug'ullanuvchi organlarni belgilang?

- A) ommaviy axborot vositalari.
- B) prokuratura organlari.
- D) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari.
- E) barcha javoblar to'g'ri.

23) Huquqiy tarbiyani amalga oshirishning usullarni aniqlang?

- A) ishontirish va majburlash.
- B) rag'batlantirish va ogohlantirish.
- D) ogohlantirish va majburlash.
- E) barcha javoblar to'g'ri.


II Bo'lim. Mehnat huquqi asoslari

1-BOB. Mehnat huquqi tushunchasi, subektlari. Mehnat shartnomasi

- 1§. *Mehnat huquqi tushunchasi, subektlari*
- 2§. *Mehnat qilish huquqi*
- 3§. *Mehnat shartnomasi*

1§. Mehnat huquqi tushunchasi, subektlari


Mehnat huquqi tushunchasi - mehnat munosabatlarning vujudga kelishi, amal qilishi va bekor bo'lishi tartibini belgilovchi, ish haqi, dam olish va mehnatni ijtimoiy himoyalash hamda mehnat nizolarini ko'rib chiqish, shuningdek mehnat munosabatlari bilan bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasidir.



O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 1995 yil 21 dekabrdagi tasdiqlanib, 1996 yil 1 apreldan amalga kiritilgan. U ikki qism ya'ni umumiy va maxsus qism, 26 BOB, 294ta moddadan iborat.

Mehnat huquqi huquq tarmoqlari ichida katta ahamiyatga ega. Chunki u xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini, mehnatga haq to'lash, ishdagi yutuqlari uchun rag'batlantirish va mehnat intizomini buzganlik uchun qo'llaniladigan intizomiylar jazo choralarini, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini, yakka tartibdag'i va jamoaga oid mehnat nizolarini ko'rib chiqish tartibini, mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligini, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish qoidalarini belgilaydi. Mehnat huquqiy munosabatlari-bu mehnat jarayonida yuzaga keladigan, mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan iboratdir. Mehnat huquqining manbalarini turli shakldagi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Mehnat huquqining asosiy manbalarini quyidagilardan iborat



Mehnat huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari mehnat huquqining sub'ektlari hisoblanadi

Xodimning asosiy mehnat huquqlari (16 –modda)

O'z mehnati uchun qonun hujjalari belgilangan eng kam oylik ish haqidagi oz bo'Imagan miqdorda haq olish

Muddattlari chegarasi belgilangan ish vaqtini o'matish, bir qator kasblar va ishlar uchun ish kunini qisqartirish, har haftalik dam olish kunlari, bayram kunlari, shuningdek haq to'lunadigan yillik ta'tillar berish orqali taminlanadigan dam olish

Xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan sharoitlarda mehnat qilish

Kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Kasabasi uyushmalari hamda xodimlar va mehnat jamoalarining manfaatlarini ifoda etuvchi boshqa tashkilotlarga birlashish

Ish bilan bog'liq holda yoki sog'ligiga yoki mol-mulkiga etkazilgan zararning o'rmini qoplash

Qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tunilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish

O'zining mehnat huquqlarini himoya qilish, shu jumladan sud orqali himoya qilish va malakali yuridik yordam olish

Jamoalarga doir mehnat nizolarida o'z manfaatlarini quvvatlash huquqiga egadir

Ish beruvchining asosiy huquqlari MK ning (17-moddasi)

Korxonani boshqarish va o'z vakolatlari doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish

Qonun hujjalari muvofiq yakka tartibdagagi mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish

Mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni lozim darajada bajarishni xodimdan talab qilish

2§. Mehnat qilish huquqi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida ifoda etilganidek: "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir".

"Inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasi"da ham mehnat qilish huquqi insonning eng muhim tabiiy huquqlaridan ekanligi tan olingan. Ushbu Deklarasiyaning 23-moddasida takidlanganidek: "Har bir inson mehnat qilish, ishni o'z erki bilan tanlab olish, mehnatning adolatli va qulay sharoitlari bo'lishi va ishsizlikdan muhofaza etilish huquqiga egadir"!

Ishga joylashtirish O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining maxsus qism 5-bobining 57, 58, 59, 60, 61, 62, 63, 64, 65, 66, 67, 68, 69, 70, 71-moddalarida mustahkamlangan.

Mehnat kodeksining 57-moddasida ko'rsatilganidek, "Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish har kimning mutloq huquqidir". Ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmaslik javobgarlikka tortishga asos bo'lmaydi.

Har kim ish beruvchiga bevosita murojaat qilish yoki mehnat organlarining bepul vositachiligi orqali ish joyini erkin tanlash huquqiga egadir.

Mehnat qilish huquqlari fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi paytida har qanday shakldagi kamsitish, noqonuniy imtiyozlar berish, fuqaro uchun noqulay bo'lgan shartlarda mehnat qilishga majbur etish qatiyan man etiladi.

Mehnat kodeksining 58-moddasida belgilanganidek, mehnat qilish huquqini amalga oshirish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Bular quyidagilardir:

- Ish bilan ta'minlash turi, shu jumladan turli mehnat rejimidagi ishni tanlash erkinligi;
- Ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etishdan va mehnat shartnomasini g'ayriqonuniy ravishda bekor qilishdan

¹ Qarang: Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. -T.: "Adolat". 1992 y.

himoyalanish, maqbul keladigan ish tanlash va ishga joylashtirishga bepul yordam berish;

- Har kimga kasbga va ishga ega bo'lishda, mehnat qilish va ish bilan taminlanish shart-sharoitlarida, mehnatga haq olishda, xizmat pog'onasidan yuqorilab borishda teng imkoniyatlar yaratish;

- Yangi kasbga (mutaxassislikka) bepul o'qitish, mahalliy mehnat organlarida yoki bu organlarning yo'llanmasi bilan boshqa o'quv yurtlaridasti pendiyato'lab malakaoshirish;

- Boshqa joydag'i ishga qabul qilinganda moddiy xarajatlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq kompensasiya to'lash;

- Haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish uchun muddatli mehnat shartnomalari tuzish imkoniyatini kafolatlaydi. Qonun hujjatlarida boshqa turdag'i kafolatlar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Mehnat qilish huquqini amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 58-moddasida nazarda tutilgan kafolatlar turli shakl va usullarda amalga oshiriladi. Xususan, aholini ishga joylashtirishga ko'maklashish O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimi tegishli organlari tomonidan amalga oshiriladi. (MK 59-moddasasi).

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 60-moddasiga muvofiq: "O'n olti yoshdan boshlab to yoshga doir pensiyaga chiqish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, ishga va ish haqiga ega bo'lman, ish qidiruvchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatga olingan, mehnat qilishga kasb tayyorgarligi yoki qayta tayyorgarlikdan o'tishga tayyor, mehnatga qobiliyatli shaxs ishsiz deb e'tirof etiladi".

Ishga va ish haqiga ega bo'lman har qanday shaxs o'zi yashab turgan erdag'i tuman (shahar) mehnat birjasiga ish so'rab murojaat qilishi mumkin. Bunda birinchi marta ish so'rab murojaat qilayotgan (avval hech qayerda ishlamagan) hamda qandaydir sabablarga ko'ra avvalgi ishidan, ish haqidan mahrum bo'lib qolgan shaxslar toifalari o'zaro farq qiladi.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxs mehnat organi tomonidan o'ziga taklif etilgan va maqbul keladigan ishni rad etishga qoida bo'yicha haqli emas. Ish bilan taminlash davlat tomonidan ro'yxatga olinganidan boshlab 10-kun ichida taklif etilgan o'ziga maqbul ishni ikki marta rad etgan shaxslar ish qidirayotgan deb e'tirof etilmaydi va ishsiz maqomidan mahrum qilinadi. Bunday shaxslar taklif etilgan ishni rad etgan paytlaridan boshlab 30 kalendar kun o'tgachgina ishsiz sifatida qayta ro'yxatga olinishlari mumkin.

IZOH: 16 yoshga to'Imagan bolalari va qaramog'ida boshqa kishilar bo'lgan ishsizlarga nafaqa miqdori 10 % oshiriladi.

Davlat ishsiz shaxslarga quyidagilarni kafolatlaydi.



Ishsizlik nafaqasini to'lash



Mehnat organining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish




Ishsiz shaxsga qarmog'idagilarni hisobga olgan holda moddiy yordam berish



Haq to'lanadigan jamaot ishlariga qatnashish imkoniyati



Mehnat organining taklifiga binoan ishslash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa erga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash



Ish haqiga koeffisiyentlar belgilangan joylarda yashovchi shaxslarga ishsizlik nafaqasi tegishli koeffisiyentlar qo'llangani holda tayinlanadi.

Harbiy xizmatdan, ichki ishlar va milliy xavfsizlik idoralaridan bo'shatilgan shaxslar (muddatli harbiy xizmatchilar) ish bilan taminlash davlat xizmatiga murojaat qilganlarida qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan miqdorda ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

3§. Mehnat shartnomasi

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 72-moddasiga muvofiq, **mehnat shartnomasi** xodim bilan ish beruvchi o'rtaida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim buyicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir.

Hujjatni uning boshqa turdag'i kelishuvlardan farqlarini aniqlagan holda "Mehnat shartnomasi" sifatida to'g'ri tariflash mehnatga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq barcha masalalarni hal etishga to'g'ri yondashuv uchun zamin hozirlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 75-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomalari nomuayyan muddatga, besh yildan ortiq bo'lmagan muayyan muddatga yoki muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

Mehnat shartnomasi (kontrakt) asosiy ish joyida doimiy ishlovchi (nomuayyan muddatga ishga qabul qilinadigan) xodimlar bilan ham, muddatli mehnat shartnomasi asosida (besh yilgacha muddatga, muayyan ishni bajarish vaqtiga) ishga qabul qilinadigan hamda o'rindoshlik bo'yicha ishlovchi xodimlar bilan ham kasanachilar va boshqalar bilan ham yozma shaklda tuziladi.

Mehnat shartnomasi kamida ikki nusxada tuziladi. Ular bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi va saqlash uchun har bir tarafga beriladi.

Shartnomada (kontrakt)da tomonlarning manzillari ko'rsatila-di. Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchining imzolari bilan tasdiqlanib, u tuzilgan sana ko'rsatiladi. Korxona, tashkilot, muassasa ishga qabul qilish huquqi berilgan mansabдор shaxs imzosini gerbli muhr bilan (bunday muhr yo'q bo'lsa, imzo haqiqiy va qonuniyligini tasdiqlovchi boshqa muhr bilan) tasdiqlaydi.

Xodimning talabiga ko'ra, mehnat shartnomasi (kontrakt) u biladigan tilda tuziladi. Bunday mehnat shartnomasi ham davlatning tilida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) bilan bir xil kuchga ega bo'ladi. Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi

ishga qabul qilish to‘g‘risida buyruq chiqarish uchun asos bo‘ladi. Buyruqning mazmuni tuzilgan mehnat shartnomasi mazmuniga aniq mos kelishi kerak.

Mehnat shartnomasining to‘g‘ri rasmiylashtirilishi mehnat nizolari vujudga kelishi xavfini kamaytiradi hamda har ikki tomon ish beruvchi va xodimning huquqlariga rioya etish imkoniyatini yaratadi.

Ishga qabul qilishda taraflarning kelishuviga ko‘ra xodimning topshirilayotgan ishga layoqatliliginin tekshirib ko‘rish maqsadida dastlabki sinov muddati uch oydan oshib ketishi mumkin emas.

Dastlabki sinov natijasi qoniqarsiz bo‘lsa, (ishga qabul qilishda dastlabki sinov muddati belgilangan hollarda), ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini xodimlarning korxonadagi vakillik organlarining roziliginini olmasdan va ishdan bo‘shatish nafaqasini to‘lamasdan turib ham bekor qilishga haqli bo‘ladi.

Dastlabki sinov muddati tugagunga qadar har bir taraf ikkinchi tarafni uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir.

Agar dastlabki sinov muddati tugab xodim ishni davom ettirayotgan bo‘lsa, u sinovdan o‘tgan hisoblanadi.

Xodimning mehnat faoliyatini tasdiqlovchi asosiy hujjat mehnat daftarchasidir.

Amaldağı Mehnat kodeksiga binoan, ish beruvchi korxonada besh kundan ortiq ishlagan barcha xodimlarga mehnat daftarchasini yuritishi shart (o‘rindoshlik asosida ishlovchilar bundan mustasno). Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari (sabablar) mehnat daftarchasiga yozilmaydi.


Mehnat qonunlari mehnat qilishning ixtiyoriligi, kasb turi va ish joyini tanlashning erkinligi tamoyiliga asoslangani holda mehnat munosabatlarini bekor qilish mumkinligini ham nazarda tutadi. Mehnat shartnomasining bekor bo‘lishi muayyan yuridik shartsharoitlar tufayli xodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat huquqiy aloqalariga barham berilishidan iborat.

Mehnat munosabatlarida xodimlar manfaatlarini ustuvor ravishda himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligining bozor munosabatlari sharoitidagi asosiy xususiyatlaridan sanaladi. Ana

shunga muvofiq ravishda xodimlarga istagan paytlarida muddatli yoki muddatsizligidan qati nazar, har qanday mehnat shartnomasini hech bir to'sqinliklarsiz bekor qilish imkoniyatiga ega bo'lganlari holda ish beruvchilar tomonidan mehnat shartnomasi qonunda maxsus nazarda tutilgan asoslar mayjud bo'lganida va belgilab qo'yilgan tartiblarga qatiy roya etilgani holdagini bekor qilinishi mumkin.

Mehnat shartnomasining bekor bo'lishi va uning asoslari

Mehnat shartnomasining bekor bo'lishi deyilganda qonunda ko'zda tutilgan asoslar yuz berganida xodim va beruvchi o'rtaсидagi mehnat munosabatlari belgilangan tartibda barham topishi nazarda tutiladi



Tayanch so‘z va iboralar

O‘zbekiston mehnat huquqi tushunchasi. O‘zbekiston mehnat huquqining vazifalari. Mehnat huquqining sub’ektlari tushunchasi. Mehnat huquqining asosiy tamoyillari. Mehnat huquqining manbalari. Ishga joylashtirish davlat siyosatining maqsadi. Mehnat shartnomasi tushunchasi va mazmuni. Mehnat shartnomasining shakli va muddatlari. Mehnat shartnomasini o‘zgartirish asoslari. Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mehnat huquqi tushunchasi.
2. Mehnat huquqining sub’ektlari va ularning huquqiy holati.
3. Ishga joylashtirishda davlatning asosiy vazifalarini aytинг.
4. Mehnat qonunchiligi borasida nimalarni bilasiz?
5. Mehnat shartnomasining mazmuni va uning vazifalari.
6. Xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi.
7. Qanday hollarda ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi?
8. Xodimni qanday hollarda ish beruvchi ishdan chetlashtirishi mumkin?

2-BOB. Ish vaqtি, dam olish vaqtি, mehnatga haq to'lash hamda mehnat intizomini ta'minlash

1 §. Ish vaqtি


2 §. Dam olish vaqtি

3 §. Mehnatga haq to'lash


4 §. Mehnat intizomi

1§. Ish vaqtি

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 114-moddasiga asosan xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifasini bajarishi lozim bo'lgan vaqt, ish vaqtি hisoblanadi. Ushbu Kodeksning 115-moddasida ish vaqtining normal muddati ifodalangani.



Ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanishi Mehnat kodeksining 116-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, ular toifasiga quyidagilar kiritilgan:



Mehnat kodeksining 242-moddasiga muvofiq o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga o'ttiz olti soatdan; o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan xodimlarga (ta'til davrida ishlayotgan o'n to'rtdan o'n olti yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga) yigirma to'rt soat va o'quv yili mobaynida o'qishdan bo'sh vaqtarda ishlayotgan o'n to'rtdan o'n olti yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga o'n ikki soatdan oshishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 4 aprelida "Ishga qabul qilishning eng kichik yoshi to'g'risida" gi Konvensiyaning ratifikasiya qilinishi (mazkur Konvensiya 1973 yil 26 iyulda Jenevada qabul qilingan) bolalar mehnatini muhofaza qilinishini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Voyaga etmagan xodimlar kundalik ishining aniq muddati ichki mehnat tartibi qoidalari, ish smenasi jadvali yoki bevosita mehnat shartnomasida belgilab qo'yiladi. Lekin har qanday holda ham ish haftasining umumiy muddati qonun hujjatlarida shu toifadagi xodimlar uchun belgilangan ish vaqtinormasidan oshib ketishi mumkin emas.

Noqulay mehnat sharoitlarida ishlayotgan xodimlar mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga o'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitida ishlayotgan xodimlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997yil 11 mart kuni qabul qilingan 133-sonli qarori (8-ilova) bilan ish vaqtining qisqartirilgan muddati nazarda tutilgan.

Mehnat kodeksining 118-moddasida alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar jumlasiga ishi yuqori darajadagi his-hayajon, aqliy zo'riqish, asab tangligi bilan bog'liq xodimlar kirishi belgilab qo'yilgan. Alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi qisqartirilgan ish kuni belgilangan xodimlarning ro'yxati va ish kunining qisqartirilgan muddatining chegarasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 11 mart kuni qabul qilingan 133-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Mehnat kodeksining 119-moddasiga asosan to'liqsiz ish vaqtini - normal yoki qisqartirilgan ish vaqtining bir qismi bo'lib, uning muddati xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan

belgilanadi va ishlangan vaqt yoki ishlab chiqarilgan mahsulotiga mutanosib ravishda haq to'lanadi. To'liqsiz ish vaqt to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasini qamrab oladi. To'liqsiz ish vaqt xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Ish beruvchi ishlab chiqarish zarurati bo'lgan hollarda ham xodimning rozilgisiz to'liqsiz ish vaqtini belgilashi mumkin emas. Xodimning ish rejimi bir vaqtning o'zida ham ish kunining va haftadagi ish kunining qisqarishini nazarda tutishi ham mumkin bo'lib, bu vaqt to'liqsiz ish vaqt deb hisoblanishi mumkin. Bu hollarda korxonada amalda bo'lgan ichki tartib qoidalari yoki grafik asosida belgilangan ish vaqt davomiyligi normalari ham kamayadi.

Ish vaqt rejimi deyilganda xodimlar uchun belgilangan ish vaqt muddatining muayyan kalendar davr (kundalik ish vaqtining, (smenaning) muddati, ishning boshlanish va tugash vaqt, ishdagi tanaffuslar vaqt, sutka davomidagi smenalar soni, ish kunlari hamda ishlanmaydigan kunlarning navbat bilan almashinishi xodimlarning smenadan smenaga o'tish tartibi) doirasidagi taqsimoti tushuniladi.

Smenali ishlanadigan korxonalarining qoidalariда ish smenalar soni, har smenadagi ishning (tushlik, tanaffusning) boshlanishi va tugashi vaqt belgilanadi. Smenali ishlanadigan korxonalar xodimlarining ish vaqtiga taalluqli barcha masalalami ichki mehnat tartibi qoidalariда nazarda tutishning iloji bo'limgan holda xodimlarning ish vaqtı smenalar (ishlar) grafigi (jadvali) bilan ham belgilanishi mumkin. Jadval xodimlarni surunkasiga ikki smena mobaynida ishga jalb etishni nazarda tutmasligi zarur. Ishning tugashi bilan keyingi kuni (smenada ish boshlanishi o'rtasidagi kundalik dam olish vaqtining muddati o'n ikki soatdan kam bo'lishi mumkin emas.

Mehnat kodeksining 121-moddasiga muvofiq bayram (ishlanmaydigan) kunlari arafasida kundalik ish muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi. Qonunning bu talabi qonunchilikka muvofiq faqatgina ishlanmaydigan kunlar deb e'lon qilingan bayram kunlariga nisbatangina qo'llaniladi.

Korxonalarda ish vaqt rejimi ichki mehnat tartibi qoidalariда va boshqa lokal hujjatlar bilan belgilanadi. Korxonalardagi kun tartibi va

smenalar almashinuvi grafigi ish vaqtini rejimini xarakterlovchi asosiy qoidalardandir.

Xodimni surunkasiga ikki smenada ishlatish ta'qiqlanadi. Qonun hujjatlarida, dam olish kunlari, bayram kunlari va tungi vaqtarda ishga jaib etish yuzasidan muayyan cheklashlar belgilab qo'yilgan.

Ish vaqtidan tashqari ish vaqtini deyilganda xodim uchun belgilangan kundalik ish muddatidan tashqari vaqtdagi ish tushuniladi. Ish vaqtidan tashqari ishslash xodimning roziligi bilan qo'llanilishi mumkin. Biroq, quyidagi xodimlar ish vaqtidan tashqari ishslashlariga yo'l qo'yilmaydi:

- 1) Ish smenasi muddati 12 soatdan iborat xodimlar.
- 2) O'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan xodimlar.
- 3) O'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlar.

Nogironlar, homiladorlar, o'n to'rt yoshga to'limgan bolasi bor ayollar (o'n olti yoshga to'limgan nogiron bolasi bor ayollar) faqat o'zlarining roziligi bilan va tibbiy tavsiyalar mayjud bo'lgan holdagina ish vaqtidan tashqari ishslashga (shuningdek, bayram va dam olish kunlari, tungi ishlarga) jaib etilishlari mumkin.

2 §. Dam olish vaqtini

Mehnat kodeksining 126-moddasiga ko'ra dam olish vaqtini deyilganda xodim mehnat vazifalarini bajarishdan holi bo'lgan va bundan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqt tushuniladi.

Dam olish vaqtini xodim mehnat vazifalarini bajarishdan ozod etib qo'yiladigan boshqa vaqtlardan farqlovchi belgi uning ishdan holi bo'lgan vaqt dan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkinligidir. Xuddi shu sababli xodim ishdan ozod etib qo'yilgan va mehnat vazifalarini bajarish, bilan band bo'limgan (masalan, davlat va jamoat vazifalarini bajarish ta'lif olish, malaka oshirish va shu kabilar bilan bog'liq holda) boshqa davrlar dam olish vaqtiga kiritilmaydi, chunki xodim bunday davrlardagi vaqtini o'zi hohlaganidek tasarruf etish va undan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish imkoniyatiga ega emas.


Ijtimoiy ta'tillar ham dam olish vaqtiga kiritilmaydi, negaki, ularning hammasi tamomila belgilab qo'yilgan maqsadga ega bo'ladi. Xodimga

bunday ta'tillar dam olish hamda ish qobiliyatini tiklash uchun emas, balki, masalan bolani parvarishlash uchun, o'qish uchun, darslik yozish bilan bog'liq ish uchun, nomzodlik yoki doktorlik dissertasiyasini yoqlash va shu kabi maqsadlar uchun beriladi.

Mehnat kodeksining 127-moddasiga ko'ra xodimga ish kuni davomida dam olish va ovqatlanish uchun tanaffus berilishi kerak, bu tanaffus ish vaqtiga kirmaydi.


Kundalik dam olish vaqtি (ish kunlari orasidagi dam olish vaqtি) ning muddati o'n ikki soatdan kam bo'lishi mukin emas.

Dam olish kuni (ya'ni ish haftalari, ish smenalari o'rta sidagi dam olish vaqtি) besh kunlik ish haftasida ikki kun, olti kunlik ish haftasida esa bir kun miqdorida beriladi.



Xodimlarning dam olish kunlari ishga jalb etishga qoida tariqasida yo'l qo'yilmaydi. Alovida hollarda qonunlarda belgilangan cheklashlar hisobga olingan holda dam olish kunlari ishga jalb etishga yo'l qo'yilishi mumkin.

Bayram kunlari umumiy dam olish kunlari hisoblanadi va bu kuni alovida hollardan tashqari ishga jalb etish mumkin emas.



Mehnat ta'tili barcha xodimlarga, shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha ishlayotgan xodimlarga dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish haqi saqlangan holda har yili beriladi.

Yillik mehnat ta'tilining eng kam muddati o'n besh ish kuni, ko'pi bilan esa qirq sakkiz ish kunidan oshib ketmasligi lozim.

Yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun xodim kamida olti oy ishlaganidan keyin berilishi mumkin. Ayrim toifadagi xodimlar (homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqayotgan ayollar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, o'n sakkiz yoshga to'limgan xodimlar va boshqalarga) olti oy o'tmasdan oldin mehnat ta'tili berilishi mumkin. Keyingi ish yillari uchun ta'til ish beruvchining xodimlar vakillik organi bilan kelishib tuzilgan ta'tillarni berish grafigiga muvofiq ravishda beriladi.

Mehnat ta'tili har yili berilishi lozim. Agar ishlab chiqarish tusidagi sabablarga ko'ra xodimga joriy yilda ta'tilni to'liq berish imkonи bo'lmasa, u holda xodimning roziligi bilan ta'tilning o'n ikki ish kunidan ortiq qismi keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin. Shu yil undan albatta foydalanishi lozim.

3 §. Mehnatga haq to'lash

Mehnatga haq to'lash butun bir tizimdan iborat bo'lib, mazkur tizim xodimning belgilangan ko'rsatkichga muvofiq o'lchangan holdagi sarflagan mehnati va unga muvofiq keladigan ish haqi hajmi o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rnatishni anglatadi. Ya'ni ish haqi tizimi mehnatning miqdori va mehnat uchun taqdirlash hajmi o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rnatish usulidir.

Mehnat qonunchiligidagi "mehnatga haq to'lash" va "ish haqi" degan atamalar ishlatalidi. Huquqiy nuqtai nazardan qaraganda "mehnatga haq to'lash" xodimga oldindan qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlarda haq olishni kafolatlovchi tizim hisoblanadi. "Ish haqi" esa xodim amalda bajargan ishining miqdori va sifatiga qarab beriladigan to'lov sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat faoliyati bilan shug'ul-lanayotgan shaxslarning asosiy kafolatlaridan biri bo'lgan mehnatga davlat tomonidan belgilangan eng kam miqdordan past haq to'lamaslik Mehnat kodeksining 155-moddasi bilan belgilab qo'yilgan.

Mehnat haqining miqdori ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanganadi. Bunda taraflar mehnat haqining qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi, uning eng ko'p miqdori biron bir tarzda cheklanmasligi to'g'risidagi qoidalalar hamda jamoa shartnomalari va boshqa lokal hujjatlarda belgilab qo'yilgan mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar to'g'risidagi qoidalanga riosa qiladilar.

Mehnat kodeksining 157-moddasida ish vaqtidan tashqari ishlar hamda dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar uchun haq to'lash mustahkamlab qo'yilgan.

Ish vaqtidan tashqari ish deyilganda, mehnat qonunchiligi va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan hamda xodim ishlashi lozim bo'lgan ish vaqtining davomiyligidan tashqari vaqtidagi ish tushuniladi. Ish vaqtidan tashqari ishlashga faqat xodimning roziligi bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi (ish vaqtidan tashqari ishlarning muddati va ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb etish talablari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 124,125-moddalarida berilgan).

Ish vaqtidan tashqari ishlar dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to'lanadi.

Xodimning iltimosiga ko'ra ish vaqtidan tashqari ish uchun belgilangan, ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish soatlariiga teng keladigan miqdorda dam olish berilishi ham mumkin (bunda ish vaqtidan tashqari ishlarning kompensasiyaviy xarakteri namoyon bo'лади). Buning ma'nosi shundan iboratki, ish beruvchi tomonidan xodimning ish vaqtidan tashqari ishlagan soatlari miqdoriga mutanosib ravishda dam olish kuni berilishi mumkin. Ish vaqtidan tashqari bajarilgan ish uchun boshqa dam olish kuni berilgan taqdirda, bunday ishlar uchun kamida bir hissa miqdorda mehnat haqi to'lanadi.


Tungi ish vaqtি

Soat 22.00 dan 06.00gacha

Tungi vaqtidagi ishning har bir soati uchun kamida bir yarim barobar miqdorda haq to'lanadi .

Mehnat kodeksining 158-moddasiga binoan tungi vaqtdagi ish ham normal sharoitlardan chetga chiqib bajarilgan ishlar qatoriga kiradi hamda mehnat qonunchilikida bunday ishlar uchun oshirilgan miqdorlarda haq to'lash nazarda tutiladi.


Mehnat Kodeksining 159-moddasi. Yaroqsiz mashsulot tayyorlanganda va bekor turib qolning vaqt uchun haq to'lash



Bunday baholar jamoa shartnomasida belgilab qo'yiladi, agar u tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi. Xodimning aybi bilan tayyorlangan to'liq yaroqsiz mahsulot va bekor turib qolning vaqt uchun haq to'lanmaydi.

Mehnat kodeksining 160-moddasi turli malakadagi ishni bajarganlik, bir necha kasbda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish darajasining kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmining ortgan-

Bir necha kasbda ishlash



ligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'limgan xodimlarning vazifalarini bajarganlik, o'rindoshlik asosida ish bajarganlik uchun haq to'lashni tartibga solishga qaratilgan qoidalar belgilangan.

Korxonalar mustaqil ravishda bir necha kasbda ishlaganlik yoki xizmat doirasi kengayganligi uchun ustamalar miqdorini xodimlar bilan kelishuvga binoan belgilashi lozim. Agar korxonada jamoa shartnomasi tuzilgan bo'lsa, ularda bir necha kasbda ishlaganlik yoki xizmat doirasining kengayganligi uchun xodimga belgilangan miqdorda ustama to'lanishi nazarda tutilishi lozim. Korxonada bunday ichki me'yoriy hujjatlar bo'limgan taqdirda, bir necha kasbda ishlaganlik uchun ustamalar korxona rahbarining farmoyishi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Mehnat kodeksining 161-moddasida mehnatga haq to'lash muddatlari ifodalangan bo'lib, ushbu moddaga muvofiq mehnatga haq to'lash muddatlari jamoa shartnomasi yoki boshqa lokal normativ hujjatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. Haq to'lanadigan kun dam olish yoki bayram kuniga to'g'ri kelib qolsa, mehnat haqi shu kun arafasida to'lanadi. Xodimlarning ayrim toifalari uchun alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ish haqi to'lashning boshqa muddatlari belgilab qo'yilishi mumkin. Jamoa shartnomasida ish beruvchining aybi bilan xodimga haq to'lash belgilangan muddatlarga nisbatan kechikkanligi uchun javobgarlik nazarda tutilishi mumkin.

Ish beruvchi bilan kasaba uyushmasi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq ish haqini to'lashning aniq muddatlari belgilanadi va jamoa shartnomasida mustahkamlab qo'yiladi. Korxona, tashkilot va muassasaning lokal normativ hujjatlarda ish haqining bir qismi avans (bo'nak)ni har oyning 15-20 kunlari va ish haqining ikkinchi qismini keyingi oyning 1-5 kunlari berish belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 163-moddasida ish haqi xodimlarga ular ishlayotgan joyda to'lanadi deb belgilab qo'yilgan. Xodimning yozma arizasiga binoan buxgalteriya ish haqini bankdagi uning hisob raqamiga o'tkazishga majbur. Pulni ko'chirish harakatlari ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining

164-moddasiga asosan quyidagi hollarda xodimning roziligidan qat'i nazar mehnat haqidan majburiy ushlab qolinadi.

1.O'zbekiston Respublikasida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirish uchun;

2.Sud qarori va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;

3.Ish haqi hisobiga berilgan avansni ushlab qolish uchun xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoki boshqa joydagi ishga o'tganligi munosabati bilan berilgan bo'lib sarf qilinmay qolgan va o'z vaqtida qaytarilmagan avansni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagisi xatolar natijasida ortiqcha to'langan summani qaytarib olish uchun. Bunday hollarda ish beruvchi avansni qaytarish yoki qarzni to'lash uchun belgilangan muddat tamom bo'lgan kundan yoxud haq to'lash noto'g'ri hisoblab chiqarilgan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay avans yoki qarzni ushlab qolish haqida farmoyish berishga haqli. Agar bu muddat o'tib ketgan bo'lsa yoki xodim xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoxud boshqa joydagi ishga o'tganligi munosabati bilan berilgan avansning ushlab qolinishi asossiz yoki miqdori noto'g'ri deb hisoblansa, u holda qarz sud tartibida undiriladi.

4.Xodim ta'til olib bo'lgan ish yili tugamasdan turib mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ta'tilda ishlanmagan davrga tegishli kunlar uchun haq mehnat shartnomasi mehnat kodeksining 89-moddasining to'rtinchi qismi, 100-moddasi ikkinchi qismining 1 va 2- bandlarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra; (agar xodim, o'qishga kirganligi yoki pensiyaga chiqqanligi munosabati bilan shartnoma bekor qilingan bo'lsa ushlab qolinmaydi);

5.Xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararni qoplash uchun, agar etkazilgan zararning miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmasa;

6.Mehnat kodeksining 181-moddasi birinchi kismi 2-bandida nazarda tutilgan jarimani undirish uchun. Ish haqini har gal to'lash vaqtida ushlab qolinadigan haqning umumiy miqdori xodimga tegishli bo'lgan mehnat haqining 50% dan ortib ketmasligi lozim.

4 §. Mehnat intizomi

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining XI bobini 174-moddasidan 184-moddalarigacha mehnat intizomi mustahkamlab qo'yilgan.

Korxonalarda mehnat intizomiga oid barcha asosiy talablar ichki mehnat tartibi qoidalarida ko'zda tutiladi. Hozirgi paytda mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha korxona, tashkilotlar uchun namunaviy ichki mehnat tartib qoidalari ishlab chiqilgan bo'lib, har bir korxona uning asosida o'z ichki mehnat tartibi qoidalarini ishlab chiqishlari zarur bo'ladi. Korxona ichki mehnat tartib qoidalariغا muvofiq korxona ichki kun tartibi ishlab chiqiladi va unda ishning boshlanishi, tanaffuslar, ishning tamom bo'lishi, dam olish kunlari belgilanadi.

Mehnat kodeksining 176-moddasida xodimning quyidagi burchlari belgilab qo'yilgan.

Xodim o'z mehnat vazifalarini halol vijdongan bajarishi, mehnat intizomiga rioya qilishi, ish beruvchining qonuniy farmoyishlarini o'z vaqtida va aniq bajarishi, texnologiya intizomiga, mehnat muhofazasi texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablariga rioya qilishi, ish beruvchining mol-mulkini avaylab asrashi shart. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 8 apreldagi Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasini ratifikasiya qilinishi yosh hodimlarning mehnatini muhofaza qilishni tartibga soldi.

Shuningdek, xodim o'z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda uni hayoti, sog'lig'iga etkazilgan zaraming o'mini qoplash bo'yicha ish beruvchining o'z fuqarolik javobgarligi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 16 apreldagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonunda belgilangan shartlar asosida va tartibda ta'minlanadi. Mehnat kodeksining 181-moddasida intizomiy nojo'ya harakat sodir etgan xodimga nisbatan quyidagi jazo choralar qo'llanishi mumkin.

1. Hayfsan;
2. O'rtacha oylik ish haqining 30 % dan ortiq bo'limgan miqdorda jarima, ichki mehnat tartibi qoidalarida 50% dan ortiq bo'limgan miqdorda jarima solish mumkin;

3. Mehnat shartnomasini bekor qilish (100-moddaning 2-qismi 3 va 4-bandlari).

Intizomiy jazoni qo'llash tartibi Mehnat kodeksining 182-moddasida ko'rsatilgan. Unga ko'ra: intizomiy jazolar ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi.

Intizomiy jazo qo'llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati talab qilinishi lozim. Xodimning tushuntirish xati berishdan bosh tortishi uning ilgari sodir qilgan nojo'ya xatti-harakati uchun jazo qo'llanilishiga to'siq bo'la olmaydi.

Intizomiy jazoni qo'llashda sodir etilgan nojo'ya xatti-harakatning qay darajada og'ir ekanligi, shu xatti-harakat sodir etilgan vaziyat xodimning oldingi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi. Har bir nojo'ya xatti-harakati uchun faqat bitta intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin.

Intizomiy jazo bevosita nojo'ya xatti-harakat aniqlangandan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlangandan boshlab, xodimning kasal yoki ta'tilda bo'lган vaqtini hisobga olmasdan uzog'i bilan bir oy ichida qo'llaniladi.

Xodimga qo'llanilgan intizomiy jazo bir yil davomida amal qiladi va shu muddat ichida xodim boshqa intizomiy nojo'ya harakat sodir etmasa u jazoga tortilmagan hisoblanadi.

Intizomiy jazo ish beruvchi tashabbusiga ko'ra jazoga tortil-gan xodim iltimosiga ko'ra mehnat jamoasi yosh xodimning bevosita rahbari iltimosiga ko'ra bir yil o'tmasdan oldin ham olib tashlanishi mumkin. Bu haqida korxona ish beruvchisining buyrug'i chiqarilishi lozim.

O'z navbatida ish beruvchi ham korxonada mehnat intizomini ta'minlash mehnatni samarali tashkil etish uchun muayyan majburiyatlarni bajarishi mumkin. Mehnat kodeksining 177-moddasida ish beruvchining quyidagi majburiyatlari qayd etilgan. "Ish beruvchi xodimlar mehnatini tashkil qilishi, qonun va boshqa normativ hujatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini yaratib berishi, mehnat va ishlab chiqarish intizomini ta'minlashi, mehnat muhofazasi qoidalariga riosa etishi, xodimning ehtiyoj va talablariga e'tibor bilan qarashi, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilab borishi, ushbu kodeksga muvofiq jamoa shartnomalarini tuzishi shart. Ish beruvchi xodim-

dan uning mehnat vazifalari doirasiga kirmaydigan ishlarni bajarishni, qonunga xi洛f yoki xodim va boshqa shaxslarning hayoti va sog'ligi uchun xavf tug'diruvchi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kansituvchi harakatlar qilishni talab etishga haqli emas".

Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlari (orden va medallar, faxriy unvonlar va boshqalar) ga taqdim etilishlari mumkin.

Ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar ustama haq tizimida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirish sanalmaydi.

Intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida xodimga nisbatan rag'batlantirish choralar qo'llanilishi mumkin emasligi belgilangan.

Intizomiy nojo'ya harakat va intizomiy javobgarlik Mehnat kodeksida, boshqa qonun hujjatlarida belgilangan.

Tayanch so'z va iboralar

Me'yoriy ish vaqtin, qisqartirilgan ish vaqtin, to'liqsiz ish vaqtin. Ish vaqtidan tashqari bajariladigan ishlar va uni huquqiy jihatdan tartibga solish. Dam olish vaqtining turlari. Mehnatga haq to'lash tartibi. Mehnatning kafolatlanishi. Mehnat haqining eng kam miqdori. Mehnatga haq to'lash muddatlari. To'lov kompensatsiyasi. Korxonalarda mehnat intizomini tartibga solishda intizom to'g'risidagi ustav va nizomlarning ahamiyati.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ish vaqtin tartibi va uni hisobga olishni tushuntirib bering.
2. Dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishga jalb etish asoslarini aytинг.
3. Ta'tillarni berish tartibini tushuntirib bering.
4. Ta'tildan chaqirib olish va ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tillarni izohlang.
5. Intizomiy jazo turlari, qo'llanish tartibi va amal qilish muddatlarini aytинг.

3-BOB. Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi. Mehnat nizolari

- 1 §. Moddiy javobgarlik tushunchasi**
- 2 §. Mehnat nizolari va ularni ko'rish tartibi**
- 3 §. Mehnat nizosini hal qilib berishni so'rab sudga murojaat etish muddati**

1 §. Moddiy javobgarlik tushunchasi

Moddiy javobgarlik deyilganda xodimning aybi, huquqqa xilof xatti-harakat sodir etishi natijasida korxona, muassasa, tashkilotga etkazilgan zararmi to'la yoki qisman qoplashdan iborat vazifasi tushuniladi.

Korxonaga zarar etkazganlik uchun ishchi va xizmatchilarini moddiy javobgarlikka tortish yuridik javobgarlikning alohida turi hisoblanadi.

Moddiy javobgarlikning mazkur turi moddiy javobgarlikning boshqa turlaridan shu jihat bilan farq qiladiki, u

- birinchidan, korxona mol-mulkining to'la saqlanishini ta'minlashga va xo'jasizlik hollarining oldini olishga;
- ikkinchidan, mehnat intizomini mustahkamlashga;
- uchinchidan, ishchi va xizmatchilarining ish haqini haddan ziyyod ko'p va g'ayriqonuniy ravishda ushlab qolishdan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Moddiy javobgarlikning ikki turi mavjud:

1.Cheklangan moddiy javobgarlik. Bunda xodimlar o'z mehnat vazifalarini bajarish chog'ida korxona, muassasa, tashkilotga mulkiy zarar etkazganliklari uchun etkazilgan haqiqiy zarar miqdorida, ammo oylik ish haqlaridan oshmaydigan miqdorda moddiy javobgar bo'ladilar (qonunlarda moddiy javobgarlikning boshqa miqdori ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno).

Ma'muriy xodimlar, agar ortiqcha pul to'langanligi, moddiy yoki pul qimmatliklari hisobini yuritish va saqlash noto'g'ri uyuشتirilganligi, bekor turib qolish hollarida, moddiy yoki pul qiymatliklari o'g'irlanishi, yo'q qilib yuborilishi yoki buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur choralar ko'rilmagan bo'lsa, ular

etkazilgan zarar miqdorida, lekin o‘z o‘rtacha oylik ish haqidan oshmaydigan miqdorda moddiy javobgar bo‘ladilar.

2. To‘la moddiy javobgarlik xodimning o‘zi etkazgan zararni to‘la hajmda qoplashdan iborat majburiyatidir. Bunda ish haqi miqdori hisobga olinmaydi. Quyidagi hollarda to‘la miqdorda moddiy javobgarlik nazarda tutiladi:

- xodimning xatti-harakati bilan etkazilgan zararda jinoyat alomatlari bo‘lgan taqdirda. Bunday alomatlar sud orqali aniqlanadi;
- mehnat vazifalarini bajarayotganda etkazilgan zarar uchun qonunlarga muvofiq xodimga to‘la moddiy javobgarlik yuklangan taqdirda;
- mehnat vazifalarini bajarmayotgan paytda zarar etkazilgan taqdirda;
- xodim tegishli mulkni va boshqa qimmatliklarni bir gallik ishonch qog‘ozi yoki bir gallik hujjalarga asosan o‘z hisobiga olgan taqdirda;
- foydalanish uchun berilgan materiallar, buyumlar, asboblar, o‘lchov priborlari, maxsus kiyim-bosh buyumlariga kamomad bo‘lishi, qasddan yo‘q qilinishi yoki qasddan buzilishi sababli zarar keltirilgan taqdirda;
- zarar mast holda bo‘lgan xodim tomonidan etkazilgan taqdirda;
- xodim to‘la moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi to‘g‘risida u bilan tuzilgan yozma shartnoma asosida belgilangan taqdirda (18 yoshga to‘limgan shaxslar bilan bunday shartnoma tuzish ta’qilanadi).

Yozma shartnoma bo‘yicha to‘la moddiy javobgarlik shaxsiy va jamoaviy moddiy javobgarlikka bo‘linadi.

O‘ziga topshirilgan qimmatliklarni saqlash, qayta ishslash, berish, tashish bilan bevosita bog‘liq lavozimni egallagan yoki ishlarni bajarayotgan xodim bilan to‘la javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuzilishi mumkin.

Moddiy zarar etkazilgan xodim etkazilgan zararni o‘z ixtiyori bilan to‘la yoki qisman qoplashi mumkin. O‘rtacha oylik ish haqidan oshmaydigan miqdordagi zarar xodimning yozma ravishdagi roziligi bo‘lgan taqdirda ma’muriyat chiqargan farmoyish asosida ish haqidan undirib olinadi.

Ma’muriyatning farmoyishi xodim zarar etkazganligi aniqlangan kundan boshlab ikki haftadan kechikmay chiqarilishi va bu haqida xodimga ma’lum qilingan kundan boshlab bir haftadan keyin ijro

etilishi lozim. Agarda xodim ish haqidan ushlab qolishga yoki uning miqdoridan norozi bo'lsa, mehnat nizosi uning arizasiga asosan mehnat nizolarini ko'rvuchi komissiyada ko'rib chiqiladi. Boshqa hollarda zarami undirib olish sud orqali amalga oshiriladi.

Etkazilgan zarar xodimning intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilganligidan qat'i nazar undiriladi.

Undirib olinadigan zararning miqdorini belgilashda qo'yidagilar hisobga olinadi: xodimning moddiy ahvoli, moddiy qimmatliklarning yaxshi saqlanishini ta'minlashda unga ma'muriyat tomonidan yordam berilgan berilmaganligi, buxgalteriya hisob-kitobi darajasi, moddiy qimmatliklarning saqlanishi uchun normal shart-sharoit bor-yo'qligi.

Sud aybdorlik darajasini, aniq holatlarni va xodimning moddiy ahvolini nazarda tutib, undirib olinadigan zararning miqdorini kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, qonun xujjalarda xodimga o'z mehnat vazifalarini bajarish chog'ida etkazilgan zararni o'mini qoplash va undirish masalalari ham belgilangan bo'lib, ushbu munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 16 aprelda qabul qilingan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonun¹ bilan tartibga solinadi.

2 §. Mehnat nizolari va ularni ko'rish tartibi

Mehnat nizolari mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy aktlar, jamoa shartnomasi va mehnat to'g'risidagi boshqa bitimlar, shuningdek, mehnat shartnomasi shartlarining qo'llanilishi yuzasidan xodimlar bilan ma'muriyat o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va ixtiloslardan iborat.

Mehnat nizolari o'z mazmuniga ko'ra jamoaga doir va shaxsga doir mehnat nizolariga bo'linadi. Shaxsga doir nizolar muayyan xodim bilan ma'muriyat o'rtasidagi nizolar bo'lib, ular, odatda, xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlarni qo'llash borasida yuzaga keladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 yil, 16-son, 197- modda.

Jamoaga doir nizolar barcha xodimlarga taalluqli bo‘lgan yangi mehnat sharoitlarini joriy qilish yoki mavjud mehnat sharoitlarini o‘zgartirish, shuningdek, ma’muriyatning butun jamoaga nisbatan olgan o‘z majburiyatlarini bajarishi borasida yuzaga keladigan nizolardir.

Mehnat nizolari o‘z xususiyatiga ko‘ra da’vo xarakteriga ega va ega bo‘lmagan nizolarga bo‘linadi. Da’vo xarakteridagi nizolar mehnat to‘g‘risidagi me’yoriy aktlarni qo‘llash bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Bunday nizo davomida xodim da’vo ariza berish yo‘li bilan o‘z huquqlarining tiklanishiga harakat qiladi. Ular hamma vaqt shaxsiy xarakterga ega bo‘ladi.

Da’vo xarakteriga ega bo‘lmagan nizolarga amaldagi mehnat shartlarini o‘zgartirish yoxud yangi mehnat shartlarini joriy etish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar kiradi. Ular shaxsiy xarakterga, shuningdek, jamoa xarakteriga ham ega bo‘lishi mumkin.

Shaxsga doir nizolar mehnat nizolari komissiyasi yoki tuman, shahar sudlari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Mehnat nizolarini ko‘rib chiqish. Mehnat nizolari komissiyalari kamida 15 kishi ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot mehnat jamoasining umumiy yig‘ilishida saylanadi.

Saylash tartibi, komissiya a‘zolarining soni, tarkibi va uning vakolat muddatini ham umumiy yig‘ilish belgilaydi. Komissiya o‘z tarkibi orasidan komissiya raisi, rais o‘rnbosarlarini va kotibini saylaydi. Jamoa umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan bo‘linmalarda ham mehnat nizolari komissiyalari tashkil etilishi mumkin. Ular bo‘linma jamoasi tomonidan saylanadi.

Mehnat nizolari komissiyasi mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi boshlang‘ich organ hisoblanadi, qonun hujjatlarida ko‘rib chiqishning o‘zgacha tartibi qo‘llanilishi belgilab qo‘yilgan mehnat nizolari bundan mustasno.

Basharti xodimning mustaqil ravishda yoki uning manfaatlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmasi tashkiloti ishtirokida ma’muriyat bilan olib borgan muzokaralarida mavjud kelishmovchilik hal etilmasa, mehnat nizosi mehnat nizolari komissiyasida ko‘rib chiqilishi lozim. Xodim o‘z huquqlari buzilganligini bilgan yoki

bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran uch oy muddat ichida mehnat nizolari komissiyasiga murojaat qilishi mumkin. Belgilangan muddat uzrli sabablarga ko'ra o'tkazilib yuborilgan bo'lsa, komissiya bu muddatni qayta tiklashi mumkin. Mehnat nizolari komissiyasi mehnat nizosini ariza berilgan kundan e'tiboran 10 kun muddat ichida ko'rib chiqishi shart. Xodim yozma ariza bilan iltimos qilgandagina nizo uning ishtirokisiz ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi. Basharti xodim komissiya majlisida hozir bo'lmasa, uning arizasini ko'rib chiqish boshqa kunga ko'chiriladi. Agarda xodim komissiya majlisiga ikkinchi marta ham uzrli sabablarsiz kelmasa, komissiya mazkur arizani ko'rib chiqishni kun tartibidan olib tashlash xususida qaror qabul qilishi mumkin, ammo bu xodimni takroran ariza bilan murojaat etish huquqidан mahrum qilmaydi. Xodim mehnat nizosining qarab chiqilishida ishtirok etish uchun o'z hisobidan advokat taklif qilish huquqiga ega.

Mehnat nizolari komissiyasi o'z majlisida guvohlarni chaqirtirish, mutaxassislarini, korxonada faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish vakillarini taklif qilish huquqiga ega.

Mehnat nizolari komissiyasi majlisida ishtirok etayotgan komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi. Komissiyaning qarori ustidan xodim yoki ma'muriyat 10 kun muddat ichida sudga shikoyat qilishi mumkin. Bu muddatning o'tkazib yuborilganligi keyinchalik ariza qabul qilishni rad etish uchun asos bo'la olmaydi. Sud quyidagi hollarda mehnat nizolarini ko'rib chiqadi:

- basharti mehnat nizolari komissiyasi 10 kunlik muddat ichida mehnat nizosini ko'rib chiqmasa va manfaatdor xodim mehnat nizosini ko'rib chiqish uchun tuman sudiga o'tkazishga qaror bergen bo'lsa;
- xodimning, ma'muriyatning yoki xodim manfaatlarini himoya qiluvchi tegishli kasaba uyushmasining arizasiga binoan;
- mehnat nizolari komissiyasining qaroriga rozi bo'lмаган taqdirda ma'muriyatning hamda prokuorning arizalariga binoan ko'rib chiqadi.

Sudlarda bevosita quyidagi mehnat nizolari ko'rib chiqiladi:

- a) mehnat nizolari komissiyasi saylanmaydigan yoki biror

sababga ko'ra bunday komissiya tuzilmagan korxonalarda kelib chiqqan mehnat nizolari;

b) mehnat shartnomasi (kontrakt) ni bekor qilish asoslaridan qat'i nazar ishga tiklash, ishdan bo'shatish vaqt hamda sababining ta'risini o'zgartirish, majburiy progul vaqt va kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to'lash haqidagi xodimning arizasi yoki prokurorning arizasi, murojaatnomasiga binoan;

d) ma'muriyatning korxona, muassasa, tashkilotga etkazilgan moddiy zararni xodimdan undirib olish haqidagi murojaatnomasiga binoan;

e) mehnat vazifalarini bajarish chog'ida xodimning salomatligiga etkazilgan zarar o'mini korxona qoplashi haqidagi xodimning arizasi yoxud prokurorning murojaatnomasiga binoan.

Shuningdek, boshqa korxonalardan o'tkazish tartibida ishga taklif etilgan shaxslarni ishga qabul qilishni rad etish hollarda;

- bron hisobidan ishga yuborilgan 18 yoshga to'limgan shaxslarni;
- nogironlarni;
- xomilador ayollar va uch yoshga to'limgan bolasi bor ayollarni;
- 14 yoshga to'limgan bolasi bor (16 yoshga to'limgan nogiron bolasi bor) yolg'iz onalarni;

Qonunlarga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakt) tuzishi shart bo'lgan boshqa shaxslarni ishga qabul qilishni rad etganlik to'g'risidagi nizolar ham bevosita sudda ko'rib chiqiladi.

3 §. Mehnat nizosini hal qilib berishni so'rab sudga murojaat etish muddati

Mehnat nizosini hal etish to'g'risidagi ariza sudga xodim o'z huquqlari buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan e'tiboran uch oy muddat ichida, ishdan bo'shatilganlik to'g'risidagi buyruqning ko'chirma nusxasi olingan yoki mehnat daftarchasi olingan kundan e'tiboran bir oylik muddat ichida topshiriladi.

Ma'muriyatning xodim tomonidan etkazilgan moddiy zararni undan undirib olish masalasi bo'yicha sudga murojaat qilishi uchun xodim zarar etkazilganligi ma'lum bo'lgan kundan e'tiboran bir yil muddat belgilangan.

Mehnat nizolari komissiyasi yoki sudning qarori bilan xodim g‘ayriqonuniy asosda ishdan bo‘shatilganligi yoxud boshqa ishga o‘tkazilganligi taqdirda darhol ishga qayta tiklanishi lozim. Mehnat nizolari komissiyasi yoki sud ishga tiklash to‘g‘risida qaror qabul qilish bilan bir vaqtida xodimga majburiy progul vaqt uchun o‘rtacha ish haqini to‘lash yoki haq to‘lanadigan ishni bajargan vaqt uchun oyligidagi farqni to‘lash haqida qaror qabul qiladi, biroq bu muddat bir yildan oshmasligi kerak. Shuningdek, xodimni g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatish yoki boshqa ishga o‘tkazishda aybdor bo‘lgan mansabdar shaxsga majburan qilingan progul vaqt uchun yoxud kamroq haq to‘lanadigan ishni bajargan vaqt uchun xodimga ish haqi to‘lanishi munosabati bilan korxonaga etkazilgan zarar uchun mansabdar shaxsning uch oylik maoshidan oshmaydigan miqdorda moddiy javobgarlik yuklatiladi.

Ishdan bo‘shatish sababining ta‘rifi noto‘g‘ri yoki amaldagi qonunlarga muvofiq emas, deya topilgan taqdirda mehnat nizolari komissiyasi yoki sud uni o‘zgartirish va ishdan bo‘shatish sababini amaldagi qonunlarga to‘la muvofiq ta‘riflashi shart. Agarda ishdan bo‘shatish ta‘rifining noto‘g‘riligi xodimning ishga joylashishiga to‘sinqinlik qilgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida xodimga majburiy progul vaqt uchun o‘rtacha ish haqi to‘lash to‘g‘risida qaror chiqariladi, biroq bu muddat ham bir yildan oshmasligi kerak. Bunday hollarda mehnat daftarchasiga kiritilgan yozuvlar haqiqiy emas, deb hisoblanadi. Xodim mehnat daftarchasining haqiqiy emas deb topilgan yozuvi qayd etilmagan dublikatini berishni talab qilishga haqlidir.

Fayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatilgan yoki boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni avvalgi ishga tiklash to‘g‘risidagi, ishdan bo‘shatish sababining ta‘rifni o‘zgartirish haqidagi, shuningdek, xodimga ish haqi berish to‘g‘risidagi qaror darhol ijro etilishi lozim.

Mehnat nizolari komissiyasi yoki sudning g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatilgan yoki boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni avvalgi ishga tiklash haqidagi qarorining ijrosi ma‘muriyat tomonidan kechiktirilgan taqdirda mehnat nizolari komissiyasi, sud unga barcha kechiktirilgan davr uchun o‘rtacha ish haqi yoki ish haqi o‘rtasidagi farqni to‘lash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Ayrim toifalardagi xodimlarni ishdan bo'shatish masalalari bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, viloyatlar, oliy davlat hokimiyati organlari saylab qo'yiladigan, tasdiqlaydigan yoki tayinlaydigan rahbar xodimlarni, sudyalar, prokurorlar, ularning o'rinnbosarlari va yordamchilarini ishdan bo'shatish, boshqa ishga o'tkazish, majburiy progul qilingan vaqt yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun ularga haq to'lash, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash masalalariga doir nizolar yuqori turgan organlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xodim avvalgi ishiga tiklangan hollarda unga majburiy progul qilingan vaqt yoki kam haq to'lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to'lanadi, ammo bu muddat bir yildan oshmasligi lozim.

Tayanch so'z va iboralar

Moddiy javobarlik tushunchasi. Xodimlarning ish beruvchiga etkazilgan zarar uchun javobgarligi. Xodimning ish beruvchi oldidagi moddiy javobgarligi. Jamoaning moddiy javobgarligi. Xodimga etkazilgan zarar uchun ish beruvchining moddiy javobgarligi. Moddiy javobgarlik yuz berishi shartlari va asoslari. Mehnat nizolari tushunchasi. Mehnat nizolarini ko'rish. Mehnat nizolari komissiyalarini. Mehnat nizolarining yuqori idoralarda ko'riliishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mehnat shartnormasi taraflari moddiy javobgarligi tushunchasi va prinsiplarini izohlang.
2. Xodimlarning korxona, muassasa, tashkilotga etkazilgan zarar uchun moddiy javobgarligi va uning fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan farqi nimalardan iborat.
3. Mehnat nizolari komissiyada qanday tartibda ko'rildi?
4. Mehnat nizolarini ko'rish tartibini tushuntiring.
5. Mehnat nizosini hal qilib berishni so'rab sudga murojaat etish muddatini aytинг.
6. Mehnat nizolari bo'yicha qaror chiqarish tartibini aytинг.

Test savollari

1) Mehnat huquqi predmeti bo‘lgan munosabatlarni aniqlang.

- A) dehqon fermer xo‘jaliklari a’zolarining mehnat munosabatlari.
- B) fuqarolik shartnomalarida kelib chiquvchi mehnat munosabatlari.
- C) ish beruvchilarga yollanib ishslashga asoslanuvchi mehnat huquqiy munosabatlar.
- D) jinoyat sodir etganlik uchun majburiy mehnatga jalb etishga oid munosabatlar.

2) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi qachondan amalgakiritilgan?

- A) 1995 yil 1 fevraldan.
- B) 1996 yil 1 apreldan.
- C) 1998 yil 25 maydan.
- D) 2001 yil 1 yanvardan.

3) Mehnat huquqining asosiy manbai...

- A) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
- B) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
- C) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudining qarorlari.
- D) O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.

4) Mehnatga oid munosabatlar qanday huquqiy vositalar bilan tartibga solinishini aniqlang.

- A) qonunlar bilan.
- B) shartnoma yo‘snidagi (lokal) me’yoriy hujjatlar bilan
- C) ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi tuzilgan mehnat shartnomasi bilan.
- D) yuqoridagilarni barchasi bilan.

5) O'zbekiston Respublikasi mehnat qonun hujjatlariga muvofiq insonning mehnatga layoqati necha yoshdan boshlanadi?

- A) 14 yoshdan.
- B) 16 yoshdan.
- C) 15 yoshdan.
- D) 13 yoshdan.

6) Mehnat daftarchasi ishga birinchi marotaba kirishda ish boshlangach qancha vaqt dan kechiktirmasdan to'ldiriladi?

- A) 1 kundan.
- B) 5 kundan.
- C) 1 oydan.
- D) 3 kundan.

7) Qonun hujjatlariga muvofiq eng ko'p sinov muddati qancha vaqt ni tashkil etadi?

- A) 3 oygacha.
- B) 6 oygacha.
- C) 1 yilgacha.
- D) 2 oygacha.

8) Xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilmoqchi bo'lsa, u korxona ma'muriyatini qancha vaqt oldin yozma ravishda ogohlantirishi kerak?

- A) 2 oy oldin.
- B) 1 hafta oldin.
- C) 2 hafta oldin.
- D) 1 oy oldin.

9) Ishsizlik nafaqasi to'lab turiladigan eng uzoq muddatni aniqlang.

- A) muddat cheklanmagan.
- B) ishdan va ish haqidagi mahrum bo'lgan shaxslarga 12 oy davomida 26 haftagacha, birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga 12 oy davomida 13 kalendar haftagacha.

- D) ishslash va ish haqidan mahrum bo‘lgan shaxslarga bir yilda 185 kungacha, qolganlarga esa 90 kungacha.
E) ishsizlik nafaqasi ishsiz shaxslarga belgilanmagan.

10) Ishga joylashish sohasida qo‘s Shimcha imtiyozlar kimlarga berilishi qaysi javobda to‘g‘ri belgilangan?

- A) ayollar, yoshlar, qariyalarga.
B) kasaba uyushmasi a’zolariga.
D) homilador va yosh bolali ayollar, 18 yoshga to’lmaganlar, nogironlarga.
E) homilador ayollar, ko‘p bolali oilalar, muddatli harbiy xizmatchilarga.

11) Mehnat shartnomasi qanday muddatlarga tuziladi?

- A) nomuayyan muddatga, 3 yilgacha.
B) 5 yildan ortiq bo‘lmagan muayyan muddatga, no muayyan muddatga, muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallab.
D) taraflar kelishuvi bilan istalgan muddatga.
E) muayyan ishni bajarish muddatiga, 5 yilgacha muddatga.

12) Ishga qabul qilish ish beruvchining:

- A) yozma buyrug‘i bian rasmiylashtirilib, buyruq nusxasi xodimga ko‘rsatiladi.
B) og‘zaki farmoyish bilan rasmiylashtiriladi.
D) mehnat shartnomasi (kontrakti) tuzish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi.
E) kasaba uyushmasi tomonidan rasmiylashtiriladi.

13) Dastlabki sinov davrida xodimlarga mehnat qonunları:

- A) tatbiq etilmaydi.
B) tatbiq etiladi, bu davr ish stajiga qo‘silmaydi.
D) tatbiq etiladi va bu davr ish stajiga qo‘siladi.
E) hammasi javoblar to‘g‘ri.

14) Tungi vaqttagi ishning har bir soati uchun kamida necha baravar miqdorda haq to'lanadi?

- A) bir yarim baravar.
- B) ikki baravar.
- D) ikki yarim baravar.
- E) uch baravar.

15) 6 kunlik ish haftasida ish vaqtiga necha soatni tashkil etadi?

- A) 6 soatni.
- B) 7 soatni.
- D) 8 soatni.
- E) 12 soatni.

16) Mehnat kodeksiga muvofiq ish vaqtining qisqartirilgan muddati kimgarga nisbatan qo'llaniladi?

- A) 18 yoshga to'limgan xodimlar uchun, I va II guruh nogironlari bo'lgan xodimlar uchun.
- B) noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan xodimlar, uch yoshga to'limgan bolalari bor ayollar uchun.
- D) alohida tusga ega bo'lgan ishlardagi xodimlar uchun.
- E) to'g'ri javob A, V va S.

17) O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A) 2005 yil 21-dekabrda.
- B) 2008 yil 1-aprelda.
- D) 2006 yil 1-yanvarda.
- E) 2009 yil 16-aprelda.

18) Mehnat ta'tili qachon beriladi?

- A) 6 oy mehnatdan keyin.
- B) 9 oy mehnatdan keyin.
- D) 1 yillik mehnatdan keyin.
- E) 3 oylik mehnatdan keyin.

19) Yaroqsiz mahsulot tayyorlaganda va u xodim aybi bilan bo'lsa:

- A) ish haqi to'lanmaydi.
- B) eng kam oylik ish haqi miqdorida haq to'lanadi.
- D) ish beruvchi aybi bilan yuz bersa o'rtacha ish haqi to'lanadi.
- E) ta'rif stavkasining 1/3 qismi miqdorida haq to'lanadi.

20) Xodimga pul to'lash haqidagi sud qarori bekor qilinganda, xodimga to'lab yuborilgan pul summasi:

- A) qaytarib olinmaydi.
- B) qaytarib olinadi.
- D) ayrim hollarda yana qaytarib olinadi.
- E) to'g'ri javob yo'q.

21) Xodim mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi qanday intizomiy jazo choralarini qo'llashga haqli?

- A) hayfsan, maxsus unvondan mahrum qilish, mehnat shartnomasini bekor qilish.
- B) hayfsan, o'rtacha oylik ish haqining 40%dan ortiq bo'limgan miqdordagi jarima, mehnat shartnomasini bekor qilish.
- D) hayfsan, o'rtacha oylik ish haqining 50%dan ortiq bo'limgan miqdordagi jarima.
- E) hayfsan, jarima, mehnat shartnomasini bekor qilish.

22) Intizomiy jazo mehnat daftarchasiga yoziladimi?

- A) ha, agar xodim bir oy ichida jazo olgan bo'lsa.
- B) ha, agar xodim yil davomida takroriy jazo olsa.
- D) yo'q.
- E) to'g'ri javob yo'q.

23) Intizomiy jazo amal qiladigan muddatni toping:

- A) 1 oy davomida.
- B) 1 yil davomida.
- D) 3 oy davomida.
- E) 1 hafta davomida.

- 24) Intizomiy jazo choralar qatoriga qaysi biri tegishli?**
- A) ogohlantirish.
 - B) 3 oy muddatga kam haq to‘lanadigan ishga ko‘chirib qo‘yish.
 - D) hayfsan e’lon qilish.
 - E) moddiy javobgar qilish.
- 25) Xodimga ish beruvchi tomonidan zarar etkazilish ob’ektlarini aniqlang.**
- A) xodimning sog‘lig‘i va hayoti.
 - B) xodimning mol-mulki.
 - D) xodimning sha’ni, qadr-qimmati.
 - E) barcha javoblar to‘g‘ri.
- 26) Ish beruvchiga etkazilgan zararni undirib olish yuzasidan belgilangan muddatni toping.**
- A) 3 yil davomida.
 - B) 1 oy davomida.
 - D) 1 yil davomida.
 - E) 6 oy davomida.
- 27) Ishga qabul qilishning eng kichik yoshi to‘g‘risidagi Konvensiya qachon va qayerda qabul qilingan?**
- A) 1970 yil. Venada.
 - B) 1971 yil. Moskvada.
 - D) 1979 yil Jenevada.
 - E) 1980 yil Bernda.
- 28) O‘zbekiston Respublikasida "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida" gi Qonun necha moddadan iborat?**
- A) 25 moddadan.
 - B) 29 moddadan.
 - D) 30 moddadan.
 - E) 27 moddadan.

29) Xodimning sog'lig'iga etkazilgan zararni ish beruvchidan undirish yuzasidan belgilangan da'vo muddatini aniqlang.

- A) 1 yil.
- B) 6 oy.
- D) 3 yil.
- E) da'vo muddati belgilanmagan.

30) Yakka mehnat nizolari - bu:

- A) xodim bilan ish beruvchi o'ttasidagi nizo.
- B) mehnat qonunlarini, mehnat shartlarini qo'llash yuzasidan xodim va ish beruvchi o'ttasidagi kelib chiqadigan kelishmovchilik.
- D) xodim va ish beruvchi o'ttasidagi nizo.
- E) to'g'ri javob yo'q.

31) Mehnat nizolari bo'yicha komissiya ariza berilgandan keyin qancha vaqt mobaynida mehnat nizosini ko'rib chiqishi kerak?

- A) 10 kun ichida.
- B) 2 hafta ichida.
- D) 1 yil ichida.
- E) 3 oy ichida.

32) Ishga tiklash baqidagi nizolar yuzasidan xodim sudga murojaat qilish muddati qancha?

- A) 10 kun ichida.
- B) 1 yil ichida .
- D) 3 oy davomida.
- E) buyruq nusxasini olgan kunitdan boshlab 1 oy davomida murojaat qilishi mumkin.

III Bo'lim. Oila huquqi asoslari

1 BOB. Oila huquqi tushunchasi, manbalari, nikoh tuzish tartibi va shartlari

1§. Oila tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi o'rni

2§. Oila huquqi manbalari

3§. Nikoh tushunchasi, nikohning umumiy shartlari

4§. Nikoh shartnomasi. Ota-onha hamda voyaga etmagan bolalarning huquq va majburiyatlari

1§. Oila tushunchasi, uning jamiyat hayotidagi o'rni

Insoniyat hayotida oila jamiyatning birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Oila har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin egallaydigan jamiyatning ajralmas qismi bo'lishi bilan birga insoniyat shakllanishi, yuksalishi va taraqqiyotining poydevoridir. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi hamda uning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi 63-moddasi qoidalarida ifodalab berilgan. Konstitutsiyada belgilangan oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalar oila hayoti bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarni yo'naltirishga hamda huquqiy tartibga solishga, ijtimoiy himoyalashga qaratilgandir.

"Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqlidir". Bu norma "Inson huquqlari umumjahon Deklarasiyasi"ning 16-moddasida o'z ifodasini topgan bo'lib, Deklarasiyada oila davlat muhofazasida bo'lishi haqidagi qoidalar davlatlar zimmasidagi muhim vazifalar ekanligi e'tirof etiladi. Unga ko'ra oilani jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sifatida, uning dahlsizligini yaxshilash, bolalarga ta'lif va tarbiya berish, onalar va ishga yaroqsiz oila a'zolari uchun zarur bo'lgan moddiy imtiyozlar yaratish va oilani mustahkmalash borasida shunga o'xshash yo'lga qo'yish lozim bo'lgan muhim masalalar nazarda tutilgan. Oilaning davlat, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, vazifalari va ahamiyati xususida Prezident I.A.Karimov

to'xtalib, jumladan shunday degan edi: "O'zbekiston Respublikasining bosh maqsadi bo'lgan insonparvar demokratik huquqiy davlat adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etib, oilaning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan uyg'unligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan Konstitutsiyaviy tamoyillar belgilangan bo'lib, ularda ayol va erkakning teng huquqliligi, nikoh tuzishning erkinligi, nikoh tuzayotgan shaxslarning teng huquqliligi, ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar farzandlarining qonun oldida tengligi, etim bolalarning va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishlarining kafolatlanganligi, onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi kabilarni keltirish mumkin. Davlat uning vakolatli organlari va mansabdor shaxslariga mazkur tamoyillar asosida muayyan majburiyatlar yuklaydi, ya'ni oilalarni har jihatdan iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan muhofaza qilishni, etim bolalar va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlash hamda etim bolalar va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatlarini rag'batlantirish bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etadi.

Oilaning muqaddasligi, uning jamiyat taraqqiyotidagi asosiy bo'g'in hisoblanishi hamda butun insoniyat taraqqiyotining birlamchi poydevori ekanligini inobatga olgan holda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyası 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may sanasini "Xalqaro Oila kuni" sifatida nishonlashga qaror qilgani va bu kun har yili xalqaro miqyosda keng nishonlanishi oilalarga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi 2-qismi hamda Oila kodeksining 4-moddasi 1-qismiga binoan oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. Oilalarni har jihatdan muhofazalash, oilaga muntazam g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy va ma'naviy ko'mak berish, insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim vazifalaridandir.

Oila uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasi, jamiatning ob'ektiv ajralmas qismidir. *Oila - ijtimoiy ma'noda ayol va erkakning o'zaro roziligi va kelishuvi asosida tuzilgan ma'naviy, maishiy va*

boshqa turmush shartlari asosida kelajagini barpo etish, oila bo'lib yashash va shu kabi manfaatlar yuzasidan birlashgan ahda-shuvidir. Oila jamiyatdagi inson shakllanishi va taraqqiyoti uchun eng muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan, insonni yaratish, bolalarni tarbiyalash, odamlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan kamol toptirish, ularni ma'naviy birlashtirish, birgalikda xo'jalik yuritishni ta'minlash, o'zaro yordam ko'rsatish, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash, demografiya jaryonlarini yaxshilish vazifalarini bajaradi. Ayni oilada inson xarakterining asoslari, mehnatga, ma'naviy va madaniy boyliklarga munosabat shakllanadi.

Jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdordir. Shu bois u oilani mustahkamlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishda, bolalarni tarbiyalashda unga ko'maklashish, bolali oilalarning hamda kelin-kuyovlarning moddiy, uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilish yo'lini tutishi lozim. Oila bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga, ona va bola manfaatlarini muhofaza etishga, onalikni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar turkumini nazarda tutuvchi huquq oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" ning 16-moddasi qoidalarida oila qurish balog'atga etgan erkak va ayolning huquqi ekanligi, ularning nikohi rozilik va o'z xohishlari orqali amalga oshirilishi, oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasi ekanligi hamda uning jamiyat va davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan.

Oila jamiyat va davlat taraqqiyotida birlamchi asos vazifasini bajarib davlat farovonligi va kelajagi barqarorligini mustahkamlaydi. Jamiyatda oilalaming mustahkam va farovon hayot kechirishi avvalo mamlakatda yuritilayotgan siyosat, oilalarning ijtimoiy himoyasiga yo'naltirilgan faoliyatlarga bog'liq bo'ladi. Davlatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar va chora-tadbirlarning asosiy maqsadi inson va oila manfaatlariga yo'naltirilishi mamlakatning buyuk kelajak barpo etishga intilayotganligining ifodasidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri oilalar farovonligini, tinchini va barqarorligini ta'minlash va uning jamiyat hayotidagi nufuzini yanada oshirishdan iborat. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan so'ng dastlabki joriy etilgan unvonlardan birining "Sog'lom avlod uchun" deya nomlanishida juda katta ramziy ma'no bor. O'zbek xalqi qadimdan oilaparvar, farzandlar kamoloti uchun qayg'uradigan, oilasining tinchligi, farovonligi uchun kurashadigan uning muqaddas dargoh sifatida ardoqlaydigan millatdir. Chunki jamiyat, davlatning ertangi kelajagi yosh avlod qo'lida bo'ladi, yosh avlodning sog'lom o'sishi, kamol topishi va yuksak darajada shakllanishining negizi esa oiladan boshlanadi.

Shu bois Prezident I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998 yilni "Oila yili", 1999 yilni "Ayollar" yili, 2000 yilni "Sog'lom avlod yili", 2001 yilni "Ona va bolalar yili", 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deya belgilanishi davlatimizning oila va farzandlar kelajagiga berayotgan alohida e'tiborining namunasidir.

2§. Oila huquqi manbalari

Oilaning jamiyat ravnaq topishidagi o'rni va ishtirokini oshirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashda oilaviy-huquqiy munosabatlarning yuridik tartibga solinishi va takomillashtirilib borilishi muhim ahamiyatga egadir.

Oila huquqi tushunchasi - er-xotinlar, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog'liq mulkiy tusdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning mustaqil tarmog'idir.

Oila huquqi manbalari bu oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga xizmat qiluvchi qonun hujjatlari, normativ me'yorlar majmuidir. O'zbekiston Respublikasida oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibda solishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik prosessual kodeksi,

Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomalar, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari, O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi Nizom, Voyaga etmagan bolalarni farzandlikga va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom, Voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaror, Oliy sud Plenumining oila masalalariga qaratilgan qarorlari muhim o‘rin tutadi. Oila huquqining manbalari yuridik kuchiga ko‘ra O‘zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va qonunosti hujjalari bo‘linadi.

Oila huquqining manbalari

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabr. III-bo‘lim. 63-66 moddalarini
Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar (46-modda)

O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi 1998 yil 30 apreldaqabul qilingan, 1998 yil 1 sentabrda kuchga kirgan. 8bo‘lim, 30 bob. 238 moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi I qism 1995 yil 21 dekabr. 2 qism 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan va 1997 yil 1 martdan kuchga kirgan, 71 bob. 1199 moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik prosessual kodeksi 1977 yil 30 avgustda tasdiqlangan.
1998 yil 1 yanvardan amalgaligana kirgan, 5 bo‘lim, 40 bob, 391 moddadan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining larmon. farmoyish va qarorlari, Vazirlar
Mahkamasining farmoyish va qarorlari

“Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”, “O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Nizom “Voyaga etmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida”gi Nizom – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan maxsus yuridik manba bo'lib, uning asosiy vazifalari:

- xalqaro huquqiy qoidalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish;

- umuminsoniy va milliy kadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etish;

- mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi g'oyat murakkab davrida oilaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;

- xonadonning serfayzligi, oila hayotining ravnaqi, ma'naviyatining yuksalishi, turmushining farovonligi asosan ayollarga bog'liqidir. Shuning uchun ham ayollarning oiladagi mavqeiga, huquqiy holatiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda har bir oilaning o'ziga xos xususiyatini, millatimizning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish;

- sog'lom avlodni vujudga keltirishda milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning azaliy an'analariga, islomiy, axloqiy-ma'naviy aqidalarga amal qilgan holda ish yuritish;

- bo'lajak onalarni tarbiyalashda milliy mafkura, urf-odat va an'analarни kengroq qo'llash;

- sog'lom avlod haqida bola tug'ilmasdan oldin g'amxo'rlik qilish;

- oila qonunlarida belgilangan nikohga o'tish tartibi va shartlarini, oilada er - xotin, ota - onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga e'tiborni qaratish kabilardir.

Oila huquqi manbalari er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, shuningdek, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy me'yorlar tizimi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi davlat tomonidan oilaviy munosabatlarni tartibga solib turadi. Shuningdek, bu qonun hujjati nikohdan o'tish tartibi va shartlarini ham belgilagan holda:

Oilada er - xotin o'rtasida, ota-onalar va bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi;

boshqalarning bolalarini o'ziga bola qilib olish, vasiylikka olish, homiylik qilish, bolalarni o'z tarbiyasiga olish munosabati bilan vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi;

nikohni bekor qilish tartibi va shartlarini belgilaydi; fuqarolik holati to'g'risidagi hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Shunday qilib, nikoh-oila munosabatlarining majmui oila huquqi shug'ullanishi lozim bo'lgan sohadir. Bu huquq nikohdan o'tish va uni bekor qilishga doir munosabatlarni, nikoh qilingan er-xotin o'rtasida, bolalar va ota-onalar o'rtasida, bolalarni o'z tarbiyasiga olganlar bilan o'sha tarbiyalanuvchilar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Oila-nikoh masalasida huquqqa qobiliyatli bo'lgan va barkamol fuqarolar (er bilan xotin) oiladagi huquqiy munosabatlarning sub'ektlari hisoblanadilar.

Huquq qobiliyatiga ega bo'lish oilaviy huquq va burchlarga ega bo'lish singari ba'zi hollarda bola tug'ilgan paytdan boshlab yuzaga keladi (ya'ni bola o'zini boqish va tarbiyalashlari lozim bo'lgan huquqlarga ega bo'ladi), boshqa holatlarda esa bunday huquq u ma'lum yoshga etganida (nikohdan o'tganida) yuzaga keladi.

Oila huquqining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- oiladagi barcha masalalarni hal qilishda er-xotinning teng huquqliligi;
- millati, irqi, dinga munosabatidan qat'i nazar, er-xotinning hamda oila boshqa a'zolarining teng huquqliligi;
- onalikni muhofaza qilish va rag'batlantirish;
- balog'atga etmagan bolalarni tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlik qilish va ularning manfaatlarini ta'min etish;
- bir nikohlilik; nikoh ittifoqining erkinligi va ixtiyoriligi;
- jamiyat nazorati ostida nikohni bekor qilish erkinligi;
- oilaviy munosabat qatnashchilarining bir-birini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi hamda bir-biri to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kabilardir.

3§. Nikoh tushunchasi, nikohning umumiy shartlari

Nikoh munosabatlari Oila kodeksi normalari bilan tartibga solinib, erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqidir. Nikoh munosabatlariga kirishgach, taraflar er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga etmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlami muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Nikoh bu voyaga etgan shaxslarning o'zaro ixtiyoriy qarorlari asosida oila qurish maqsadida tuzilgan bitimidir. Nikoh tuzishi to'g'risidagi kelishuv fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlariga ko'ra, diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas deb belgilangan.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarining fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Bu muddat taraflarning o'zaro bir qarorga kelishiga va oilaviy hayotda bir-birlarini tushunib yashashga yo'naltiruvchi, hayotning yangi bir bosqichiga qadam qo'yishini anglatuvchi mas'uliyatli davr sanaladi. Qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda va taraflar kelishuvi asosida uzrli deya topilgan sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar ham nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alohidha hollar ya'ni homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqa holatlarda nikoh ariza berilgan kuni ham tuzilishi

mumkin. Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro‘yxatga olishni turli sabablar bilan rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo‘ysunishiga ko‘ra yuqori turuvchi Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga murojaat qilinishi mumkin.

Nikoh tuzish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy normalariga ko‘ra va shuningdek, Oila kodeksining 14-moddasi qoidalariga asosan ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo‘lajak erxotin o‘z roziliginini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanib qonun hujjatlarida belgilanganidek jinoiy javobgarlikkacha bo‘lgan jazo choralari qo‘llanilishi mumkin.

Oila kodeksining 15-moddasi talablariga ko‘ra, O‘zbekistonda nikoh yoshi erkaklar uchun o‘n sakkiz yosh, ayollar uchun o‘n etti yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra, nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagи tuman, shahar hokimi qarori bilan nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga ya’ni ayollar uchun 16 yosh, erkaklar uchun 17 yoshgacha kamaytirishi mumkin.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar:

- loaqlal nikohlanuvchi taraflardan bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;
- nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida;
- loaqlal nikohlanuvchi taraflardan bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Oila jamiyatning ajralmas birlamchi bo‘g‘inidir. Oila jamiyatning asosiy xujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi, tinch va farovon bo‘lishi pirovard natijada jamiyatning,

davlatlarning barqarorligi va kelajagi farovonligining kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002 yil 13-dekabrdagi Qonuniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 25 avgustdag'i Qaroriga asosan Oila kodeksining 17-moddasiga ya'ni nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibiga o'zgartirishlar kiritildi. Unga binoan endi nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish majburiyligi chegarasi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qoidalar asosida tashkil etiladi. Shuningdek, 2009 yil 7 avgustdag'i O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, 50 yoshdan oshgan nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan o'z roziliklari bilan o'tadilar.

Nikoh davomida taraflar o'zaro bir-birlarini, huquq va manfaatlарини hurmat qilishlari lozim.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek, maxsus maqsadga mo'ljallanmagan boshqa pul to'lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo'lish yoki salomatligiga boshqacha zarar etkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan etkazilgan zararni qoplash tarzida to'langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko'char va ko'chmas ashyolar, qimmatli qog'ozlari,

paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulkleri, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag'lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo'lishidan qat'i nazar ular ham er va xotinning umumiy mol-mulki hisoblanadi.

Oila qonunchiligidagi soxta nikoh tushunchasi ham mavjud bo'lib uning tuzilishiga qonun yo'l qo'ymaydi. Soxta nikoh tuzilganda, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay nikoh qayd qildirganda, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa, nikoh haqiqiy emas deb topiladi va bu jarayon faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga tegishli belgi qo'yiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach, o'n kun ichida undan ko'chirma nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagи fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasi talablariga ko'ra, nikoh er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida tugaydi. Shuningdek, nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shu bilan birga sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizaga muvofiq ham tugatilishi mumkin. Xotininining homiladorlik davrida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinining roziligesiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emasligi qonunda belgilangan.

Nikohdan ajratish qonunda belgilangan holda sud tartibida amalga oshiriladi. Voyaga etmagan bolalari bo'limgan er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik

holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi. Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birgalikdag'i umumiy mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lgan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Oila kodeksining 43-moddasi talablariga ko'ra, er-xotindan birining arizasi bo'yicha fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish quyidagi hollarda amalga oshiriladi.

- agarda er-xotindan biri sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

- er-xotindan biri sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;

- agarda er-xotindan biri sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lman muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga etmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi.

Agarda bolalar haqida, er-xotinning birgalikdag'i umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqidagi holatlar bo'yicha nizolar mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga etmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin. Ko'rsatilgan masalalar bo'yicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lman taqdirda, shuningdek, ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

- nikohdan ajratilgandan keyin voyaga etmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

- voyaga etmagan bolalarga ta'minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;
- er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra ularning birlgiligidagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;
- er (xotin)dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi lozim.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rib chiqilayotganida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-xarajatlarni undirish haqidagi talablar qanoatlantirilmaydi. Oila kodeksining 46-moddasi talablariга asosan nikohga kirish vaqtida o'z familiyasini o'zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud uning xohishiga binoan sud tomonidan nikohdan ajratish to'g'risidagi qaror chiqarilayotganda unga nikohgacha bo'lgan familiyasi qaytarilishi mumkin.

4\$. Nikoh shartnomasi. Ota-onalarning voyaga etmagan bolalarining huquq va majburiyatları

Oila o'zbek xalqi uchun qadimdan muqaddas dargoh bo'lib, uning farovonligi, tinchligi, kelajagi uchun doim e'tibor berilib kelingan. Prezident I.Karimov o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etib, shunday deydi: Oila - jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunishimiz mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlar shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindoshurug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Ma'lumki, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan

taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishivi nikoh shartnomasi orqali tartibga solinadi. Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanadi.

Agarda nikoh shartnomasi tuzilmagan bo'sha Oila kodeksi umumiy qoidalari asosda hal etiladi.

Er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikda, umumiy mulkning qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishga, er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mol-mulkiga nisbatan birgalikdagi, ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir. Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Er va xotin nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birining daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek, nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlarga oid boshqa qoidalari kiritishga haqli.

Nikoh shartnomasi er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini chekllovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonun hujjatlarning normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni belgilay olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 71-moddasi qoidalari ko'ra, ota-onasi huquq va majburiyatlarining tengligi belgilangan bo'lib, unga asosan ota-onasi o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlariga asosan, ota-onasi o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart.

Ota-onalik o‘z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgar bo‘lib, o‘z bolalarining sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishlari lozim.

Ota-onalik o‘z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-onalik o‘z bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta’lim olishini ta’minlashi shart. Mazkur huquqiy norma O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ham o‘z ifodasini topgan.

Ota-onalik o‘z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-onalik o‘z bolalar manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganda, ota-onalik o‘z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-onalik o‘z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli emas. Ota-onalik o‘z bolalar o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi lozim.

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Bolalar manfaatlarini ta’minalash ota-onalik o‘rtasida qilining asosini tashkil qiladi. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-onalik o‘z bolalarining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga, axloqiy kamolotiga zarar etkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensi maslik, shafqatsizlik, qo‘pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ular mehnatidan noqonuniy foydalanish holi bo‘lishi lozim.

Bolalarning ta’lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-onalik o‘zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-onalik o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lsa, ular (ulardan biri) bu kelishmovchiliklami hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir.

Ota-onalik o‘z bolalarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to‘lashdan bo‘yin tovlasa; uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash

muassasasi va shunga o'xhash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa; muttasil ichkililikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa; o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalg'a oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning), prokuroring, shuningdek, voyaga etmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga etmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, etim bolalar va ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'riladi.

Voyaga etmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lish huquqiga egadirlar. Voyaga etmagan bolalarning qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki, shuningdek, shaxsiy mehnati va tadbirdorlik faoliyati natijasida orttirgan mol-mulki ularning xususiy mulkidir.

Voyaga etmaganlaming shaxsiy foydalanishidagi buyumlari (kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o'quv-anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki hisoblanadi. Ota-onalik voyaga etmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga etmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi. Voyaga etmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-onalik o'rtaSIDA kelishuv bo'limganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylilik va homiylik organlari voyaga etmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Agar voyaga etmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-onalik o'rtaSIDA kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment

sud tomonidan ota-onaning har oydag'i ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun - to'rtdan bir qismi, ikki bola uchun - uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun - yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarining miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Shuningdek, Oila kodeksida ota-onada oldida farzandlarning ham majburiyatlari nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga etgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-onasiga ham g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar o'z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo'yin tovlasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Ota-onada, aliment undirish haqidagi talabni o'z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo'yganligidan qat'i nazar aliment miqdorini belgilashda sud voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Tayanch so‘z va iboralar

Oila tushunchasi, oila huquqi tushunchasi va predmeti. Oilaviy munosabatlar va ularning huquqiy asoslari. Oila kodeksi oila huquqi manbai sifatida. Nikoh tushunchasi, nikoh tuzishning shartlari. Nikoh shartnomasi va uning mazmuni. Ota-onas va farzandlarning o‘zaro huquq va majburiyatları. Aliment tushunchasi, turlari va miqdori.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oila huquqi tushunchasi, mazmuni va vazifalari.
2. Oila huquqining manbalari yuridik kuchiga ko‘ra turlarini tasniflang va ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Nikoh tushunchasi, tuzish tartibi va shartlarini bayon eting.
4. Nikoh shamomasi tushunchasi, mazmuni va ahamiyatini izohlang.
5. Nikohni bekor qilish tartibi, asoslari va shartlarini aytинг.
6. Ota-onas va farzandlarning o‘zaro huquq hamda majburiyatları nimaldan iborat ?

Test savollari

- 1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi nechanchi yilda qabul qilingan?**
A) 1998 yil 30 aprelda.
B) 1997 yil 29 yanvarda.
D) 1998 yil 12 sentyabrdan.
E) 1998 yil 1 mayda.
- 2. Oila huquqi fanining predmetini belgilang.**
A) oilaviy iqtisodiy-huquqiy munosabatlar mazmuni.
B) oilaviy huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar.
D) huquq normalari bilan tartibga solinadigan mulkiy masalalar.
E) barcha javoblar to‘g’ri.

3. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi necha moddadan iborat.

- A) 224 moddadan.
- B) 198 moddadan.
- D) 238 moddadan.
- E) 233 moddadan.

4. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nikoh yoshi necha yosh qilib belgilangan.

- A) erkaklar uchun 19 yosh, ayollar uchun 18 yosh.
- B) erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh.
- D) erkaklar uchun 19 yosh, ayollar uchun 17 yosh.
- E) erkaklar uchun 20 yosh, ayollar uchun 18 yosh.

5. O‘zbekiston Respublikasida nechanchi yili Oila yili deb e’lon qilingan.

- A) 1997 yil.
- B) 1995 yil.
- D) 1998 yil.
- E) 1999 yil.

6. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining o‘n uchinchi moddasida qanday qoida belgilab qo‘yilgan?

- A) nikoh tuzish tartibi.
- B) nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi.
- D) nikohni ajratish tartibi.
- E) er-xotinning huquq va majburiyatlari.

7. Nikoh tuzish yoshi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining nechanchi moddasida ko‘rsatilgan?

- A) 23- moddasida.
- B) 45- moddasida.
- D) 15- moddasida.
- E) 18- moddasida.

8. Nikoh tuzish tartibini belgilang.

- A) nikohlanuvchilar maxsus organga ariza bergan kundan boshlab bir oy o'tgandan keyin.
- B) nikohlanuvchilar maxsus organga ariza bergan kundan boshlab o'n besh kun o'tgandan keyin.
- C) nikohlanuvchilar maxsus organga ariza bergan kundan boshlab ikki oy o'tgandan keyin.
- D) nikohlanuvchilar maxsus organga ariza bergan kundan boshlab yigirma kun o'tgandan keyin.

9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalarida oila haqida so'z boradi?

- A) 59 - 60- 61- 62- moddalarda.
- B) 60 - 61- 62- 63- moddalarda.
- C) 63 - 64- 65- 66- moddalarda.
- D) 67 - 68- 69- 70- moddalarda.

10. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 19-moddasida...

- A) er va xotin o'rtasidagi mol-mulk huquqi tartibga solingan.
- B) er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egaligi belgilangan.
- C) bola tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qilishi ko'satilgan.
- D) er va xotinning har biri mashg'ulot turi, kasb va turmush hamda yashash joyini tanlashga erkinligi belgilangan.

11. Nikoh shartnomasi Oila kodeksining nechanchi moddasida berilgan.

- A) 30- moddasida.
- B) 29- moddasida.
- C) 40- moddasida.
- D) 43- moddasida.

12. Ota- onalik huquqini cheklash to‘g‘risidagi ishlar qaysi vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi?

- A) prokuratura organlari hamda vasiylik va homiylik organlari tomonidan.
- B) vasiylik hamda adliya organlari tomonidan.
- D) fuqarolik dalolatnomalarini qayd qilish organlari hamda prokuratura organlari tomonidan.
- E) sud organlari tomonidan.

13. Nikoh bu ...

- A) erkak va ayol o‘rtasida tuzilgan majburiy bitim.
- B) erkak va ayol o‘rtasida tuzilgan ixtiyoriy bitim.
- D) erkak va ayol o‘rtasida vaqtinchalik tuzilgan shartnoma.
- E) erkak va ayol o‘rtasida tuzilgan doimiy bitim.

14. Vasiylik qaysi shaxslarga nisbatan belgilanadi.

- A) 14 yoshga to‘lman bolalarga va sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga.
- B) 15 yoshga to‘lgan bolalarga va sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga.
- D) 16 yoshga to‘lgan bolalarga va sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga.
- E) 18 yoshga to‘lman bolalarga va sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga.

15. Aliment ota-onaning ish haqidan bir bola uchun qancha miqdorda ushlab qolinadi.

- A) daromadining to‘rtadan bir qismi miqdorida.
- B) daromadining uchdan bir qismi miqdorida.
- D) daromadining teng yarmi miqdorida.
- E) daromadining to‘rtadan uch qismi miqdorida.

IV Bo‘lim. Sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlari

1 BOB. Sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi hamda ular faoliyatining huquqiy asoslari

1§. Sud hokimiyati

2§. Advokatura

3§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar

4§. Prokuratura

5§. Milliy xavfsizlik xizmati

6§. Ichki ishlar organlari

1§. Sud hokimiyati

O‘zbekiston Respublikasida sud organlari alohida o‘rin tutib ularning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda belgilab qo‘yilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishga da’vat etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida sud huquq sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar sudsami ixtisoslashuvi, o‘lim jazosining 2008 yil 1 yanvardan bekor qilinishi, qamoqqa olishga doir sanksiyalarni qo‘llashni sudsarga o‘tkazilishi kabi jarayonlar jamiyatda demokratik qoidalar ustuvorligini ko‘rsatish bilan birga sudsarga nisbatan e’tibor va ishonch mustahkamliligidan dalolat beradi.

Sud hokimiyati bu sudsarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiiga so‘zsiz rivoja qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik ishlarini va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rish bo‘yicha vakolatli organdir.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil tarmog‘idan biri bo‘lib, jamiyat hayotida odil sudslovni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Odil sudslov o‘z

mohiyatiga ko'ra, davlat faoliyati hisoblanadi. Bunda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizoli holatlarini muhokama etib, hal etadi.

Mamlakatimizda sud hokimiyatining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomi, tuzilishi va faoliyat yuritishining qonuniy asosi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi 2000 yil 14 dekabr) qonuni bilan belgilanadi.

Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasida sudlar tizimi "Sudlar to'g'risidagi qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlaridan iboratdir.

Sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'rildi. Ishlarni yopiq majlisda ko'rib chiqishga faqat qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdor shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek, hayoti va

sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo‘lish huquqiga ega. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo‘lish huquqiga egadir.

Ayblanuvchi, uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmagunga va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmagunga qadar, aybsiz hisoblanadi. Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda qamoqqa olinishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 83-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi sud organlari tizimida o‘ziga xos o‘rin tutib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1) Qonunlarning va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan boshqa hujatlarning O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti farmonlarining, hukumat qarorlarining, davlat hokimiyyati mahalliy organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarining O‘zbekiston Konstitusiyasiga mosligini aniqlaydi;

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

3) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari ning normalariga sharh beradi.

4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko‘rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Ularga qat‘iy amal qilinadi va ular ustidän shikoyat qilish mumkin emas. Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va uning faoliyatini ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir.

O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimi O‘zbekiston

Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari:

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilari, shuningdek, o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtida harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni;

- harbiy qismlar, qo'shilmalar va birlashmalar, harbiy boshqaruв organlarining qo'mondonligiga nisbatan harbiy xizmatchilarning da'volari bo'yicha fuqarolik ishlarni va harbiy boshqaruв organlari hamda harbiy mansabdar shaxslarning harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xattiharakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlarni;

alohida holatlarga ko'ra umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat ko'rsatmayotgan joylarda barcha fuqarolik va jinoyat ishlarni;

- davlat sirlariga taalluqli ishlarni;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi xo'jalik sud ishlarni yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Sudyalar qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxslardir. O'zbekiston Respublikasida barcha sudyalar bir xil maqomga ega. Sudlarning raislari, rais o'rinsarlar ayni vaqtida sudyalardir.

Sudyalikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun hujjatlariga binoan, yigirma besh yoshdan kichik bo'limgan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik ixtisos bo'yicha kamida uch yillik mehnat stajiga ega bo'lgan hamda malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin. Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida besh yillik, shu jumladan, qoida

tariqasida, suda bo'lib kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi bo'lishi mumkin. Oliy yuridik ma'lumotga hamda yuridik ixtisos bo'yicha kamida etti yillik, shu jumladan, qoida tariqasida, suda bo'lib kamida besh yillik mehnat stajiga ega bo'lgan va malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi sudyasi bo'lishi mumkin.

2§. Advokatura

Mamlakatimizda inson hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, bu Konstitutsiyaviy qoida Qomusimizning 13-moddasida¹ mustahkamlab qo'yilgan. Ijtimoiy qadriyatlar Konstitutsiyaviy prinsip darajasiga ko'tarilishi fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlardan bo'lib, bunda advokatura instituti asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun Konstitusiyamizning 116-moddasida², tergov va sud ishi yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirish advokatura instituti zimmasiga yuklatilgan.

Ma'lumki, 2008 yil 1-mayda advokaturaning faoliyatini takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloq qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan 2008 yil 19 noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2008 yil 4 dekabrda ma'qullangan Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi sud-huquq sohasidagi huquqiy islohotlarning uzviy davomidir. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Biz advokatura tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.-T.:O'zbekiston, 2009 yil.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.-T.:O'zbekiston, 2009 yil.

kuchaytirishimiz va uning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning vakolatlari va maqomini prokuratura bilan tenglashtirish uchun qonunchilik sohasida ham amaliy ishlar sohasida ham ko'pgina chora-tadbirlar ko'rmoqdamiz"¹, –degan fikrlaridan kelib chiqib, keyingi paytlarda advokatlik faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlarini takomillash-tirilishi, ularning ish faoliyatini talab darajasida tashkillash-tirilayotganligi, sohadagilarning ijtimoiy va kasbiy faoliyatini himoyalashning huquqiy asoslarini kengaytirishga xizmat qiluvchi mazkur qonunlaming qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi islohot-larning yaqqol namunasidir. Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjat-lariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida advokatlarning huquqiy maqomi va faoliyatining yuridik kafolatlari yanada takomillashtirildi. Mazkur qonun hujjati asosida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga, Jinoyat-prosessual kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, "Advokatura to'g'risida"gi qonuniga va "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, "Advokatura to'g'risida"gi qonunda advokatning huquqiy maqomi to'laroq ifodalanib, unga ko'ra oliv yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin. Advokat o'z faoliyatini qonunning ustunligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsi plar asosida amalga oshiradi.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyani belgilangan tartibda olgan shaxs o'z advokatlik byurosini ochib, yakka tartibda faoliyat ko'rsatishga yoxud ixtiyorilik asosida boshqa advokatlar (sheriklar) bilan hay'atlar va firmalar tuzishga haqlidir.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, shuningdek, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emasligi belgilangan. Advokatlar ilmiy va pedagogik faoliyatdan, shuningdek, O'zbekiston

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.:O'zbekiston, 1999 yil.

Respublikasi advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqar malaridagi ish faoliyatlaridan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emaslar.

Advokatlarga faoliyat yuritishlari uchun lisenziya berish borasida ham o'zgartirishlar kiritilib unga asosan yangi tartib joriy etildi. Lisenziya olish uchun advokat maqomiga ega bo'lishiga talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan advokatlik tuzilmasida kamida olti oy muddat stajirovka o'tagan bo'lishi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi lozim. Malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor lisenziya olish uchun tegishli adliya organiga uch oy ichida murojaat qilishi kerak. Bu muddatni o'tkazib yuborgan talabgor lisenziya olish uchun adliya organiga malaka imtihonini takroran topshirgandan keyingina murojaat qilishi mumkin.

Advokat kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog'ida tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo'lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig'iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish, sndlarda, shuningdek, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqayotgan organlarda dalil sifatida foydalanimishi mumkin bo'lgan faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularni tasdiqlangan ko'chirma nusxalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishi shart bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar hamda boshqa hujjatlarni so'rash va olish, yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumotnomalarini, ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish, ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish, to'plangan materiallarni o'z ishonch bildiruvchi va himoya ostidagi shaxsining ish yuzasidan ish yuritayotgan sndlarga va boshqa davlat organlariga taqdim etish, o'zi yuridik yordam ko'rsatayotgan ishdagi zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallarni

va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan nuxxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish, bunda davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborotni oshkor qilmaslik, ishonch bildiruvchi shaxs bilan maxfiylik ta'minlangan sharoitlarda shu jumladan uni qamoqda saqlab turish davrida uchrashuvlarning soni va ularning davom etish vaqtini cheklanmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xoli uchrashish, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bildirish va shikoyatlar berish hamda ulardan yozma shaklda asoslantirilgan javoblar olish va o'zining kasbga oid mulkiy javobgarlik xavfini sug'urta qilish kabi boshqa harakatlarni bajarish huquqiga egadir.

Mazkur o'zgarishlarga ko'ra "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 14-moddasi qoidalari asosida, advokatlar o'z faoliyati davomida o'zi tomonidan advokatura to'g'risidagi qonun hujjatları talablari, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatning siri va advokatning qasamyodini buzgan hollarda unga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishiga olib keladi. Advokatlik tuzilmalari mehnat intizomini buzganlik uchun advokatga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy jazo choralar qo'llashga haqli bo'lib, intizomiy ish yuritishni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha advokatga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralar qo'llanilishi mumkin:

1. Davlat malaka komissiyasining qarori asosida ogohlantirish;
2. Lisenziyaning amal qilishini 6 oy muddatga to'xtatib turish;
3. Lisenziyaning amal qilishini tugatish.

Sud-huquq tizimida, advokatlik faoliyatida amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlar inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklarining to'la ta'minlanishiga qaratilgandir. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, "Aslida har qanday islohotning muhim samarasini avvalo xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi. Biz amalga oshirayotgan islohotlarimizda ana shunday natjalarga erishish uchun barcha o'zgarishlar va yangilanishlarning markaziga inson va uning

manfaatlarini qo'y dik. Shuning uchun ham bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarda ko'rish, kuzatish qiyin emas¹!. Advokatura tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash, qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy vazifasidir.

3§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar deyilganda, bu bevosita o'z faoliyati doirasida qonun hujjatlariiga asosan jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, tinchlik va xavfsizlik uchun mas'ul bo'lgan hamda faoliyatining asosiy yo'naliishi sifatida insonlar tinchligi, sog'ligi, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlovchi vakolatli davlat organlari tushuniladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining huquqiy asoslari va tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi va qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifalarini quyidagi surishtiruv organlari tomonidan ham bajarilishi belgilab qo'yilgan:

1) Ichki ishlar organlari;

2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari - ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoki o'quv yurti joylashgan erda sodir etgan jinoyatlariiga doir ishlar bo'yicha;

3) milliy xavfsizlik xizmati organlari - qonunga ko'ra ularning yurituviga berilgan ishlar bo'yicha;

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.-T.: «Ma'naviyat», 2008. -B.105-106.

4) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolyatorlari hamda turmalarning boshliqlari - shu muassasalar xodimlari xizmatni o‘tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha;

5) davlat yong‘indan nazorat qilish organlari - yong‘inlarga doir va yong‘inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

6) chegarani qo‘riqlash organlari - davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

7) olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari - tegishinchalik bojxona, soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo‘yicha;

9) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari - voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tov lashga, sud qarorini bajarmaslikka, shuningdek, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo‘yicha kabilar tashkil etadi.

Surishtiruv organining boshlig‘i JPKning 38-moddasida sanab o‘tilgan har bir organning rahbarlari sifatida jinoyat ishini qo‘zg‘atishga, bu ishni o‘zining ish yuritishiga qabul qilish va surishtiruvni boshlashga yoki o‘ziga bo‘ysunuvchi boshqa xodimga surishtiruv yuritishni topshirishga yoxud ish qo‘zg‘atishni rad etishga yoki arizani, xabarni tergovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazishga haqlidir.

Surishtiruvchi zimmasiga, shuningdek, tergovchi yuritayotgan ish bo‘yicha uning ayrim tergov va qidiruv harakatlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi topshiriqlarini bajarish hamda tergovchiga uning tergov

harakatlarini bajarishida ko'maklashish majburiyati yuklatiladi. Surishtiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek, tergovchining topshirig'ini bajarayotganda surishtiruvchi dastlabki tergov o'tkazish uchun belgilangan qoidalarga amal qilib, tergov harakatlari olib boradi va qarorlar chiqaradi. Surishtiruv organining boshlig'i ham, basharti u surishtiruvchining vazifalarini bajarayotgan bo'lsa, xuddi shu qoidalarga amal qiladi.

Surishtiruvchining qarori surishtiruv organining boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim. Surishtiruv organi boshlig'ining yozma ko'rsatmasi surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruvchi ko'rsatmaga norozi bo'lsa, ko'rsatmani bajarishni to'xtatmay turib, bu ko'rsatma ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqlidir. Prokuroning yozma ko'rsatmasi surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruv organining boshlig'i va surishtiruvchi prokuror ko'rsatmasiga rozi bo'lмаган тақдирда, ko'rsatmani bajarishni to'xtatmay turib, uning ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir.

4§. Prokuratura

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari faoliyatini tartibga solish, prokuratura organlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi, shuningdek, ularning vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, 2001 yilda 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni¹ hamda boshqa qonun hujjatlarida huquqiy asoslari belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'y sunuvchi prokurorlar O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkam-

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 9-10, 168-modda.

lash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir.

Prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralikdir. Prokuratura organlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi hamda quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Prokuratura organlari o‘z faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiradi:

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga riyoa etilishi ustidan nazorat qilish;

- tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

- sndlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sndlarda fuqarolik ishlarini, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hamda xo‘jalik nizolarini ko‘rishda ishtirot etish, qonunlarga zid bo‘lgan sud hujjalariiga protest keltirish;

- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbazarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga etkazilgan iqtisodiy zarami qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida,

jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishtirok etish.

Prokuratura organlarining tizimi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;
- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
- O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;
- harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o'rindbosariga, o'rindbosarlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hamda uning o'rindbosarlarini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to'g'risidagi farmonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilarini va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo'limlaming boshliqlari, ularning o'rindbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar, alohida muhim ishlar bo'yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchilar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, shuningdek, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning vakolat muddati besh yil.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdordir.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

- qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to‘g‘risida muntazam ravishda;
- o‘ta og‘ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to‘g‘risida - zudlik bilan;
- prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to‘g‘risida har olti oyda axborot taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga o‘z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi huzurida Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etiladi. Departamentga lavozimiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosariga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Departament boshlig‘i rahbarlik qiladi.

Departament boshlig‘ining o‘rinbosarlari Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Hududiy boshqarmalarining boshliqlari va ulaming o‘rinbosarlari, Departamentning tuman va shahar bo‘limlari boshliqlari Departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muas-

sasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idolarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdar shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi.

Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rileyotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Prokuror sudlarda jinoyat ishlari ko'rileyotganda davlat ayblovini quvvatlaydi.

Prokuror sudda dalillami tekshirishda ishtirok etadi, qonunning qo'llanishi xususida o'z fikrini bildiradi.

Prokuror sud prosessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalanib, sudyalarning mustaqilligi hamda proses-sual qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etish prinsipiiga amal qilishi lozim.

Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlaridir.

Protest bu prokuror tomonidan chiqariladigan nazorat hujjati bo'lib, qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan organga yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdar shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi. Protest kelib tushgan vaqtidan boshlab o'n kunlik muddatdan kechiktirmay ko'rib chiqilishi shart. Qonunbuzarlikni darhol bartaraf etish talab qilingan alohida hollarda prokuror protestni ko'rib chiqishning qisqartirilgan muddatini belgilashga haqli. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Prokuror mansabdar shaxs yoki fuqaro tomonidan sodir etilgan qonun buzilishining xususiyatiga qarab jinoyat ishi, ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi. Prokuror qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qaror chiqaradi. Ma'muriy yoki intizomiy javobgarlik to'g'risidagi

ishni qo'zg'atish haqidagi prokurorning qarori kelib tushgan kundan boshlab o'n besh kun ichida vakolatli organ yoki mansabdar shaxs tomonidan ko'rib chiqilishi shart. Uni ko'rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.


Prokuror qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnomani qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdar shaxsga kiritadi. Taqdimnomada darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim.

Prokuror ariza bilan fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega. Prokuror arizasidan davlat boji olinmaydi.

Prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlari, zarar etkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lganda huquqbazarlikning oldini olish maqsadida mansabdar shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantiradi hamda huquqbazarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

Prokuratura organlarida prokurorlar va tergovchilar va lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega, zarur kasbiy fazilatlari bo'lgan, zimmalariga yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'ligi imkon beradigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga yigirma besh yoshdan kichik bo'Imagan shaxslar tayinlanadi. Prokuratura organlari xodimlari haq to'lanadigan boshqa biron-bor faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ular ilmiy, o'qituvchilik va ijodiy faoliyat bilan faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtida shug'ullanishi mumkin.

Prokuratura tizimi



5§. Milliy xavfsizlik xizmati

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida muhim o'r'in tutib, ular faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 25 avgustdag'i va 26 sentyabrdagi Farmonlari asosida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining faoliyati Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 2 noyabrdagi 278-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Milliy xavfsizlik xizmati va uning joylardagi organlari xorijiy davlatlar va xorijiy tashkilotlar maxsus xizmatlarining O'zbekistonga qarshi razvedka-qo'poruvchilik faoliyati bilan kurash olib boradilar, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini, Konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy butunligini, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va mudofaa qudratini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni amalga oshiradi.

Milliy xavfsizlik xizmati va uning joylardagi organlari o'zlarining amaliy faoliyatlarida mehnatkashlar bilan yaqindan aloqada bo'lishga, doimo ularning yordamiga suyanishga majburdirlar. Milliy xavfsizlik xizmatiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tayinlanadigan va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadigan Rais boshchilik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati amaldagi buyruqlar va ko'rsatmalarga muvofiq, agar ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lmasa, operativ-qidiruv va boshqa xil xizmat faoliyatlarini amalga oshiradi.

Milliy xavfsizlik xizmati Raisi va uning o'rinnbosarlari o'z huquqlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari Oliy Majlisning va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni bajarish maqsadida buyruqlar, ko'rsatmalar ia yo'riqnomalar chiqaradilar. Milliy xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi manfaatlari yo'lida razvedka va kontrrazvedka faoliyati bilan shug'ullanish va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati organlari:

Razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshiradilar; davlat xavfsizligi manfaatlariga daxldor bo'lgan terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradilar;

O'zbekiston Konstitutsiyasi va mustaqilligini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlaydilar;

Chet ellarda O'zbekiston Respublikasining diplomatik, savdo va boshqa rasmiy vakillarining xavfsizligini ta'minlaydilar;

Shuningdek, zarur bo'lgan hollarda Respublika fuqarolarining

chet elga jo'nab ketishida va u erda bo'lishida ularning xavfsizligini ta'minlashni tashkil etadilar. Respublika davlat chegarasining daxlsizligini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

O'zbekiston Prezidentini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini xavfsizlik manfaatlariga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan xabardor qilib turadilar; O'zbekiston Prezidentini, davlat hokimiyati va boshqaruvining yuqori organlarini xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy, mudofaa qurilishi va fan-teknika taraqqiyoti, tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq vazifalarni hal etish uchun ularni zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlash maqsadida axborot berish-tahlil qilish ishlarini amalga oshiradilar; xavfsizlik manfaatlariga daxldor bo'lgan ijtimoiy jarayonlarni va muammolarni tadqiq qiladilar va oldindan aytib beradilar. Xalq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarda davlat sirlarini saqlashga oid choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadilar, tijorat sirlarini saqlashda korxonalarga, muassasalarga va tashkilotlarga yordam ko'rsatadilar.

Xavfsizlik organlari ixtiyoriga o'tkazilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergov ishlarini olib boradilar, bunday jinoyatlarni sodir etgan yoki sodir etishda shubha qilinayotgan shaxslarni qidirishni amalga oshiradilar, jinoyat sodir qilgan shaxslarning hisobini yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston davlat hokimiyati va boshqaruvi yuqori organlarining qarori bo'yicha ichki ishlar organlari bilan birgalikda fuqarolarni himoya qilishda, transport va aloqa, aholi hayotini ta'minlash ob'ektlarini, muhim xalq xo'jaligi va harbiy ob'ektlarni qo'riqlashda, qonunchilikni va huquqiy tartibotni tiklashda, ormmaviy tartibsizliklarning, millatlararo nizolarning oldini olishda qatnashadilar.

Atom energetikasi ob'ektlaridagi, neft va gaz mahsulotlari quvurlaridagi, transportdagi, sanoatning mudofaa tarmoqlari va boshqa muhim xalq xo'jaligi ob'ektlaridagi yirik avariyalarning, halokatlarining va boshqa favqulodda hodisalarining oldini olishga oid tadbirlarni amalga oshirishda, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootik kasalliklar, ekologik halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarining oqibatlarini tugatishda qatnashadilar.

Maxsus yuklarni tashishning xavfsizligini ta'minlash yuzasi-

dan choralar ishlab chiqishda va amalga oshirishda boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikda qatnashadilar. Urush davrida milliy xavfsizlik organlari safarbarlik tadbirlarini ta'minlashda ishtirok etadilar. Milliy xavfsizlik xizmati organlari kadrlar bilan ishslash bo'yicha hamda o'z xavfsizliklarini ta'minlashga oid tadbirlarni va boshqa vazifalarni amalga oshiradilar.

Milliy xavfsizlik organlarining faoliyati qonuniylik, qonun oldida hammaning tengligi, shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, insonparvarlik va baynalminallik prinsiplari asosiga quriladi. Milliy xavfsizlik organlari o'z faoliyatlarini fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradilar.

6§. Ichki ishlar organlari

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 25 oktyabrdagi 270-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi haqidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Respublika Konstitutsiyasi va Respublika suvereniteti haqidagi Deklaratsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari milliy xavfsizlik, fuqarolar farovonligini ta'minlashda muhim o'rinn tutib, ular faoliyatini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 6-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlarini kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni¹ qabul qilinishi ularga bo'lgan e'tiborning namunasidir.

Mazkur qonunga ko'ra 25-oktyabr Ichki ishlar idoralari xodimlarini kuni, kasb bayrami deb belgilandi.

Ichki ishlar organlari xodimlari o'z huquqlari doirasida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilishni va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

¹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2006, №12, 651 modda.

- ichki ishlar organlari faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, uni muvofiqlashtirish, ularga tashkiliy-metodik yordam berish va ular faoliyatining samaradorligini ta'minlash;
- ichki ishlar organlari, ichki ishlar vazirligi korxonalarini, muassasalarini va tashkilotlari tizimining faoliyatida qonuniylikni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash ishlarini tashkil etish;
- fan va texnika yutuqlarini, ijobjiy tajribani, boshqaruvning progressiv shakllari va ish usullarini joriy etish;
- ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish;
- ichki ishlar organlarida kadrlar bilan ishlashning yuqori saviyada bo'lishini ta'minlash;
- ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy kafolatlashni ta'minlash;
- uyushgan jinoyatchilik va poraxo'rlikka qarshi kurash ishlarini ta'minlash.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi xodimlar o'z vazifalari va funksiyalarini amalgaoshirishda quyidagi princi plargaamal qiladi:

- kollegiallikni yakkaboshchilik bilan uyg'unlashtirish;
- qonunchilik, shaxsni hurmat qilish, baynalminalchilik;
- oshkoralik;
- davlat organlari, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari va aholi bilan birgalikda ish olib borish, jamoatchilik fikrini hisobga olish;
- ichki ishlar organlari xodimlarining milliy mansublik, til, o'troqlik belgilari bo'yicha huquqlarini cheklashga yo'l qo'ymaslik.

Ichki ishlar vazirligi faoliyatining huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining Qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlar, qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining normativ hujjatlari;
- Davlat hokimiyati va boshqaruvining markaziy va respublika organlari bilan ichki ishlar organlarining faoliyati sohasidagi o'zaro hamkorlik haqidagi bitimlar;

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining idoraviy normativ hujjatlari.

Ichki ishlar vazirligi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq:

- ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlikning oldini olish, kadrlar bilan ishlash va qonuniylikni mustahkamlash borasidagi ishlariغا umumiyo rahbarlik qiladi va bu ishlarni muvofiqlashtiradi, metodik jihatdan ta'minlaydi;

- jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash respublika dasturini tayyorlaydi va amalga oshiradi, mazkur yo'naliishlar bo'yicha umumittifoq dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirot etadi;

- huquq-tartibot masalalari yuzasidan respublika qonunchiligini ishlab chiqishda takliflar kiritadi va qtnashadi;

- o'z huquqi doirasida ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlaydi;

- ichki ishlar organlarida rejalahtirish, nazorat qilish va axborot-tahlil faoliyatining yagona tizimini belgilaydi, tashkil etadi va ta'minlaydi;

- respublika ma'lumotnoma-axborot fondlarini, operativ-qidiruv va kadrlarni hisobga olishni shakllantiradi, respublika kriminalistik hisobot-axborot tizimini tuzadi, ichki ishlar organlari faoliyati masalalari yuzasidan davlat statistika hisobotini olib boradi;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan transport ichki ishlar organlariga, ichki ishlar organlari o'quv yurtlariga rahbarlikni amalga oshiradi;

- jinoyatlar hamda jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarning o'z vaqtida oldini olish tadbirilarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, vazirlik, idoralar, muassasalar va tashkilotlarga jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi va boshqa huquq-tartibotni buzish hollarining sabablarini hamda ana shu xatti-harakatlarni sodir qilishga sabab bo'luvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi;

- operativ-qidiruv ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi; qonunchilik tomonidan ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan jinoyatlar haqidagi dastlabki so'roq va tergovni ta'minlaydi;

- tergov va suddan yashirinib yurgan ayblanuvchi, hukmni ijro etish va jazoni o'tashdan bo'yin tovlab yurgan jazoga tortilgan shaxslarni, bedarak yo'qolgan va qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirish ishlarini tashkil etadi;
- boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda bolalarning nazoratsiz qolishining oldini olish hamda balog'atga etmaganlar tomonidan huquq buzishlarga qarshi kurash ishlarini olib boradi;
- hibsga olinganlar va ushlanganlarni ko'riqlab va kuzatib borishni tashkil etishni ta'minlaydi; jazoga hukm etilganlar axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash ishlarini belgilangan tartibda tashkil etadi, qonun tomonidan belgilangan jazoni o'tash rejimiga qat'iy rioya qilinishini, jazoga hukm etilganlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, ular bilan siyosiy-tarbiyaviy ishlar olib borishni tashkil etadi, manfaatdor vazirliklar va muassasalar bilan birgalikda jazoga hukm etilganlarga umumiyligi ta'lim va hunar-texnika ta'limi berishni tashkil etadi va amalga oshiradi, sodir etilgan jinoyatning xarakteri va ijtimoiy xavfilingini, jazoga hukm etilganning shaxsiyati, shuningdek, uning xulq-atvori va mehnatga munosabatini hisobga olgan holda jazoga hukm etilganlar axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash vositalarini tanlashda yakka tartibda ish olib borishni ta'minlaydi, bunda pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar sohasida erishilgan yutulkardan keng foydalanadi;
- ozodlikdan mahrum etilgan joylardan bo'shatilgan shaxslarning ishga joylashishiga va turmushda o'z o'mini topishiga ko'maklashadi, ozodlikdan mahrum etilgan joylardan bo'shatilgan shaxslarni qonunchilikka muvofiq ma'muriy nazorat qilib turadi, shuning-dek, qonun tomonidan belgilangan hollarda shartli ravishda jazoga hukm etilgan va shartli ravishda jazoni o'tashdan ozod etilgan shaxslarni nazorat qilib boradi;
- respublika hududida pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlaydi, chegara qo'shinlari bilan birgalikda fuqarolarning chegara rejimi qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda chet elga chiqish va kelish uchun ruxsatnoma beradi, chet ellik va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida ular uchun belgilangan yashash va ko'chish qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilib boradi;

- respublikada davlat yong'in nazoratini amalga oshiradi, aholi yashaydigan joylar va xalq xo'jaligi ob'ektlarini yong'indan saqlashni ta'minlaydi, boshqa vazirliklar va idoralarning yong'indan saqlash bo'linmalari ishini nazorat qiladi va boshqaradi, respublika yong'indan saqlash tashkilotlarining birgalikda ish olib borish tartibini belgilaydi;
- shaharlarda va aholi yashaydigan boshqa joylarda yo'l harakatini va avtomobil yo'llarida qatnovni boshqarishni tashkil etadi, vazirliklar, idoralar va transport tashkilotlarining avtomototransport hamda shahar elektr transporti avariylarining oldini olish choratadbirlarini o'tkazishlarini nazorat qiladi; korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga tegishli avtomototransport vositalarini ro'yxatga oladi va hisobga olib boradi, shuningdek, ana shu transport vositalarining texnik ahvolini nazorat qilib turadi;
- ko'chalar, avtomobil yo'llari va ulardagi yo'l inshootlarining bexatar harakat qilishni ta'minlaydigan ahvolda bo'lishini nazorat qilib boradi, ulardan foydalanish sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini ko'radi, avtotransportdan foydalanish harakat xavfsizligiga tahdid solgan hollarda ko'chalar va avtomobil yo'llarining ayrim uchastkalarida avtotransport hamda piyodalar qatnovini belgilangan tartibda cheklaydi va taqiqlaydi;
- ichki ishlari organlari shaxsiy tarkibining kasb malakasini oshirish va intizomini mustahkamlash tadbirlarini amalga oshiradi, shaxsiy tarkib tomonidan ichki ishlari organlari faoliyatini reglamentlovchi xizmatni o'tash haqidagi nizomlar, ustavlar va yo'riqnomalar talablarining bajarilishini ta'minlaydi;
- belgilangan tartibda va o'z huquqlari doirasida ichki ishlari organlari shaxsiy tarkibiga maxsus unvonlar beradi, ichki ishlari organlariga ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda faol ko'maklashgan Vazirlik tizimining alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarini va fuqarolarni belgilangai tartibda ko'krakka taqiladigan nishonlar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlaydi, shuningdek, rag'batlantirishning boshqa turlarini qo'llaydi;
- o'z huquqi doirasida harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqarolar mudofaasi tadbirlarini amalga oshiradi, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlarning shartlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshiradi;

- xavfli yuklar, quroq-yarog'lar, harbiy texnika, harbiy mol-mulklar, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek, harbiy tarkiblar tranziti chog'ida qonunchilikka muvofiq xulosalar beradi va nazoratni amalga oshiradi.

Huquqni muhofaza qilish organlarining barcha tuzilmalari qonun hujjatlariga muvofiq ish ko'rishi lozim. Bugungi kunda butun insoniyatning katta muammolaridan biriga aylangan odam savdosiga qarshi kurash barcha huquqni muhofaza qilish organlari tuzilmalarining asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida bu xavfga qarshi kurashish bo'yicha maxsus komissiya tuzilib, belgilangan chora-tadbirlar asosida tegishli choralar ko'rilmoxda. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2008 yil 18 martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2008 yil 27 martda ma'qullanib 17-aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdag'i ishlarni yanada takomillashtirishga xizmat qildi. Mazkur qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar yoritib berilgan. Unga ko'ra odam savdosiga qarshi kurashish – odam savdosining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish, uning oqibatlarini minimallashtirish, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyatdir.

Odam savdosi – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlari yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish kabilar hisoblanadi. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fokishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi.

Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs - mustaqil ravishda yoki bir guruh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog'liq har qanday

harakatni sodir etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek, o‘z harakatlari bilan odam savdosiga ko‘maklashadigan, xuddi shuningdek, garchi o‘z mansab vakolatlariga ko‘ra to‘sinqlik qilishi va qarshi kurashishi shart bo‘lsa ham odam savdosiga to‘sinqlik qilmaydigan yoki qarshi kurashmaydigan mansabdor shaxs deb belgilangan.

Odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlariga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining diplomatikvakolatxonalar vakonsullikmuassasalari shuningdek, bu boradagi faoliyatni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi va boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Sud organlari va tizimi. O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyaviy sudi, Oliy sud, Oliy xo‘jalik sudi va harbiy sudlarning vazifalari. Advokatura organlari va ularning huquqiy maqomi. Inson huquqlarini ta‘minlashda advokatura institutini isloh qilishning huquqiy asoslari. Huquqni muhofaza qilish organlari tushunchasi. Prokuratura organlari, ularning vazifalari va tizimi. Milliy xavfsizlik xizmati faoliyatining huquqiy asoslari. Ichki ishlar organlari va ularning vazifalari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimini aytинг.
2. Advokatura faoliyatining huquqiy asoslarini bayon etинг.
3. Ichki ishlar organlarining vazifalarini aytинг.
4. Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida Milliy xavfsizlik xizmatining o‘rnini qanday?
5. Huquqni muhofaza qilishi organlari tushunchasini izohlang.
6. Prokuratura faoliyatining huquqiy asoslarini belgilovchi qonun hujjatlarini aytинг.

Test savollari

1) Quyidagilardan qaysi biri davlat apparati tizimiga kirmaydi?

- A) ijro etuvchi organ.
- B) qonun chiqaruvchi organ.
- C) siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolar-ning o'zini o'zi boshqarish organlari.
- E) prokuratura organlari.

2) Quyidagilarning qaysi biri huquqni muhofaza qiluvchi organlar tarkibiga kirmaydi?

- A) bojxona organlari.
- B) moliya vazirligi.
- D) milliy xavfsizlik xizmati organlari.
- E) ichki ishlar organlari.

3) Davlat apparati ta'rifi to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating?

- A) davlat organlari tizimi bo'lib, ular orqali davlat hokimiyati amalga oshiriladi.
- B) bu davlat organlarining majmui bo'lib, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.
- D) aholini ijtimoiy jihatdan muhofazasini amalga oshiruvchi organlar yig'indisi.
- E) inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan shug'ulanuvchi davlat organlarining majmui.

4) Quyidagi organlar orasidan umumiy vakolatlari organlarni belgilang?

- A) hukumat, parlament.
- B) Xalq ta'lim vazirligi.
- D) Ichki ishlar vazirligi.
- E) Davlat soliq qo'mitasi.

5) O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonuni nechanchi yilda qabul qilingan.

- A) 1996 yil 27 dekabrda.

- B) 1996 yil 18 noyabrdagi.
- D) 1995 yil 24 martda.
- E) 1997 yil 2 aprelda.

6) "Prokuror" so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlang.

- A) "g'amxo'rlik qilmoq".
- B) "qoralamoq".
- D) "yordam bermoq".
- E) "himoya qilmoq".

8) Maxsus vakolatli (kompetentsiyali) organni aniqlang?

- A) Parlament.
- B) Hukumat.
- D) Prezident.
- E) Davlat soliq qo'mitasi.

9) Qaysi davlat organi yakka tartibda boshqariladi?

- A) Hukumat.
- B) Parlament.
- D) Oliy sud.
- E) Prezident.

10) Jamoaviy (kollegial) tartibda boshqariladigan davlat organini ko'rsating?

- A) Prezident.
- B) Hokim.
- D) Vazirlik.
- E) Parlament.

11) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118- moddasiga ko'ra qonunning aniq bajarilishi ustidan nazoratni kim olib boradi?

- A) Adliya organlari mansabdor shaxslari.
- B) Sudyalar va Bosh prokuror.
- D) Bosh prokuror va unga bo'yсинувчи prokurorlar.
- E) Ichki ishlar organlarining mansabdor shaxslari.

- 12) Quyidagi "Davlat organi yoki mansabдор shaxsning yuridik hujjatlarda qayd etilgan hokimiyat vakolatlari mazmuni va hajmi" degan ta'rif qaysi tushunchaga taalluqli hisoblanadi?**
- A) kompetentsiya.
 - B) funksiya.
 - D) despotizm.
 - E) sanksiya.
- 13) O'zbekiston Respublikasida yagona solik tizimi amal qiladi, degan Konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning nechanchi bo'lim, bob va moddalarida aks ettirilgan?**
- A) Beshinchi bo'lim, XXV BOB, 123-moddasida.
 - B) Beshinchi bo'lim, XXV BOB, 122-moddasida.
 - D) Beshinchi bo'lim, XXV BOB, 120-moddasida.
 - E) Beshinchi bo'lim, XXV BOB, 119-moddasida.
- 14) O'zbekiston Respublikasida Milliy xavfsizlik xizmati raisi kim tomonidan tayinlanadi?**
- A) Prezident tomonidan.
 - B) Bosh vazir tomonidan.
 - D) Senat tomonidan.
 - E) Adliya vaziri tomonidan.
- 15) "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qachon qabul qilindi?**
- A) 2007 yil, 1-aprelda.
 - B) 2008 yil, 1-mayda.
 - D) 2009 yil, 1-sentyabrda.
 - E) 2006 yil, 1-dekabrda.

V Bo'lim. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquq asoslari

1 BOB. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, uning maqsad va vazifalari

1§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, uning maqsad va vazifalari

2§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi va unga o'zgartirish kiritish tartibi

1§.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, uning maqsad va vazifalari

Konstitutsiya xalqlaming orzu intilishlarini ifoda etuvchi, qolaversa, uning kuch-qudratini namoyon etuvchi ma'naviy istiqbol dasturi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etish sharoitida Konstitutsiyaviy bilimlarni talabalar tomonidan chuqur o'rganilishi ularning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish barobarida, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat asoslarini, milliy huquqiy tizimning ustuvor qoidalarini belgilovchi mukammal qomusiy hujjatdir. Prezident I.A. Karimov ta'biri bilan aytganda "har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Konstitutsiya xalqning siyosiy donoligi va tafakkuri mahsulidir"¹. Qayerdaki Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinsa, uning normalari bajarilsa, o'sha joyda tartib-intizom va osoyishtalik bo'ladi. O'zbekistonda yashovchi har bir fuqaro Konstitutsiya va qonunlarni chuqur o'rganishi, mazmun-mohiyatini anglab etishi, uning me'yorlariga amal qilishi lozim. Bularsiz huquqiy davlatni qurish haqida gap bo'lishi mumkin ham emas.

¹Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, maskura.T.I.T.: O'zbekiston. 1996.-124 b.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida qudratli davlat, adolatli jamiyat qurishga intilayotgan xalqimiz istiqbolining asosiy mezonlari mujassamlashgan. Shuning uchun u muqaddasdir. Konstitutsiya milliy davlatimiz, jamiyatimiz, barcha fuqarolarimizning burch va huquqlarini belgilab beradi. Eng asosiysi – u turli millat va elatlardan tarkib topgan xalqimiz tinch va totuv hayotining huquqiy asoslarini, inson huquqi, vijdon, diniy erkinligini ta’minlaydi.

Ta’kidlash lozimki, asosiy qomusimiz normalarida shaxs manfaati birinchi darajaga ko’tarilgan, fuqarolarga teng huquq va erkinliklar berilgan bo‘lib, ularning kafolatlari belgilab qo‘yilgan, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishlariga imkoniyat yaratuvchi qoidalar tizimi mustahkamlangan. Bular Konstitutsiyaning huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurishda to‘la ma’nodagi huquqiy asos bo‘la olishini yaqqol namoyon qiladi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi davlatchilik masalalarini, davlat tuzilmalari faoliyatini, hokimiyat masalalarini tartibga solish bilangina cheklanmaydi. Uning normalari ta’siri ancha keng bo‘lib jamiyatdagi boshqa ishtirokchilar, tuzilmalarga ham taalluqlidir. Ular davlat bilan fuqarolar munosabati, jamoat birlashmalari faoliyati, ularning davlat bilan munosabati asoslarini ham tartibga soladi. Shu bois Konstitutsiyani jamiyatimizning Asosiy qonuni— deb, aytamiz.

Konstitutsiyani chuqr o‘rganish kun tartibidagi masaladir. “Nima uchun uni o‘rganish kerak?” – degan savolga yurtboshimiz I.A.Karimov shunday javob bergen edi: “Ming afsuski, bu sir emas – ko‘pchiligidir konstitutsiyaning ma’no-mazmunini yaxshi bilmaymiz, uni sinchiklab o‘rganmaymiz. Vaholanki, agar Konstitutsiyamizning mohiyatiga kirib borsak, mag‘zini chaqsak, bugun oldimizda turgan ko‘pgina savollarga muhim muammolarni echishda javob topishimiz mumkin”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinin 2001 yil 4-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi aynan huquqiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, adolatli davlat va erkin jamiyat qurishga qaratilgandir. Zero, har bir fuqaroning ongida huquqiy madaniyatni shakllantirmasdan turib, qo‘yilgan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.

Eng avvalo mustaqil mulohaza qilish asosida milliy davlatchi-ligimizning huquqiy negizlari mohiyatini anglashni taqazo etadi. Maqsad demokratik jamiyat qurish va bunda barcha aholi qatlamlari manfaatlarini Konstitutsiya bo'yicha himoyalash har bir O'zbekiston fuqarosining muqaddas burchi ekanligini singdirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy, siyosiy va huquqiy mustaqilligining vujudga kelishi buyuk davlat qurishga intilayotgan mamlakatimizda demokratik huquqiy tamoyillarning mustahkmalanishiga, milliy qadriyatlarning qaytadan tiklanishiga huquqiy asoslar solindi.


1990 yil 20 iyunda qabul qilingan "Mustaqillik Deklaratsiyasi"ning 12-moddasi qoidalarida o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash, farovon hayot kechirishni ta'minlash O'zbekiston xalqining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etish, O'zbekiston davlat hokimiyati vakolatiga ichki va tashqi siyosatga tegishli barcha masalalar kirishi, O'zbekistonning qonun chiqaruvchi hokimi-yati O'zbekiston davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish hamda yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish uchun asosdir, deyilgan.

Mamlakatimiz rivojlanishining asosida Konstitutsiya va qonunlar ning ustunligini so'zsiz tan olish qoidalariga barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning itoat etishlarining majburiyligi O'zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasining 15-moddasida bayon etilgan. Shu sababli har bir O'zbekiston fuqarosi uning yoshidan, mansabidan qat'i nazar, davlatimizning Asosiy Qonuni Konstitutsiya qoidalarini bilishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining huquq tizimida Konstitutsiya muhim o'rinn tutadi. Konstitutsiya huquq tizimining birlamchi asosidir. U huquq tarmoqlari birligini, o'zaro muvofiqligini hamda harakatlanish prinsi plarining yagonaligini ta'minlaydi. Huquqiy davlat yaratish sari rivojlanib borayotgan davlatimizda qonun ustuvorligini ta'minlab borish muhim vazifalardan sanaladi. Konstitutsiyaning ustuvorligi esa har birimizdan ulkan huquqiy mas'uliyatni talab etadi. Ya'ni, bu mas'uliyat konstitutsiya va

qonunlarni bilishni, ularga amal qilib yashashni taqozo etadi. Bu Konstitutsiyani o'rganish zarurligini belgilaydi. Chunki uni o'rganish Konstitutsiya mazmunini ifodalovchi huquqiy qoidalar, ularga ongli ravishda amal qilib yashash va qonun ustuvorligiga erishishning muhim shartidir.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida »gi Farmoning maqsadi:



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eng avvalo inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi, kafolatlovchi va shu maqsadlarda uni himoyalovchi davlat hokimiyatining muayyan tizimini ta'sis etuvchi huquqiy normalar majmuasidir.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi Konstitutsiya ham o'z predmetiga ega. Uni bilib olish esa huquqiy tartibga solishning o'ziga xosligini aniqlash, demak, huquqning bu tarmog'i mundarijasi, vazifasi va maqsadlari haqida, uning boshqa tarmoqlardan farqi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish uchun zarurdir. Konstitutsiyaviy huquq predmetini belgilash muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu tarmoqda gap to'g'ridan-to'g'ri inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklari kafolatlari haqida boradi.

Zero, gap inson huquqi erki va burchi to'g'risida borar ekan, Konstitutsiya o'zining normalarida uni odilona echadigan va eng muhimmi ana shu huquq va erkinliklami ta'minlaydigan, qo'riqlaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o'ta murakkab masalani hal qiladi.

Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etish qonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatini, mustaqil sudni, mahalliy o'z-o'zini boshqaruvni o'matishni taqozo etadi. Konstitutsiya o'z normalarida inson va davlat o'tasidagi munosabatlarni tartibga solar ekan, u davlatning mohiyatini, shaklini ham belgilab beradi. Biz u yoki bu davlatning Konstitutsiyasiga qarab hokimiyatning maqsadi va mohiyatini aniqlashimiz mumkin.

Konstitutsiya birinchi navbatda davlat boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini o'matadi. Bunda u avvalambor uning asosiy prinsiplari, manbalari, ta'limotlari va qoyalari nimalardan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Bu o'rinda xalq hokimiyatining taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko'ppartiyaviylik, hurfikrlik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu prinsip va qoidalarga asosan Konstitutsiya davlat hokimiyatining tizimi va organlarini, ular o'tasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Bu o'rinda Konstitutsiya davlat hokimiyatining taqsimlanishi nazariyasini amalga oshirib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini o'zaro tiyib turish va muvozanatda tutish qoidasini ta'minlaydi.


Konstitutsiya normalaridagi yana eng muhim masalalardan biri inson va davlat o'tasidagi munosabat masalasidir. Bunda asosiy diqqat-e'tibor insonning erki, sog'lig'i, hayoti, mulki kabi huquqlarining ta'minlanganligi va kafolatlanishiga qaratiladi. Konstitutsiyada insonning tabiiy huquqlari, ya'ni yashash, mehnat qilish, kasb tanlash, mulkdor bo'lish hamda barchanening qonun oldida tengligi kabi huquqlarining muqaddasligi va daxlsizligi aniq belgilab qo'yiladi.

Konstitutsiyada ko'rildigan yana muhim masalalardan biri davlat va jamiyat o'tasidagi munosabat masalasidir. Albatta, davlat qonunlar orqali jamiyatda tartib o'matadi. U o'tish davrida asosiy islohotchilik vazifasini bajaradi. Bu davlat jamiyat ustidan hukmronlik qiladi, degan fikrni bildirmaydi. Davlat ham jamiyatning asosiy bir bo'g'ini sifatida amal qiladi. Jamiyat davlatdan ko'ra kengdir. Jamiyat davlat, nodavlat va joylarda o'zini o'zi boshqarish organlarini mujassamlashtirgan holda bir butun tarzda namoyon bo'ladi.

2§. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi va unga o'zgartirish kiritish tartibi

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. O'z ichki tuzilishi bilan Asosiy Qonun jahon Konstitutsiyaviy amaliyotiga to'la mos keladi. Uning mohiyati Konstitutsiyani xalq ya'ni davlatning haqiqiy sohibi qabul qilganligida va unda o'z irodasini ifoda etganligidadir.

Konstitutsianing asosiy mantiqiy yo'nalishi quyidagicha bo'lib, ya'ni inson, jamiyat, davlat munosabatlarni aks ettiradi. Birinchi bo'limda mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy konstitutsiyaviy prinsiplari ko'rsatilgan.




Birinchi bo'lim Konstitutsiyaviy tuzumning asosiy prinsiplari yig'indisidan iborat bo'lsa, ikkinchi bo'lim inson huquqlari to'g'risidagi o'zbek xartiyasidir. Boshqacha qilib aytganda, inson huquqlarining yaxlit va keng tizimidir. Inson huquqlari to'g'risidagi bo'limning davlat hokimiyati to'g'risidagi bo'limlaridan oldin berilganligi ham ma'lum bir mantiqqa asoslangan. Huquqlarni insonga davlat in'om qilmaydi, balki fuqaro o'ziga ozodlik tomonidan berilgan ajralmas tabiiy huquqlar majmuidan ongli ravishda va mas'uliyatni his etgan holda foydalanadi. "Jamiyat va shaxs" deb nomlangan uchinchi bo'lim odatdagidek emas, jahonning biron ta Konstitutsiyasida bunday bo'lim yo'q. Bu bo'limning asosiy maqsadi, fuqarolik jamiyatining an'analarini tiklash, ijtimoiy uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Mazkur bo'limning Konstitutsiyaga kiritilishini sababi nima, degan savol tug'iladi. Birinchidan, sovet tuzumi hukmronliik qilgan yillarda o'ta davlatlashtirish siyosatining natijasi o'laroq, jamiyatning barcha jabhalari davlat nazorati ostida edi. Ayni vaqtida davlat tushunchasi jamiyat tushunchasidan tor bo'lib, jamiyatning bir tarkibiy qismidir, xolos. Ikkinchidan, jamiyat institutlari bilan davlatning o'zaro munosabatlari avvalambor, Konstitutsiya darajasida belgilanmog'i darkor. Uchinchidan, davlat tarkibiga kirmagan jamiyatning iqtisodiy negizlari, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari o'zining Konstitutsiyaviy maqomini topgan.

Konstitutsianing to'rtinchi bo'limi ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalardan iborat ma'muriy-hududiy tuzilishiga egadir. Respublika tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiradi. Bu suveren davlatning Konstitutsiyaviy maqomiga va O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlariga maxsus 17-bob bag'ishlangan.


Beshinchi bo'lim davlat hokimiyati idoralarini tashkil etish haqidabo'lib, undahokimiyat vakolatlarini taqsimlash princi pi o'zining amaliy ifodasini topgan.



Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasining markazi idoralarri Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi, Prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati idoralarining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomi belgilab berilgan. Shuningdek, saylov o'tkazish qoidalari, moliya va kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalari kabilar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari asosida tartibga solingen.

So'nggi oltinchi bo'lim Konstitutsiyani o'zgartirish tartibiga bag'ishlangan bo'lib, huquqiy nuqtai nazardan Asosiy Qonunning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi uning, birinchidan, fuqarolar tinchligiga, ya'ni milliy va ijtimoiy totuvlikka, ikkinchidan, shaxs erkinligiga, uchinchidan siyosiy barqarorlikka, to'rtinchidan, farovonlik va iqtisodiy o'sishga, beshinchidan, davlatning odamlar oldidagi o'z burchini bajarishiga erishishga qaratilgan, keng jamoatchilikning fikriga tayangan.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, xalq manfaatlariga muvofiq tarzda yangi demokratik davlatning vujudga kelishi natijasida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan. Agar unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati tug'ilsa, bu masala keng jamoatchilikning fikriga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu haqda Konstitutsiyaning o'zida aniq me'yorlar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibining amalga oshirilishida Asosiy Qonunning 78-moddasi 1-bandida belgilangan qoidaga asosan bunday vakolatga faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ega ekanligi mustahkamlangan. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish quydagi tartibda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlari-ning kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi.

Bu jarayonlarga asoslangan takliflar, murojaatlar va xalqning to'liq fikrini o'rganilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy Majlis deputatlariga asoslantirilgandan keyin deputatlarning kamida 2/3 qismi ovozi bilan hal qilinadi. Bunda dastlab, Oliy Majlis yig'ilishida Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish zarurligini o'rganish uchun alohida komissiya tuziladi. Komissiya bunday takliflarni chiqur va har tomonlama o'rganib, qayta ko'rib, so'ng Oliy Majlisga taklif kiritadi. Konstitutsiyaning ayrim me'yordari ko'rib chiqilishiga mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlarning chuqurlashishi yoki oliy davlat hokimiyat organlari tuzilishini yanada takomillashtirish zaruriyati sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda tuzatishlar kiritish zaruriyatining paydo bo'lishi davlat va jamiyatning rivojlanishida davlat boshqaruvchi tizimini takomillashtirish borasidagi huquqiy islohotlarning amaliy natijasi hisoblanadi.

Tayanch so‘z va iboralar

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi.
O‘zbekiston Konstitutsiyasi va uning rivojlanish bosqichlari.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining mohiyati.
O‘zbekiston Konstitutsiyasining maqsad va vazifalari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishning dolzarbligi va ahamiyatini tushuntiring.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi va o‘zgartirish tartibini ayting.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o‘zigi xos xususiyatlari nimalardan iborat?

2 BOB. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati

- 1§. Konstitutsiya- davlatning Asosiy Qonuni**
- 2§. Konstitutsiyaviy huquqiy normalar tushunchasi**
- 3§. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yuridik xususiyatlari**

1§. Konstitutsiya- davlatning Asosiy Qonuni

Jamiyat va davlat qurilishining boshlang‘ich asosini, xalq ommasining erkini, irodasini o‘zida mujassamlashtirgan hujjat davlatning Asosiy Qonuni huquqshunoslikda Konstitutsiya deb yuritiladi. Konstitutsiya— muhim siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib, hokimiyat to‘g‘risidagi, shaxsning huquqiy holati haqidagi, davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi kabi masalalar uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati tufayli 1992 yili 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Erkinlik va

ozodlikni, mustaqillik va hurlikni tantanali tarzda o'zida namoyon etuvchi bu muqaddas huquqiy hujjat qabul qilingan qutlug' sanani xalqimiz umumxalq bayrami sifatida keng nishonlab kelmoqda. Mustaqillik Konstitutsiyasi jahoning siyosiy xaritasida yangi suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lganligini qonuniy tasdiqlab berdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xos mazmuni shundan iboratki, u o'zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlarini, g'arab demokratiyasining insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida jamiyatimiz barcha a'zolarining, shu jumladan yoshlarning manfaatlarini, ularning haq-huquqi va erkinliklarini to'la ifoda etadi. Chunki kelajagimiz bo'lgan yoshlarning davlatimiz har tomonlama qudratlidavlatga aylanishida faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning qobiliyati, is'tedodi, bilimiga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlarini e'tiborga olib, ilm olish, kasb, mashg'ulot turi va ish tanlash huquqini o'z ichiga oluvchi huquqlar majmui Konstitutsiyaviy qoidalarda mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990 yil 20 iyunda Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Konstitusiyani yaratish zarurati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Buning albatta o'z sabablari bor edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishining asosiy sabablari o'zbek xalqining ozodlik, erk va mustaqillik yo'lidagi intilishi, xalqning butun bor imkoniyati va salohiyatini ishga solish, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni demokratlashtirish, suveren davlatning huquqiy asoslarini yaratish, huquqiy nigelizm va o'zboshimchalikning oldini olish, o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini huquqiy jihatdan belgilash zaruriyati va boshqa omillar tashkil etadi.

Birinchi Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun mamlakatning ko'zga ko'rigan siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa mutaxassis olimlardan tarkib topgan 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash komissiyasining birinchi tashkiliy majlisi 1991 yil 12 aprelda Prezident Islom Karimov

raisligida o'tdi. Unda kelajagi buyuk davlatning Konstitutsiyasi "o'zbek xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni qayta tiklashi, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak" degan vazifa qo'yildi. Bu vazifa zamirida ushbu tamoyillarga javob bera oladigan xalqchil Asosiy Qonun yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi davlatimiz tarixida yangi burilish davri sahifasini ochib berdi. U jamiyatda tamomila yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizim qaror topishiga huquqiy poydevor sifatida dunyoga keldi. Uning qabul qilinishi qonunchilikdagi mustaqillik bo'ldi. **Konstitutsiya**- xalqning, millatning yuz-ko'zi, uning obro'-e'tibori va nufuzi timsoliga aylandi. Shu ma'noda Konstitutsiya o'zbek xalqi irodasi, erki, ruhiyati, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri va madaniyati mahsulidir. Chunki Konstitutsiya loyihasi ustida ikki yil davomida ishlaniib, u umumxalq muhokamasidan o'tdi. Umumxalq muhokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Xalqning fikrlari asosida Konstitutsiya loyihasi yanada boyitilib sayqal topdi.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tub mohiyatiga ko'ra yangi huquqiy hujjat bo'lib, unda inson manfaati ulug'lanadi. Insonning ajralmas huquq hamda erkinliklarining davlat huquqlaridan ustunligi tan olinadi va u davlat himoyasidadir.

Konstitutsiya xalqimizga xos bo'lgan xususiyatlar: mehr-oqibat, odob-axloq, odamiylik, o'zga millatlarga hurmat, aql-zakovatga intilish, iymon va e'tiqod, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarga asoslanadi.

Konstitutsiyada milliy xususiyatlar ham yorqin aks ettirilgan. Bu xususiyatlar: Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalarda milliy qonunchilik rivojlanishi uchun zamin yaratilganligi; tarixiy, etnografik, milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarimiz singdirilganligi; ma'naviy va madaniy tarixiy merosni asrash, oila qadriyatları va milliy ruhiy, demokratik, tabiat-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar inobatga olinishida namoyon bo'ladi.

Konstitutsiyada yana bir muhim xususiyat o'z ifodasini topgan. Bu davlatchiligidimizning tarixan tarkib topgan ilg'or tajribalaridan foydalaniyligidir. Tarixdan ma'lumki, biz yashayotgan Vatanimiz


hududida qonun ustuvorligi ta'minlanishi asosida ozodlik va mustaqillik buyuk sultanatlar hukm surgan davrlar bo'lgan. Xususan, Amir Temur davrini alohida ta'kidlash lozim. "Temur tuzuklari" shu davrning yorqin "Konstitutsiyasi" bo'lib, jamiyatda ustuvor ravishda amalda bo'lgan. Ana shu tajribalardan, hamda boshqa buyuk allomalar huquqiy merosidan foydalanilganligi Konstitutsiyaning mazmunini yanada boyitgan.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yakka hukmronlikka da'vo qiluvchi mafkuradan, zo'rlab tiqishtirilgan siyosatbozlikdan, siyosatlashuvdan, balandparvoz shiorlardan, sinfiylikdan va partiyaviylikdan holidir.

Konstitutsiya normalari

Quyidagilarni belgilab beradi :



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maqsadi, prinsiplari, asosiy qoidalari mazmun va mohiyati negizini belgilovchi ulug'vor g'oyalalar, uning Muqaddimasida to'la bayon etilgan. Konstitutsiya muqaddimasi juda ixcham va yuksak saviyali. Muqaddimada O'zbekistonning rivojlanish, yangilanish va taraqqiyot yo'li hamda yangi jamiyat va davlat qurilishining yo'nalishlari belgilab beriladi. Konstitutsiya g'oyalari o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Ulami hayotga tatbiq qilishga qodir bo'lgan kuch ham kerak. Bunday kuch jamiyat, davlat va insonning o'zidir. Asosiy Qonundagi insoniy, ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy-huquqiy g'oyalarni ro'yobga chiqarishda har bir inson va fuqaroning faol ishtirok etishi muhimdir. Shu bilan birga jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyat darajasi yuqori bo'lishi ham zaruriy sharlardan biridir. Shuning uchun har birimiz aql-zakovatimizni va bilim salohiyatimizni Konstitutsiyada mustahkamlangan yuksak g'oyalarni hayotda ro'yobga chiqarishga safarbar etishimiz lozim bo'ladi.

2§. Konstitutsiyaviy huquqiy normalar tushunchasi

Konstitutsiyaviy huquq mavjud huquq tiziminining asosiy sohasi hisoblanadi. Unda ham barcha huquq sohalariga tegishli bo'lgan belgilar bo'lsa-da, ulardan bir qator jihatlari bilan ajralib turadi.

Huquq sohalari bir-biridan tartibga soladigan predmeti bilan farqlanadi. **Konstitutsiyaviy huquq** - bu davlat tuzilishini mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisidir. Konstitutsiyaviy huquq normalari shaxsning huquqiy maqomi, jamiyatning ijtimoiy tuzumini, uning siyosiy tizimi, iqtisodiy negizi, tashqi siyosat asoslari, ma'muriy-huquqiy va davlat tuzilishini, davlat organlari tizimini mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaviy normalar xusisiyatları

Tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xosligiga ko'ra alohida alohida mazmunga ega

Alohida manbalarda belgilanganligiga ko'ra (Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlar va boshqa manbalarla)

Unda ifoda etilgan qoidalar umumtartibga solish, ta'sis etish va vazifalarni belgilash xarakteriga ega (qoidalar, prinsiplar, va boshqalar).

buyruq, ko'rsatmalarning ta'sis tavsifiga ega (o'zining barcha huquqiy tizimini harpo etish asosini belgilaydi)

Alohida amalga oshirish mexanizmiga ega (aniq bo'limgan huquqiy munosabatlar normalarini amalga oshirish ham mumkin)

Sub'ektlarning alohida tarkibi, kostitutsiyaviy munosabat ishtirokchilari (xalq, davlat va boshqalar) ga ega

Tuzilishining o'ziga xos xusisiyatlariga ega (sanksiyani nazarda tutmagan holda)

Bu ta’rifga muvofiq, qaysi huquqiy normalar o‘z mazmuniga ko‘ra Konstitutsiyaviy huquqqa tegishlimi yoki tegishli emas ekanligini aniqlash mumkin.

Agar huquqiy norma O‘zbekistonning ijtimoiy tuzumiga, fuqarolarning huquqiy holatiga aloqador bo‘lsa, ularning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilab bersa, demak bunday normalar Konstitutsiyaviy huquqiy normalar bo‘lib hisoblanadi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik Deklaratsiyasi” konstitut-siyaviy huquqiy normalar jumlasiga kiradi. Chunki unda O‘zbekistonning mustaqil demokratik davlat ekanligi, respublika hududining hamma tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligi, davlat hududida chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo‘yilmay turib, o‘zgartirilishi mumkin emasligi, respublikada davlat hokimiyatining uning hududidagi barcha tarkibiy va bo‘linmas qismlari ustidan amalga oshirilishi va shu hududlarda yashaydigan aholiga taalluqli ekanligi mustahkamlangan. Shuningdek, Deklaratsiyada O‘zbekiston o‘zining taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini belgilashi, davlat ramzlarini – gerb, bayroq, madhiyasini o‘zi ta’sis etishi belgilangan.

Agar huquqiy normada O‘zbekistonning davlat tuzilishi mustahkamlansa, O‘zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi belgilansa, bu normalar ham Konstitutsiyaviy huquq normalasi hisoblanadi.

Agar huquqiy norma O‘zbekistonning davlat organlari tizimini belgilasa, ularning tashkil etilishi vafaoliyat prinsiplarini mustahkamsa, davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlarining tizimini, ularning vakolatlarini belgilab bersa, bunday normalar Konstitutsiyaviy huquq normalari sifatida e’tirof etishga asoslar bo‘ladi.

Konstitutsiyaviy normalar bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar boshqa huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlardan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni tartibga solish qoidalari bilan tubdan farq qiladi.

Birinchidan, Konstitutsiyaviy huquq normalari boshqa huquq sohalari tomonidan tartibga solinadigan hamma huquqiy munosa-

batlarning o‘zagini tashkil qiladi, chunki aynan o‘sha huquq munosabatlarda davlat va jamiyatning tuzilish asoslari yotadi.

Ikkinchidan, bu normalar bilan o‘rnatilgan munosabatlarda xalq hokimiyatchiligini amalga oshirish shakllari belgilanadi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab, Konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidangina amalga oshiriladi, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo‘yiladi.

Uchinchidan, Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar davlat va jamiyat tuzilishini bir butun organizm sifatida ifodalaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda saylovlari to‘g‘risidagi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi, referendum to‘g‘risidagi qonunlarda belgilangan huquqlari orqali davlat organlarini tashkil etadilar.

To‘rtinchidan, Konstitutsiyaviy huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari ya’ni sub’ektlari maxsus doiraga ega bo‘lib, ular qatoriga O‘zbekiston xalqi, O‘zbekiston davlati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi. Bu munosabatlarning maxsus huquqiy shaklda mustahkamlanishini O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari Konstitutsiyalari tartibga soladi. Shunday qilib, Konstitutsiyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayotning hamma tomonlarini o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyaviy huquqiy normalar deb Konstitutsiyaviy huquqning predmetini tashkil qiluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalarga aytildi. Boshqa huquq normalari singari, ular ham davlat tomonidan chiqariladi, umummajburiy qoidalarni o‘rnatadi, davlat tomonidan himoya qilinadi va uning bajarilishi ta’milnandi, kafolatlanadi.

Konstitutsiyaviy huquq normalari boshqa huquq sohalaridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Avvalambor, ular o‘zlarining maqsad va vazifalari bilan ajralib turadi.

Hamma huquq normalari ma’lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Konstitutsiyaviy huquq normalarining asosiy

vazifasi esa davlat va jamiyat tuzumi asoslarini belgilash, xalq hokimiyatchiligi va davlat suverenitetini amalga oshirish mexanizmini mustahkamlashdir.

O'rganish va tatbiq etishga qulaylik nuqtai nazaridan Konstitutsiyaviy huquqiy normalar muayyan asoslarga ko'ra bir necha turlarga ajraladi.

Mazmuni, tuzilishi ya'ni tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasiga qarab huquqiy normalar quyidagicha bo'lishi mumkin:


1.O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini, xalq hokimiyatchiligini, siyosiy tizimi va iqtisodiy negizini, tashqi siyosat asoslarini mustahkamlovchi normalar. Masalan, "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida Referendum to'g'risida"gi qonunlar va boshqalar.

2.O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqiy holati asoslarini belgilovchi normalar. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar va boshqalar.


3.O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga aloqador normalar. Masalan, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi qonun.

4.Davlat hokimiyati organlari tizimiga aloqador normalar. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risidagi, Vazirlar Mahkamasi haqidagi, Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi, Prezident saylovi haqidagi, prokuratura va mahalliy davlat hokimiyati organlari, sudsalar haqidagi qonun hujjatlari.

Konstitutsiyalar o'zining yuridik shakli, yozilishi bo'yicha



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi



3§. O‘zbekiston Konstitutsiyasining yuridik xususiyatlari

Konstitutsiya— bu nafaqat asosiy qonun, shu bilan birga u muhim va alohida olingan huquqiy hujjat hamdir. Konstitutsiyaning ushbu xususiyati uni boshqa qonunlardan yaqqol ajratib turadi. Qonunning yuridik kuchi, odatda, o‘zidan kuchliroq bo‘lgan boshqa qonun bilan o‘lchanadi. Konstitutsiyaning yuridik kuchini aniqlovchi undan kuchliroq qonun yo‘q. U davlatning eng asosiy, oliv qonuni bo‘lib, o‘z kuchini o‘zi belgilaydi. Konstitutsiyaning yuridik manba sifatidagi ahamiyati aynan shunda ko‘rinib turadi.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo‘lib, uning muhim xususiyati shundaki, u davlat hayotining ma’lum bir tomonini, ijtimoiy munosabatlarning ma’lum bir tarmog‘ini emas, balki muayyan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini va davlat tuzumining eng muhim, eng asosiy tomonlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1. Konstitutsiyaviy huquq normalari Konstitutsiyaviy huquqnigina manbai bo‘lib qolmasdan, balki davlatda mavjud bo‘lgan barcha huquq tarmoqlarining jumladan, fuqarolik, ma’muriy, mehnat, jinoyat, moliya, soliq va boshqa huquq tarmoqlarining ham asosiy yuridik manbai hisoblanadi. Shu sababli Konstitutsiyaviy normalar ham bevosita, ham yuqorida sanab o‘tilgan huquq tarmoqlari orqali amal qiladi.

2.Oddiy qonunlarda Konstitutsiyaga xilof normalar uchrab qolsa, ularning amal qilishi to‘xtatiladi va ular qayta ko‘rib chiqilguncha, bevosita Konstitutsiyaviy normalar amalda bo‘ladi.

3. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan tuzilgan shartnoma va bitimlari ham Konstitutsiyaviy normalarga monand tarzda tuzilmog‘i lozim.

4. Davlat va uning organlari tomonidan qonunlarga asosan qabul qilinadigan boshqa huquqiy hujjatlar ham Konstitutsiyaga muvofiq tarzda qabul qilinmog‘i lozim.

5.O‘zbekiston davlat organlari, mansabdar shaxslari, jamoat birlashmalari Konstitutsiyada ko‘rsatilgan qoidalariga muvofiq ravishda ish ko‘radilar.

6.Konstitutsiyani aniq va og‘ishmay amalga oshirish har bir fuqaro hamda O‘zbekiston hududida doimiy va muvaqqat tarzda

yashab turgan barcha shaxslarning oliy burchidir.

7. Konstitutsiyani o'zgartirish yoki unga qo'shimchalar kiritish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Uni o'zgartirish faqatgina Konstitusiya qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ tomonidan, ya'ni respublika Oliy Majlisi tomonidan alohida amalga oshiriladi.

8. Konstitutsiya muhim dasturiy normalami ham o'zida mustahkamlab qo'yadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dasturiy maqsadlari uning muqaddima qismida va birinchi bo'limida:

O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariiga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishini ko'zlab O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi deb, mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimasida e'lon qilingan deklarativ normalar uning uzoqni ko'zlab o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ko'rsatib turadi. Davlat shu maqsad yo'lida Konstitutsiyaviy yo'l bilan harakat qiladi va kelajakda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab olg'a tilildi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi tomonidan 1992 yil 8 dekabrda qabul qilindi va kuchga kiritildi. Mazkur Konstitutsiya- erkin demokratik jamiyat tadrijiy rivojlanishi silsilasining huquqiy asoslarini e'tirof etgan va xalqning o'z taqdirini belgilashini o'zida mujassamlashtirgan ustuvor yuridik qoidalar majmuasi tarzida xizmat qilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar

Konstitutsiya- davlatning asosiy qonunidir. Konstitutsianing funksiyalari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsianing o'ziga xos xususiyatlari va asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuridik tabiat. O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni shakillantarishda Konstitutsianing o'rni . Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1."Konstitutsiya- davlatning asosiy qonunidir" tushunchasini izohlang.
2. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlarini aytинг.
- 3.O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy normalarning belgilari va o'ziga xos jihatlarini tushuntiring.

3-BOB. Mustaqil O'zbekistonning 1992 yilgi

Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari

1§. Davlat, millat va xalq suvereniteti tushunchalari va O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti sifatidagi davlat huquqiy belgilari va ramzları


2§. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirishning shart-sharoitlari

3§. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va O'zbekiston Respublikasida barcha qonunlarni va boshqa me'yoriy -huquqiy hujjalarni Konstitutsiya normalari asosida qabul qilinish shartlari


4§. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari

1§. Davlat, millat va xalq suvereniteti tushunchalari va O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti sifatidagi davlat huquqiy belgilari va ramzları

Davlat suvereniteti davlatning mustaqilligini bildiruvchi atama bo'lib, davlatning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi.



Davlatimiz suverenitetini quyidagi alomatlar bo'yicha aniqlash mumkin:



"*Suverenitet*" atamasi XVI asrda Fransiyada vujudga kelgan. Bu atama "*Suverenitet*" so'zidan kelib chiqib, aslida, oliy hokimiyat egasi degan ma'noni anglatadi. Suverenitet davlatning umumiy va ajralmas xususiyati bo'lib, uning to'la huquqliligini, ichki hamda tashqi funksiyalarini amalga oshirishda boshqa davlatlarga qaram emasligini ifodalaydi.

Suveren davlat o'z ichki va tashqi vazifalarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek xalqaro huquq tamoyillari va me'yorlarini buzmagan holda, o'zi xohlagancha hal qiladi.

Suverenitet davlatga xos tushuncha bo'lib, u bilan birga vujudga keladi. Davlat va uning xususiyati bo'lgan suverenitet tarixiy hodisadir. Millatlarning o'z taqdirini o'zlarini belgilash huquqi, ya'ni o'z taqdirini chet davlatlarning aralashuvisiz belgilash huquqi suverenitetning asosini tashkil etadi.

Hozirgi sharoitda davlat suvereniteti tamoyillari xalqaro hamkorlikning eng muhim masalasiidir. Er yuzidagi barcha mamlatklar o'zaro manosabatlarning teng huquqlilik, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, boshqa davlatlarga hujum qilmaslik va ularning hududiy butunligiga daxl qilmaslik, shuningdek suvereniteti va milliy mustaqilligini to'la hurmat qilish tamoyillariga asoslangan bo'lishi uchun kurashmoqda.

O'zbekiston davlatining mustaqilligi, davlat suvereniteti O'zbekiston Konstitutsiyasining birinchi muddasidayoq qonuniy mustahkamlangan.

O'zbekiston suveren demokratik respublika. Konstitutsiyada belgilanishicha, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.



Suverenitet - har qanday davlatning eng muhim, ajralmas belgilaridan biridir. Davlatning belgilovchi alomatlaridan biri uning davlat suvereniteti sanaladi. 1990 yili 20 iyunda "O'zbekiston Respublikasi suvereniteti to'g'risida deklarasiya" qabul qilingan, unda respublika davlat suverenitetining asosiy prinsi plari mustahkamlab qabul qilingan.

- davlat hududi hamda chegaralarning daxlsizligi va bo'linmasligi.

- mustaqil ichki va tashqi siyosat;
- xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini e'tirof etish va hurmat qilish;

- o'z taraqqiyot yo'lini, davlat ramzlarini tanlashdagi mustaqillik va b. 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilingan. Ana shu sessiyada "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan.

Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan sana 1992 yil 8 dekabrga qadar Asosiy qonun rolini bajardi.

Har qanday mustaqil davlat singari O'zbekiston Respublikasi ham o'z oliv davlat hokimiyati tomonidan belgilangan va Asosiy Qonunda mustahkamlangan davlat ramzları - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega: Davlat ramzlarining mayjudligi O'zbekistonning amalda mustaqilligi va erkinligini yaqqol tasdiqlaydi. Binobarin, O'zbekiston Konstitutsiyasining 5-moddasida "O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzları - bayrog'i, gerbi, va madhiyasiga ega", deb mustahkamlangan.

Bayroqdagi havo rang bo'yoq- zangori osmon va musaffo suvning, shuningdek, er va osmondagи hayot manbalarining ramzi.

Oq rang-tinchlik va poklik, yosh mustaqil davlatimiz oshib o'tishi lozim bo'lgan dovondagi yo'lning yorqin va charog'on bo'lishi uchun ezgu niyat timsoli.

Bayroqning qizil rangdagi yo'llari har bir tirik jon tomirida jo'shib turgan hayotiy kuchning, barhayotlikning ramzidir.

Yashil rang-tabiatning timsoli, gurkirab yashnayotgan hayot va hosildorlikning ramzi.

Bayroqdagi yarim oy o'zbek xalqining ko'p yillik an'analariga muvofiq keladi. Chunonchi, yarim oy va yulduzlar musaffo osmonning, tinchlikning ramzidir. 12 raqami qadimdan xalqimiz uchun mukammallik timsoli bo'lib kelgan. Shu boisdan ham bayrog'imizga 12 yulduzning tasviri tushirilgan.


Davlat bayrog'i bizning ko'hna o'tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimizning ramzidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi 1992 yil 2 iyulda Respublika Oliy Kengashining sessiyasida tasdiqlangan. Gerbimiz markazida qanotlarini keng yoyib turgan *Humo qushi* tasvirlangan. Bu-baxt, saodat va erksevarlik ramzidir. Gerbning yuqori qismida O'zbekistonning *sobit* va *barqarorligi* ramzi bo'lgan sakkiz qirrali *yulduz* tasvirlangan bo'lib, uning ichida *yarim oy* va *besh qirrali yulduz* ifodalangan.

Quyosh tasviri- o'zbek davlati va xalqining hayot yo'li hamisha nurli bo'lishi uchun bildirilgan ezgu niyat ramzi. *Gerbдagi boshqoqlar* - rizq-ro'zimiz bo'l mish g'allaning, oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g'o'za shoxlari serquyosh O'zbekiston boyligining timsolidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i doimiy ravishda quyidaqи binolarda bo'ladi

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи binosida
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni binosida
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи binosida
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi binosida
- O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyyati binosida
- Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari binosida



Madhiya matnida O'zbekistonning go'zal tabiatini, uning serquyosh o'lka ekanligi, elga baxti, do'stlarga yo'ldosh va mehribonligi, xalqsevarligi singari o'lkarizga shon-shuhrat keltiradigan qadriyatlar tarannum etilgan. O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahridir. Har bir davlat o'z poytaxtiga ega bo'ladi. Poytaxt shahar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Unda davlat idoralari va jamoat birlashmalarining markaziy idoralari, davlat boshlig'ining qarorgohi, chet eldiplomatik vakolatxonalar joylashadi, davlatning asosiy siyosiy va iqtisodiy tadbirlari amalga oshiriladi.

Davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida davlat madhiyasi ijro etiladi.

→ O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan umumxalq bayramlariga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majlislarning ochilishi hamda yopilishi vaqtida

→ Yangi yil kechasi Toshkent vaqt bilan 24 da respublika televideniesi va respublika radiosi orqali, teledideniy orqali- dasturlari boshlanishi, respublika ichki radioeshittirishlar orqali dasturlarning boshlanishi va tugallanishi oldidan:

→ Respublikadagi muhim tarixiy voqyalarni nishonlash yuzasidan, atoqli siyosiy, davlat va harbiy arboblar, xalq qahramonlari, fan, adabiyot va san'at arboblari sharafiga o'matilgan haykallar, shuningdek monumentlar, yodgorliklar va boshqa inshootlarning ochilishi vaqtida

→ Davlat idoralari, korxonalar, muassasalar va jamoat birlashmalari tomonidan o'tkaziladigan marosimlar va boshqa tantanali tadbirlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini ko'tarish chogida

→ Rasmiy safar bilan O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy mamlakatlarning davlat boshliqlari va hukumat boshliqlarini kutib olish va kuzatish baqtida-tegishli xorijiy daylatning Davlat madhiyasi ijro qilib bo'lingandan keyin ijro etiladi

2§. O'zbekiston Respublikasida xalq hokimiyatchiligi va uni amalga oshirishning shart-sharoitlari

Ma'lumki, Konstitutsiya Konstitutsiyaviy tuzumming asosiy shartlaridan biri bo'lmish xalq hokimiyatchiligini mustahkamlab beradi. "Xalq hokimiyatchiligi" atamasi yunoncha "demokratiya" so'zining aynan tarjimasidir. Ilk bor yunon shahar davlatida paydo bo'lgan bu so'z butun dunyoga tarqalgan va siyosiy lug'atdan mustahkam o'rinn olgan.

Jahondagi demokratik davlatlarning Konstitutsiyalari "butun hokimiyat xalqqa tegishli" yoki "butun hokimiyat xalq tomonidan amalga oshiriladi", degan tushunchani o'zida mujassamlashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bobida "xalq hokimiyatchiligi" atamasi "hokimiyat manbai" degan atama bilan uzviy bog'langan.

Demokratiyaning asl mohiyati o'z-o'zini boshqarish, o'z hayotini o'z qobiliyatiga, o'z tafakkuriga va o'z vijdoniga ko'ra qurishdir va buning oqibati uchun mas'uliyatni ham o'ziga olishdir.



O'zbekiston davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalq bo'lib, davlat xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlari xizmat qiladi. Davlat siyosatini xalqning xohish-irodasi belgilab beradi. Mazkur siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekistondagi barcha fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Konstitutsianing 8-moddasida qayd etilgan qoida jahondagi hech bir Konstitutsiyada uchramaydi. Unda "O'zbekiston xalqi" tushunchasiga Konstitutsiya darajasida ta'rif berilgan. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida istiqomat va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy va irqiyo mansubligidan, e'tiqodidan qat'i nazar, respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir.

O'zbekiston fuqarolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlardan qat'i nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Konstitutsiya O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf-odatlari va milliy an'analari hurmat qilinishini kafolatlaydi."Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiyo ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi", -deyiladi, Konstitutsianing 9-moddasida.




Insoniyat tajribasi demokratiyaning ikki shaklini ishlab chiq-qan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita demokratiya hamda vakillik demokratiyasi-organlar, avvalambor, vakillik va boshqa saylab qo‘yiladigan organlar orqali amalga oshiriladigan demokratiya, ya’ni saylov demokratiyasi. Demokratiyaning mazkur shakllarini bir-biriga qarshi qo‘ymaslik lozim, chunki bu ikkala shakl o‘ziga xos ahamiyatga ega va o‘zaro uzviy bog‘liqidir.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya — insonning davlat ishlarini hal qilishda yashirin ovoz berish orqali yoki boshqa shaklda bevosita ishtirok etishidir. Vakillik demokratiyasi deb insonning davlat ishlarini hal etishda o‘zi saylagan vakillari, ya’ni deputatlar orqali ishtirok etishiga aytildi.

Bevosita demokratiya (asosiy qarorlar barcha fuqarolar tomonidan referendum, yig‘in kabilarda qabul qilinadi) va bilvosita demokratiya (qarorlar saylab qo‘yiladigan muassasalar — parlamentlar va boshqalar tomonidan qabul qilinadi) farqlanadi. Demokratiya institatlari huquqiy davlatda to‘la rivojlanadi.

Darhaqiqat, biz demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to‘g‘ridan- to‘g‘ri o‘zlari xohlagan nomzodlariga yoki partiyalarga ovoz berishlarida ko‘rishimiz mumkin.



Referendum o'tkazish tartibi 1991 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solina boshlandi. 2001 yil 29 avgustda "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida" (yangi tahrirdagi) qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarning taqsimlanishi prinsi pi negizida amalga oshirilishi ko'rsatilgan. O'zbekistonda adolatlvi huquqiy-demokratik davlatga xos tamoyillar Konstitutsiyaviy yo'l bilan mustahkamlangan. Ana shunday tamoyillar sifatida ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari Konstitutsiyamizda quyidagicha ifodalangan:

14-modda. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasida o'rnatilgan me'yor davlatimiz faoliyatining eng asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Bu juda muhimdir. Chunki davlat o'z faoliyati bilan inson va jamiyat taqdirini belgilashi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtida jamiyat davlatsiz yashay olmasligi hammaga ayon bo'lib qoldi.

Demak, Konstitutsiya bo'yicha davlat o'z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida yuritadi. Bu esa uning demokratik mohiyatini namoyon qiladi. Davlat o'z faoliyatini insonlar va butun jamiyatning porloq kelajagini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirmoqda. Shu poydevor ustida respublikamizda yangi huquqiy davlat qurilmoqda. Unda qonunga bo'ysunish va barqarorlik taraqqiyotning asosiy sharti bo'ladi.


3§. Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipi tushunchasi va O'zbekiston Respublikasida barcha qonunlarni va boshqa me'yoriy -huquqiy hujjatlarni Konstitutsiya normalari asosida qabul qilinish shartlari

Konstitutsiya va qonunlar davlatchilikning eng muhim belgilariidan hisoblanadi. Shu bois O'zbekistonda yangi davlat qurilishi davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini, inson va fuqaro huquqlari ustuvorligiga rioya qilish mexanizmlarini belgilab beruvchi uning huquqiy asoslarini va qonunchilik poydevorini


yaratishdan boshlanadi. Konsitutsiya va qonunning ustunligi uni ijtimoiy hayotga tatbiq etishning eng muhim shartidir. Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlab o‘tganidek: “Qonun ustuvorligi bizning islohotlar modelimizdagi etakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk bobomiz Amir Temur ”Qonun hukmon

Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq



Konstitutsiya normalari va qoidalariga



bo‘lgan joyda erkinlik ham bo‘ladi”, degan dono so‘zлarni oltin harflar bilan yozib qo‘yishga amr bergan edi”¹.


Qonuniylik bu davlat tomonidan qonunlar tizimini jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga qat’iy rioya etish va ularni og‘ishmay amalga oshirishda namoyon bo‘ladigan davlat va jamiyat hayotining princi pidir. Qonuniylik prinsi pi qonunlarning hamma uchun istisnosiz majburiyligini, hammaning qonun oldida tengligini, qonunlarning hamma erda bir xilda joriy qilinishini ham anglatadi.

Asosiy Qonunimizning 16-moddasida mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasi huquq manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligi belgilangan.

Birota ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Chunki Konstitutsiya davlatimizning Asosiy Qonuni bo‘lib, u oliv yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatidir, Konstitutsiya huquqning hamma tarmoqlari: fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma’muriy huquq va hokazolar uchun qonunchilik bazasi bo‘lib hisoblanadi. Davlat organlarining barcha qonunlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlari Konstitutsiya asosida chiqariladi va uning qoidalariga xilof bo‘lmasligi lozim.

Asosiy qonunimizga binoan O‘zbekiston tarixida birinchi marta Konstitutsiya maxsus tarzda muhofaza qilinadigan bo‘ldi. Ya’ni shu maqsadda Konstitutsiyaviy sud joriy qilindi.



¹ Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: «O‘zbekiston», 1998 yil,-642b.

4§. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida o‘zining qonuniy aksini topgan. Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro ishlari dagi umumiy yo‘nalishini o‘z ichiga oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarini o‘z ichiga oluvchi maqsad va vositalarini qamrab oladi.

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan suveren tenglik prinsipi davlatlarning o‘zigaxosligini, mustaqillikni hurmat qilishni, huquq va erkinliklarni kafolatlashni, o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlashni, mustaqil ravishda o‘zining qonunlari va ma’muriy qoidalarini o‘matishni bildiradi.

2.Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslikning Konstitutsiyaviy prinsipi boshqa davlatga nisbatan bevositayoki bilvosita ravishda kuch ishlatishga qaratilgan turli harakatlardan o‘zlarini tiyishlarini bildiradi.

3.Chegaralarning daxlsizligi prinsipi barchadavlatlarning hududiy ustunligi va hududiy yaxlitligini xurmat qilishni bildiradi. Ular har qanday davlatning butun hududi yoki hududining bir qismini bosib olish yoxud zo‘rlik bilan egallahsga qaratilgan har qanday talablar va harakatlardan o‘zlarini tiyib turish majburiyatini oladilar.

4.O‘zbekiston Respublikasida belgilab qo‘yligan nizolami tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi shuni nazardatutadiki, barcha nizoli masalalar faqat tinch yo‘l bilan va xalqaro huquqqa mos ravishda, ya’ni xalqlarning qonuniy manfaatlari, tinchligi va xavfsizligini xavf ostida qoldirmasdan hal qilinishi kerak.

5.O‘zbekiston tashqi siyosatining boshqa davlatlar va xalqlarning ichki ishlariiga aralashmaslik to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy prinsipi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsipiiga asoslanadi.

6.Bu prinsiplarning umuman tan olinishi, davlatlar o‘zaro munosabatlaridan qat’i nazar, boshqa davlatning ichki vakolatiga kiradigan ichki va tashqi ishlarga har qanday aralashishdan (xoh u bevosita yoki bilvosita bo‘lsin, yakka yoki jamoa tarzida bo‘lsin)

o'zlarini tiyib turish to'g'risida kelishib olganligini anglatadi. Ta'kidlash joizki, xalqaro huquqda aralashmaslik prinsipi— boshqa davlatning tuzumini kuch bilan ag'darib tashlashga qaratilgan terroristik, qo'poruvchilik yoki boshqa faoliyatga bevosita yoxud bilvosita yordamdan o'zini tiyib turishni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yuqorida ko'rib chiqilgan beshta Konstitutsiyaviy prinsipni aniq belgilab qo'yilgan.

Tashqi aloqa va investitsiyalar sohasida quyidagi qonun hujjatlari qabul qilindi



«O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi qonun



«O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'qrisida»gi qonun



«O'zbekiston Respublikasining Diplomatik xodimlari uchun Diplomatiya darajalarini va martabalarini belgilash to'g'risida»gi qonun



«Chet el investitsiyalari to'g'risida »gi qonun



«Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralarini to'g'risida»gi qonun



«Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida»gi qonun



«O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavini tasdiqlash to'g'risida»gi qonun

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari

Davlatlarning suveren tengligi

Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik

Chegaralarning daxlsizligi

Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish

Boshga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik

Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa
prinsiplari

Tayanch so'z va iboralar

Suverenitet tushunchasi. Davlat, millat va xalq suvereniteti. O'zbekistonning davlat ramzları. Xalq hokimiyatchiligi. Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsi pi. Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi. Qonuniylik prinsi pi. O'zbekistonning tashqi siyosati.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Xalq hokimiyatchiligi va uning konstitutsiyadagi ifodasini izohlang.
- 2.Huquqiy davlatning belgilarini ayting.
- 3.O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy prinsiplarini tushuntiring.

4 BOB. O'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari hamda burchlari


1§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi

2§. Fuqarolarning shaxsiy, siesiy va iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari

3§. Huquq va erkinliklarning kafolatlari

1§. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlat bilan mustahkam, uzviy huquqiy munosabatlarini anglatuvchi tushunchadir. Ushbu munosabatlar Konstitutsiya va qonunlar asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra davlat va shaxs o'zaro ma'lum huquq hamda majburiyatlarni o'z zimmalariga oladi. Davlat va shaxsning o'zaro manfaatlaridan kelib chiquvchi ushbu munosabat bir tomonidan ittifoq xarakteriga ega, ikkinchidan zaruriy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, har tomonning ham manfaatlarini qamrab oladi.




Shaxsning fuqarolik holati davlat tomonidan alohida hujjat (pasport yoki guvohnoma) bilan belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida
respublika fugaroligining huquqiy asoslari belgilangan.

Fuqarolik – bu shaxs bilan davlatning barqaror va doimiy siyosiy-huquqiy munosabati bo'lib, ularning o'zaro huquqlari, burchlari va javobgarliklarini ifodalaydi. Bunday aloqalar inson va fuqarolar qadr - qimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini tanolish va hurmatlashga asoslanadi.

Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatadi. Bu birinchidan, davlatning yagonaligi, mustahkamligi va yaxlitligini; ikkinchidan, barcha fuqarolar, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolari bir xil siyosiy-



huquqiy maqomga egaligi, qonun oldida teng va huquqiy munosabatlarning to'laqonli sub'ekti ekanligini; uchinchidan, respublikaning butun hududida O'zbekiston fuqarolari manfaatlarining davlat tomonidan huquqiy muhofaza qilinishini bildiradi. O'zbekiston fuqarolariiga berilgan imtiyoz va afzalliklar qonun hujjatlari bilan belgilanib, ular ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Oliy Kengashi 1992 yil 2 iyulda "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Ushbu qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik, fuqarolikka olish, uni to'xtatish, ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda bolalarning fuqaroligini aniqlash kabi O'zbekiston fuqaroligiga doir masalalar ko'rsatilgan. Masalan, ushbu qonunga asosan, quyidagi shaxslar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'ladilar;

1) ushbu qonun kuchga kirgan vaqtida O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarosi bo'limgan hamda O'zbekiston fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar;

2) O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan tug'ilganlar;

3) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilgan shaxslar;

4) O'zbekistonning xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha fuqarolikni olganlar;

5) Davlat yo'llanmasi bilan O'zbekistondan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular O'zbekistonda tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlat fuqarosi bo'lmalar va ushbu qonun kuchga kirgandan keyin kechi bilan bir yil ichida O'zbekiston fuqarosi bo'lish istagini bildirsalar.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra, kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan amalga oshiradi. Hujjatlarni Ichki ishlar vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi rasmiylashtiradi.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi

fuqaroligining to'xtalishi asoslari ham ko'rsatilgan. Bunday holat shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi oqibatida, fuqaroligini yo'qotishi oqibatida va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga va ushbu qonunda ko'zda tutilgan boshqa asoslarga binoan to'xtatiladi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining to'xtalishi Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqaroligining ham to'xtalishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonunda fuqarolikdan chiqish masalalari ham ifodasini topgan. Unga asosan, belgilangan tartibda, shaxsga, uning iltimosiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishga ruxsat etiladi. Agar O'zbekiston fuqaroligidan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs davlat oldidagi majburiyatlarini yoki fuqarolarning yoxud davlat va jamoat tashkilotlarining muhim manfaatlari bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni bajarmagan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishi rad etilishi mumkin.

Shu bilan birga, fuqarolikdan chiqishni iltimos qiluvchi shaxs ayblanuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortilgan yoxud unga nisbatan qonuniy kuchga kirgan va ijro etilishi zarur bo'lgan sud hukmi bo'lsa yoki shaxsning fuqarolikdan chiqishi O'zbekiston Respublikasi davlat xavfsizligi manfaatlariiga zid bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolik to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish asoslari ham ko'rsatib qo'yilgan. O'zbekiston fuqaroligini yo'qotishga quyidagilar sabab bo'ladi;

1) shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati idoralariga, polisiyaga, adliya idoralariga yoki davlat hokimiyati va boshqaruving boshqa idoralariga ishga kirganligi aniqlansa;

2) agar chet elda doimiy yashovchi shaxs besh yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmagan bo'lsa;

3) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shakshubhasiz bo'lgan ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

Shu sabablar bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi yo'qotiladi (21-modda).

Fuqaroligi bo‘limgan shaxsning huquqiy ta’rifi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risidagi qonunning 11-moddasida berilgan; “O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘limgan chet el davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘limgan shaxslar fuqaroligi bo‘limgan shaxslar deb hisoblanadi”.

Chet el fuqaroliri ikki toifaga bo‘linadilar; O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy istiqomat qiluvchilar va vaqtincha yashab turuvchilar. Bu ikki toifaga mansub bo‘lgan chet ellik fuqarolarning huquqiy holatida ayrim farqlar bor.

Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning huquqiy holati, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnomalari va boshqa xalqaro huquq normalari asosida belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan huquqlar va erkinliklar xususan, shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqa huquqlardan foydalanadilar shuningdek, o‘zlarini himoya qilish uchun sud organlariga murojaat qila oladilar. Ayni paytda, ular O‘zbekiston fuqarolari bilan bir xil majburiyatlarni o‘taydilar.

Qonunchilikda O‘zbekistondagi chet elliklarning bunday farqlanishi amaliy ahamiyatga ega. O‘zbekistonda doimiy yashovchi chet elliklar toifasiga ichki ishlar organlari tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnomalar yoki yashash uchun guvohnoma olgan shaxslar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risidagi ishlarni yurituvchi davlat organlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi ning Diplomatik vakolatxonalarini va
konsullik muassasalarini

O‘zbekiston Respublikasi Tadshqi ishlar vazirligi

O'zbekistondagi chet ellik fuqarolarga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir qatorda, vijdon erkinligi, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi hamda boshqa shaxsiy huquqlar kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga shunday keng huquq va erkinliklar berilishi va kafolatlanishi bilan bir qatorda, ulardan O'zbekiston qonunlarini hurmat qilish va ularga amal qilish talab qilinadi.

Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston hududida qilgan jinoiy, ma'muriy va boshqa huquqbazarlik ishlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bir xil asosda javob beradilar. Ular O'zbekiston hududida jinoyat qilsalar, O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan jinoiy javobgarlikka tortiladilar. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turuvchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning ayrim huquqlari cheklab qo'yiladi. Jumladan, ular respublikadagi vakillik organlari sayloviga ishtirok eta olmaydilar, ularga saylana olmaydilar; umumxalq ovoz berishi (referendum)da qatnashish huquqiga ega emaslar. Chet ellik fuqarolar ayrim lavozimlami egallashlari va mehnat faoliyatining qonunda man etilgan ba'zi turlari bilan shug'ullanishlari, masalan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida, milliy xavfsizlik xizmatida, ichki ishlar organlarida ishlashlari mumkin emas. Bundan tashqari, chet el fuqarolarini yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslarni O'zbekiston hududida yashash joyini tanlash va ko'chib yurish huquqlari bir muncha cheklangan. Bunday cheklash davlatning milliy xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, aholining sog'lig'i va axloqi, boshqa fuqarolarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish zarurati bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi xorijiy shaxslarga, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga ularning shaxsini va yashash huquqlarini bildiradigan maxsus hujjatlar-guvohnomalar beriladi. Bunday hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 1994 yil 23 dekabrda Farmoni tasdiqlangan "Xorijiy shaxslarga, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasida yashash uchun guvohnoma va fuqaroligi bo'limgan shaxs guvohnomasi to'g'risidagi nizom" asosida beriladi.


O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik to'g'risidagi ishlarni yurituvchi davlat idoralari va ularning vakolatlari belgilab qo'yilgan.

2§. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari

Asosiy qonunimizning ikkinchi bo'limi juda muhim masala inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan.

O'zbekiston fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida o'z aksini topgan. Unga asosan, O'zbekistonda inson va fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlarini quyidagi-cha tasniflash mumkin:

- 1) shaxsiy huquq va erkinliklar (VII) bob;
- 2) fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlari (VIII) bob;
- 3) inson va fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi huquqlari (IX) bob;
- 4) fuqarolarning burchlari (XI) bob.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini bunday guruhlarga ajratishning o'z qonuniyati va sababi bor. Chunki O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zining davlat tuzilishi, faoliyati va hayotini umuminsoniy qadriyatlar asosida olib borishini maqsad qilib qo'ydi. Bunda shaxsning manfaati, uning sha'ni, qadr-qimmati hamma narsadan yuqori turadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Konstitutsiyasining birinchi sahifalaridanoq insonning shaxsiy huquq va erkinliklari bayon qilingan, undan so'ng esa siyosiy huquq va erkinliklar shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklar joy olgan. Bunday izchillik o'z mantig'iga ega. Mabodo, ilgari ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning ustuvorligi ta'minlangan bo'lsa, endi esa barcha toifadagi huquq va erkinliklarning bir ma'noda aks etishi ko'zga tashlanadi, ayni zamonda shaxsiy va siyosiy huquqlarning afzalligi ko'rsatiladi. Zero ilgari bunday huquqlarga aksariyat hollarda rioya qilinmagan¹. Aslida insonning eng muhim huquqlaridan biri uning tinch-totuv yashash huquqidir. Xuddi ana shu huquq bilan demokratiyaning insoniyligi bilinadi. Davlat va jamiyatning asosiy majburiyati - mazkur huquqlarni barcha vositalar bilan kafolatlashdir. Zero bu bilan demokratiyaning insoniyligi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasiga fuqarolarning bunday asosiy huquq va erkinliklarining kiritilishi, ularning huquqiy muhofazasining xalqaro andozalarga muvofiq jiddiy kengayganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va burchlari tizimining asosini tashkil qiluvchi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari Konstitutsiyaning VII bobida qonunan mustahkamlangan bo'lib, Respublikadagi butun huquq tarmoqlari uchun asosiy manba hisoblanadi.

Shaxsiy huquq va erkinliklar - bu insonni kundalik hayotidagi eng muhim ehtiyojlarini ta'minlovchi imkoniyatlar belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 24-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" – deb yozib qo'yilgan.

¹Tojixonov U.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi amalda.-T.: 1996. – 12b.

Haqiqatan ham, yashash huquqi insonning tabiiy huquqidir, har bir inson jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, fikrlash, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldidan, yoshi, jismoniy kuchi, sog'lig'idan qat'i nazar yashash huquqiga ega. Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Paktning 6-moddasi 1-bandida: "Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza etiladi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi", — deb belgilangan.

Insonning yashashdan maqsadi yagona bo'lib, tinchlik va osoyishtalikda, farovon hayot kechirishdir. O'z navbatida, inson bu maqsadga erishish uchun o'z oldiga qo'yilgan talablarni ham sidqidildan bajarishi lozim.

Insonning yashash huquqi Konstitutsiya va boshqa turli qonunlar bilan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasida har bir insonga erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi berilgan. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Har bir shaxs tug'ilishi bilan shaxsiy daxlsizlikka ega bo'lib, erkin hayot kechiradi, ya'ni bu har bir kishi erkin ravishda, o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilishi mumkin, faqat shaxsning harakatlari qonunga zid bo'lmasligi kerak, deganidir. Hech kim insonga qonunsiz ta'sir o'tkazish, uni ba'zi harakatlarni qilishga majburlashi yoki uning huquqlarini cheklashi mumkin emas.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 25-moddasida ko'rsatilgan "Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas" degan qoidalar xalqaro huquq hujjatlariga mos keladi. Masalan, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro Paktning 9-moddasi 1-bandiga asosan, "Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir. Hech kim o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi yoki hibsa saqlanishi mumkin emas. Hech kim ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas, qonunda belgilab qo'yilgan asoslarda va qonun - qoida taomiliga binoangina ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin"

O'zbekiston Konstitutsiyasining 26-moddasida: "Jinoyat sodir

etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, aybi aniqlamaguncha u aybdor hisoblanmaydi", - deb ko'rsatilgan.

Jinoyat sodir qilgan shaxsning aybdorligini isbotlash majburiyati tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudga yuklatilgan. Konstitutsiyada ayblanuvchiga o'zini himoya qilish huquqi ham ko'rsatilgan. Qoidaga ko'ra, shaxsning bu huquqi advokatlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 27-moddasida har bir insonga o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga egaligi mustahkamlangan.

Shaxsning sha'ni va qadr qimmati bu insonga tegishli xususiyatdir, ba xususiyat katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning buzilmasligi qonun bilan qo'riqlanadi. Davlat birinchi navbatda ularni fuqaroviylari, ma'muriy, jinoiy-huquqiy vositalari bilan qo'riqlashga kafolat beradi.

Konstitutsiyaning ushbu moddasida: "hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas", - deyilgan. Insonning turar joyi daxlsizligi huquqi, mulk shaklidan qat'i nazar hamma uy-joylarga, hamma binolarga tegishlidir. Uy-joyga ruxsatsiz kirishga faqat qonun bilan ko'rsatilgan hollarda va belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi. Jinoyat prosessual qonuni esa uyni ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazish shartlari va asoslarini belgilab beradi. Turar joyga u erda yashovchilarining erkiga qarshi, zo'rlik ishlatib, noqonuniy kirish hollarida jinoiy javobgarlik kelib chiqadi va jazo qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28- moddasi respublika hududida fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, kelish va undan chiqish huquqini mustahkamlaydi. Bu huquqqa muvofiq, shaxs o'z xohishi bilan O'zbekiston Respublikasi hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, undan chiqib ketishi va qayta kelishi mumkin. Qonunda ko'rsatilgan cheklash chegara hududlariga tegishli. Chegara hududlarida bo'lishni

alohida huquqiy tartibga solish va fuqarolarning kelib ketishini alohida nazorat qilish tartiblari davlat chegaralarini qo'riqlashda davlatning manfaatlarini himoya qilish, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash manfaatlaridan kelib chiqadi.

Konstitutsiyaning 29-moddasida har bir insonga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqini beradi. Fuqarolarga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, barcha ma'lumotlarni qidirish, olish, tarqatish huquqi ularga davlat idoralariga, jamoat birlashmalariga, korxona, tashkilot, muassasalarga taklif, ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilish yo'li bilan jamoat va davlat ishlarini boshqarida faol qatnashish imkonini beradi.

Konstitutsiyaning 30-moddasi O'zbekistonning barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdar shaxslari fuqarolarga ularning huquqlari va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligini qayd qilgan. Shaxsning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishda davlat organlari tomonidan qabul qilingan, fuqarolarning huquqi va manfaatiga daxldor huquqiy qoidalar bilan ularni tanishtirish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31- moddasiga muvofiq, barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Buning ma'nosi shuki, O'zbekistonda yashaydigan har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday Konstitutsiyaviy qoidalarning amalga oshirilishi jamiyatimizda osoyishtalik o'rnatish va jamiyat farovonligii oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.


Siyosiy huquqlar fuqarolik bilan bog'liq bo'lib, u tegishli davlatning fuqarolariga davlat va jamiyat ishlarini boshqarish imkoniyatini beradi. Siyosiy huquqlarga faqat mamlakat fuqarosi ega bo'lishi mumkin.

Siyosiy huquqlar orqali fuqarolar tegishli davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etish, siyosat va davlat faoliyati haqida o'z fikrlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu sababli O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolarning bunday siyosiy ahamiyatga molik huquqi alohida mustahkamlangan.

32-modda. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari oqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Siyosiy huquq va erkinliklar-bu insonning davlat hokimiyatini tashkil va uni amalga oshirish orqali o'z ehtiyojlarini ta'minlovchi imkoniyatlardir



Siyosiy huquqlarga asosan ma'lum yoshta etgan fuqarolar ega bo'ladi. Shuningdek, siyosiy huquqlardan foydalanishda ayrim hollarda chegaralar o'matilishi mumkin. Masalan, saylash huquqi 18 yosh qilib belgilangan bo'lsa, yana saylovlarda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnash-maydilar, degan qoida Konstitutsiyaning 117-moddasida ko'rsatilgan. Fuqarolarning yana bir Konstitutsiyaviy huquqi— bu ularning o'z ijtimoiy faoliyklarini mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish huquqidir.

33-modda. Fuqarolar o‘z ijtimoiy faoliyklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Miting – bu siyosiy masalalarining muhokamasi uchun yig‘ilgan jamoa yig‘ilishidir.

Yig‘ilish – bu yopiq imoratda yoki biror xonada o‘tkaziladigan, ma‘lum yig‘ilgan shaxslarning majlisidir. Majlis shaklidagi yig‘ilishlar majlis tashkilotchilari tomonidan ishtirokchilar sonini chegaralash uchun tanlanishi mumkin, lekin bu yig‘ilishning asosiy mohiyatini belgilamaydi.

Namoyish - bu ijtimoiy siyсиy norozilikning ochiq ko‘rinishi bo‘lib, namoyishchilarning u yoki bu masalaga nisbatan ommaviy tarzagi ochiq munosabatlardir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, uyushish, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarda ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas. Kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga birlashish huquqi ommaning ma‘lum bir maqsadlarini amalga oshirish va siyosiy faoliyatini rivojlantirishni ko‘zlaydi. Fuqarolar siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga birlashib, davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarga siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalariga birlashish huquqini Konstitutsiya va qonunlarga zid kelmagan holatlarda amalga oshirishlari mumkinligini belgilaydi.

Fuqarolarning ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular shu yo‘l bilan ham davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda faol ishtirok etadilar. Shu bois O‘zbekiston Konstitutsiyasi bu huquqni maxsus kafolatlaydi.

35-modda. Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda

vakołatli dalat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

Fuqarolarning vakolatli davlat organlari va xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat etishi bu – ularning davlat va jamiyat boshqaruvida qatnashishning amaliy shaklidir. Bu huquqning mohiyati shundaki, fuqarolar vakolatli davlat organlariga, ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilganlarida, ushbu organlarning rahbarlari fuqarolarning taklif va arizalarini albatta ko'rib chiqishlari shart.

Fuqarolar normal hayot kechirish, tabiiy va ma'naviy boyliklardan foydalanishi, bilim olishi, mehnat qilishi, sog'lig'ini saqlash uchun tegishli imkoniyatlarga ega bo'lishi shart.

Bu imkoniyatlar davlat tomonidan yaratiladi va ulardan foydalanish uchun qonun doirasida huquqlar kafolatlangan. Bunday huquqlarning asosiyлари Konstitutsiyada belgilangan.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX-bobi "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" deb atalib, uning alohida moddalarida belgilangan qoidalar fuqarolarning turmush tarzi normal bo'lishini ko'zda tutadi.

Konstitutsiyaning 36-moddasida "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi", – deb belgilangan.

Mulkka ega bo'lish har bir insonning faqat farovon hayot kechirishini emas, erkinligini, kelajakka ishonch bilan qarashini, avlodlar oldida obro'sini ta'minlovchi shartlardan hisoblanadi. Respublikamizda mulkdor bo'lish huquqi Konstitutsiyadagina belgilanib qolmasdan, shu huquqni ro'yobga chiqaruvchi, aniqrog'i kishilarning mulkdor bo'lishini ta'minlovchi ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi va tadbirlar o'tkazildi.


O'zbekiston Konstitutsiyasining 37-moddasi mehnat huquqi va u bilan bog'liq masalalarni mustahkamlagan. Unga ko'ra "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga ega.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklar- bu insonlarning moddiy ne'matlarini ishlab chiqish va taqsimlash sohasidagi imkoniyatlardir



Sud hukmi bilan tayinlagan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'satilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqilanganadi". Bu moddaning qoidalari kishilarga faqat mehnat qilish huquqini berib qolmay, har bir kishiga o'z imkoniyati, qobiliyati, bilimiga qarab kasb tanlashga erkinlik beradi, adolatli qulay sharoitlarda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lishini belgilaydi va nihoyat kishilarni ishsizlikdan himoya qilishni nazarda tutadi.

Dam olish vaqtining quyidagi turlari mavjud



Konstitutsiyaning 38-moddasida "Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqtি va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi", – deb belgilangan. Konstitutsiya normasi mazmuniga e'tibor bersak, dam olish huquqi, avvalo, ish vaqtiga bog'liqligini ko'ramiz. Turli toifadagi mehnat qiluvchilarning ish hajmi, mehnat sharoiti, jismoniy yoki aqliy mehnat faoliyati turlariga qarab bir ish kuni tugagandan keyingi ish kuni boshlanguncha bo'lgan vaqt fuqarolarning o'z ixtiyorida bo'lib, shu paytda ular xohlagancha dam oladi. Hafta tugashi bilan ham ayrim sohalarda bir kunlik, ayrim sohalarda ikki kunlik dam olish belgilangan.

Konstitutsianing 39-moddasida "Har kim qariganida, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiylar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas", – deya belgilab qo'yilgan.

Bu Konstitutsiyaviy normaga asosan ijtimoiy ta'minot olish huquqiga qariganda, ya'ni ma'lum yoshga kirganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ega bo'linadi. Bu masalalar huquqiy jihatdan "Mehnat kodeksi", "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Fuqarolar qariganda qarilik pensiyasini olish huquqiga ega, qarilik pensiyasini olish huquqi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh qilib belgilangan hamda qonunlar ayrim toifa xodimlarga bundanda qisqartirilgan yoshlarda qarilik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lishni belgilaydi. Masalan, 5 va undan ko'p bola parvarishlagan ayollar 50 yoshdan, ayrim faoliyat turlarida mehnat qiluvchi erkaklar 55 yoshidan, ayollar 50 yoshidan shunday huquqqa ega bo'ladi.

Fuqarolar mehnat layoqatini yo'qotganda, ta'minot olish huquqiga ega bo'linadi. Bunday ta'minot turlari vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganda yoki butunlay mehnat qibiliyatini yo'qotganda vujudga keladi.

Konstitutsianing 40-moddasida har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligini mustahkamlangan.

Bu huquq inson hayotiga, yashashga bo'lgan huquqining qo'shimcha kafolatidir. Inson sog' - salomat, jismoniy kamchiliksiz yashasa, baxtli hayot kechirishi mumkin. Inson o'z sog'lig'i to'g'risida turli yo'llar bilan g'amxo'rlik qiladi va bunda davlatning ko'magiga, yordamiga tayanadi.

Davlat insonning sog'lig'ini himoya qilib, ularga malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga imkon yaratib beradi. Bu huquq amal

qilganda, mamlakatda inson salomatligini saqlovchi, tiklovchi muassasalarning malakali, bilimli mutaxassislardan iborat tizimi (kasalxona, poliklinika, sanatoriylar) faoliyat ko'rsatadi. Ular zamonaviy texnik vositalar orqali jihozlanadi. Inson salomatligini tiklovchi, saqlovchi muassasalar bilan ta'minlashni davlat o'z zimmasiga oladi. Fuqarolarga tez yordam ko'rsatish xizmati ta'minlanadi.

Bu huquqning amal qilinishi natijasida har bir kishi tibbiy muassasalarga o'z muammolari bilan murojaat qilish va ulardan tegishli yordam, maslahat olishga haqlidir.

Konstitutsiyaning 41-moddasiga asosan: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir".

Har kim bilim olish huquqiga ega degani mamlakatda yashovchi barcha aholi, fuqaroligi, millati, irqi, dini, jinsi va boshqalardan qat'i nazar shu huquqdan foydalanishini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Konstitutsiyada belgilangan bilim olish huquqining to'la ro'yobga chiqishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Milliy dasturda ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlarining vazifalari, ta'limning uzluksizligi belgilab qo'yilgan.

Kasb-xunar kollejlaridagi ta'lim ham malakali mutaxassislar tayyorlash va ta'limning keyingi bosqichlarida bilim olish imkoniyatini beruvchi O'rta ta'lim dasturi bo'yicha bilimlar berish vazifasini qo'yadi.

Konstitutsiyada bepul ta'lim olish davlat tomonidan ta'minlanishi belgilangan. Mamlakatimizda boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, akademik lisey va kasb - hunar kollejlarida ta'lim bepul bo'lib, barcha xarajatlar davlat hisobidan ta'minlanadi.

Konstitutsiyaning 42-moddasi ikki banddan iborat bo'lib, birinchi bandda "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi", — deb ko'rsatilgan bo'lsa, ikkinchi bandda "Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi", — deb mustahkamlangan.

Ijodkorlar, mualliflar, ixtirochilar, kashfiyotchilar huquqlari himoya qilinishi bilan birga, ular davlat tomonidan turli rag'batlantirishlarga ham ega bo'ladi. Bu ham ijod erkinligi kafolatidir.

O‘zbekistondagi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar Konstitutsiya-da alohida turdagи huquqlar sifatida ko‘rsatilgan va fuqarolar-ning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tizimining ajralmas qismidir. Bu huquq va erkinliklardan foydalanish orqali fuqarolar o‘zlarining turmush sharoiti farovonligini ta’minlaydi. Davlatning iqtisodiy qudrati qanchalik kuchli bo‘lsa, iqtisodiy huquqlardan foydalanish imkoniyati shunchalik kengayib boradi.

3§. Huquq va erkinliklarning kafolatlari

Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash deyilganda, shaxslarning Konstitutsiyada ko‘rsatilgan huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda har bir insonning bu huquqlarini huquqiy amalga oshirishi tushuniladi.

Kafolatlash qonunda ko‘rsatilgan, mumkin bo‘lgan imkoniyatlar orqali amalga oshiriladi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ikki ko‘rinishga ega.

- 1) Davlatning o‘z ichki kafolatlari;
- 2) Xalqaro huquqiy kafolatlar;

Bunda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash borasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili ya’ni Ombudsman faoliyati alohida o‘ringa ega. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, shuningdek malakali yuridik xizmat va profesional himoyachi, ya’ni advokat xizmatidan foydalanish huquqi va imkoniyatlarining mavjudligidir.

Inson huquqlarining xalqaro huquqiy kafolatlari xalqaro ommaviy huquq tomonidan o‘rnatilgan.

Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash ko‘rsatilgan huquq va erkinliklarga faqat egalik qilish bilangina cheklanmasdan, ulardan foydalanish va ularning buzilishidan muhofaza qilishdan ham iboratdir.

Kafolatlanishning mohiyati – bu davlat va uning organlarining fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun doimiy ravishda zarur vositalar bilan ta’milashda ifodalangan burchida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonlarga ma’lum huquq va erkinliklar berish bilan birga ularni amalga oshirish uchun kerakli iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar bilan ham ta’minlaydi.

Iqtisodiy sohadagi kafolatlar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarda ko‘rsatilgan va iqtisodiyotning negizini tashkil etuvchi mulk shakllarining xilma-xilligidir. Ularda mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan teng muhofaza etilishi kafo-latlangan.

Inson siyosiy huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi O‘zbekistonda hokimiyatning birdan-bir manbai xalq ekanligi, davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsi piga asoslanganligi.

O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning siyosiy institutlari, mafkura va davlat mafkurasi sifatida o‘matilishi mumkin emasligida namoyon bo‘лади.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 43, 44, 45, 46-moddalari aynan inson huquqlari va erkinliklari kafolatlariga bag‘ishlangandir.

“Davlat fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi,”—deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Ushbu moddada Konstitutsiyaviy prinsi plarning asosiyligi, o‘zagi, xarakteri ifodalangan bo‘lib, bunda inson manfaatlari hizmat qilish, erkinlik kafolati, davlatning ijtimoiy maqsadi va asl g‘oyasi aks etgan.

Fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari juda ko‘p va turlichadir.

Kafolat tizimida fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish davlatning muhim xususiyatlaridan biridir. Bu kafolatlar Konstitutsiyaning 44-moddasida mustahkamlab qo‘yilgandir. Ya’ni; “har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi”.

O'zbekiston Respublikasida hokimiyatning bo'linishi tamoyili amal qilib, sudsarning qonunchilik ya'ni vakillik va ijroiya hokimiyatidan mustaqilligi joriy qilingach, ularning fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi vazifasi kuchaydi.

Fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida sudga shikoyat qilish tartiblarining o'rnatilishi huquq va erkinliklarning eng muhim kafolatidir. Tegishli Konstitutsiyaviy normaga asosan fuqarolar o'zlarining huquq va erkinliklari buzilgan deb hisoblasalar, davlat idoralari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilib o'z huquqlarini himoya qilishlari mumkin.

45-modda. Voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarining huquqlari davlat himoyasidadir.

Bu moddaning maqsadi mamlakatimizdagи ayrim kishilarning manfaatlarini qo'shimcha tarzda himoya qilishdir va ularning munosib hayot kechirishlarini ta'minlashdir. Chunki ular shunday qo'shimcha himoyaga muhtojdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 46-moddasida xotin -qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi mustahkamlangan.

Ayollar va erkaklarning teng huquqliliginini ta'minlash uchun davlat keng miqyosda qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga xaq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o'mi, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog'lig'ini mustahkamlashda, yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi zarurdir. Chunki qo'shimcha sharoit, imtiyozlar o'matish bilangina ayollarning teng huquqliligi ta'minlanadi.

Demak, O'zbekiston fuqarolari jinsidan qat'iy nazar ijtimoiy va siyosiy hayotda teng ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Tayanch so‘z va iboralar

Fuqarolik tushunchasi va ahamiyati. Fuqarolikni yo‘qotish asoslari. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi. O‘zbekistonda Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Fuqarolarning siyosiy huquqlar. Mitinglar, namoyishlar, yig‘ilishlar. Iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarining xalqaro huquqiy kafolatlari deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikka doir huquqiy munosabatlarni aytинг.
3. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy, siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari nimalardan iborat?
4. Fuqarolarning qonun oldidagi burchlarini sanab bering.

5 BOB. O‘zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviv belgilari

1§. Jamiyatning iqtisodiy negizlari

2§. Jamoat birlashmalari

3§. Ommaviy axborot vositalari

1§. Jamiyatning iqtisodiy negizlari


O‘zbekiston mustaqilikka erishgach, davlat mulkiga asoslangan rejali xo‘jalik yuritish tizimidan voz kechib, rivojlangan mamlakatlar tajribasida o‘zini oglagan, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi va buni huquqiy jihatdan Konstitutsiyada mustahkamladi.

Bu Konstitutsiyaning 53-moddasidagi "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining asosini xilma-xil mulk shakllari tashkil etadi", – degan qoidada o‘z aksini topdi. Unga asosan O‘zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanadi, bu iqtisodning asosini esa xilma - xil mulk shakllari tashkil etadi. Bu bilan butunlay yangicha iqtisod tashkil qilinishiga va yagona mulk shaklining ustuvorligiga barham beriladi.



O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasida mulk shakllari sifatida xususiy va ommaviy mulk shakllari belgilangan. Ularning turlari, ob'ektlari turli-tuman bo'lishi mumkin. Xuddi shuningdek, yakka shaxslarning xususiy mulki, shaxslarning birgalikdagi xususiy mulki bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlari amal qiladigan mamlakatda davlat har qanday mulk shakllarining rivojlanishidan manfaatdor. Shuning uchun barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishining kafolatlanishi Konsitutsiyaning 53-moddasida belgilangan. Bu davlatga katta mas'uliyat yuklaydi. Ana shu vazifani muvaffaqiyatli bajarish maqsadida, davlat tegishli qonun hujjalarni yaratgan.



Yuqorida qayd etilgan qonun hujjalari mulk shakllarini birdek muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidenti va hukumati tomonidan qabul qilingan ko'plab normativ-huquqiy hujjalarda ham turli mulk shakllari muhofazasi ko'zda tutiladi.

Konstitutsiyaning 53-moddasida bu "Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir", – degan qoida tariqasida mustahkamlangan.

Xususiy mulk huquqi shaxsning, ya'ni hamma fuqarolarning hamda nodavlat yuridik shaxslarning qonun hujjalariiga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasannuf etish huquqidir. Xususiy mulkdomning mol-mulkining miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Konstitutsiya moddalarida mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi belgilanib qo‘yilgan. (54-modda). mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Mulkdan foydalanish tabiatning, ekologik muhitining buzilishiga olib kelsa, ularga zarar etkazsa hamda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatga ziyon etkazsa, bunday holga nisbatan tegishli choralar ko‘riladi.

Konstitutsiyaning 53-moddasida qayd qilinishicha: "Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.


Ma’lumki yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralarga mulkchilik masalasi muhim ahamiyatga ega. Ular umummilliy boylik bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli ulardan oqilona foydalanish huquqiy kafolatlangan. Binobarin Konstitutsiyamizning 55-moddasida "Yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", –deb belgilangan.

Yer, yer osti boyliklari, suv va boshqalar inson hayoti, turmush kechirishi, nasl qoldirishi uchun eng zarur vositalar bo‘lib, inson uchun tabiat in’omidir. Shuning uchun ularning umummilliy boylik deb e’lon qilinishi ana shu manbalarning talon-taroj bo‘lishi, qarovsiz qolishining oldini oladi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy negizi mustahkamligi farovon hayot manbaidir. Iqtisodiy negizni xilma-xil mulk tashkil etishi ishlab chiqarishni rivojlantirish manbai bo‘lganligi uchun ularning barchasini bir xilda himoya qilish davlatning vazifasi hisoblanadi. O‘zbekistonning iqtisodiy tizimida xususiy mulkchilikning mavjudligi, uning daxlsizligi fuqarolar huquqlarini mulkka bo‘lgan huquqlar bilan boyitadi. Fuqarolar erkinligini ta’minlashda mulkning o‘rnini alohida bo‘lib, u har tomonlama davlat muhofazasida bo‘ladi.

2§. Jamoat birlashmalari

O'zbekistonda jamoat birlashmalari tizimiga kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari kiradi, bu Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilangan. Jamoat birlashmalari faoliyat ko'rsatishining asosi sharti - ular qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak. Ularni ro'yxatdan o'tkazish Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.



O'zbekiston Konstitutsiyasining 56-moddasidan tashqari yana bir necha moddalarida jamoat birlashmalarining xilma-xilligi, ko'p partiyaviylik tizimi mayjudligi jamiyat taraqqiyotida muhim shartligi, bu vositalar fuqarolar faolligining garovi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Jamiyat, fuqaro, davlat manfaatini himoya qilish, eng avvalo, Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligi ko'p jihatdan jamoat birlashmalarining faoliyatiga bog'liq.

Shuning uchun Konstitutsiyaviy tuzumga, davlatga, jamiyatga, fuqarolar manfaatiga qarshi faoliyat yurituvchi jamoat O'zbekiston O'zbekiston Konstitutsiyasining 56-moddasidan tashqari yana bir necha moddalarida jamoat birlashmalarining xilma-xilligi, ko'p partiyaviylik tizimi mayjudligi jamiyat taraqqiyotida muhim shartligi, bu vositalar fuqarolar faolligining garovi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Jamiyat, fuqaro, davlat manfaatini himoya qilish, eng avvalo, Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligi ko'p jihatdan jamoat birlashmalarining faoliyatiga bog'liq.

Shuning uchun Konstitutsiyaviy tuzumga, davlatga, jamiyatga, fuqarolar manfaatiga qarshi faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari tuzishga yo'l qo'yilmaydi, mavjudlari shunday faoliyat bilan shug'ullansa ularning faoliyati to'xtatiladi va tugatiladi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi, deb belgilangan. Chunki, Konstitutsiyaviy tuzum tartibi, eng avvalo, fuqarolar manfaatini, o'zini (Konstitutsiyaviy tuzumini), mamlakat xavfsizligini ta'minlanishini nazarda tutadi.

Konstitutsiyaning 58-moddasida "Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariiga rioxat etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.


Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiha yo'l qo'yilmaydi", — deb belgilangan.

Davlat bilan jamoat birlashmalarini munosabatida davlat tomonidan jamoat birlashmalarini ro'yxatga olish tartibining o'rnatilishi hamda

barcha jamoat birlashmalarini tashkil qilish, vakolatini belgilovchi huquqiy hujjatlар (qонун, farmon, qарорлар)ning davlat tomonidan qabul qilinishi muhim rol o'ynaydi. Davlat o'zining qонун va huquqiy hujjatlari orqali jamoat birlashmalarining huquqiy va qонуниy manfaatlарiga rиoya etilishini ta'minlaydi. Qонунлarda jamoat birlashmalarining ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishlari uchun teng huquqiy imkoniyatlar belgilanganadi.

Konstitutsianing 61-moddasida esa "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qонун oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi", – deb belgilangan.

Jamoat birlashmalarini tugatishga, tarqatishga quyidagilar asos bo'lishi mumkin



Bu har qanday diniy tashkilot va birlashmalar, ular qaysi dinga taalluqligidan qat'i nazar davlatdan ajratilganligini va qanday dinga mansub bo'lishidan qat'i nazar barcha diniy tashkilot va birlashmalarning qонун oldida tengligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz xalqining aksariyat ko'pchiligi Islom diniga e'tiqod qiladi, shuningdek, boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar ham mavjud. O'zo'zidan turli dinga mansub diniy tashkilot, birlashmalar tuzilgan bo'lib, ular qонун oldida tengdir.

Konstitutsiya normalarini hayotga kengroq tatbiq etish maqsadida mamlakatimizda 1998 yil 1-mayda yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qонун qabul

qilingan. Mazkur qonun davlat bilan diniy tashkilot va birlashmalarning barcha munosabatlarini atroflicha tartibga soladi.

Davlat bilan diniy tashkilot va birlashmalar munosabati har qanday dinning insonparvarlik, axloqiy, tarbiyaviy g'oyalaridan jamiyat rivojida unumli foydalanishga asoslanadi. Tarbiya ishlarini dunyoviy va diniy ta'limgotlarning ijobiylaridan foydalangan holda olib borishda mavjud diniy tashkilot va birlashmalarning to'g'ri munosabati muhim o'rinni egallaydi.

Konstitutsiyaning 62-moddasida "Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi", — deb belgilangan.

Jamoat birlashmalariga qo'llaniladigan choralar:

- a) ularni tarqatib yuborish;
- b) faoliyatini taqiqlash;
- c) faoliyatini cheklash.

Bu majburiy choralar davlat nomidan sud tomonidan qo'llaniladi, boshqa hech qanday hokimiyat organlari bunday vakolatga ega emas.

"O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunga muvofiq jamoat birlashmasining eng oliy organi tegishli jamoat birlashmalarini qonunda belgilangan asosda tarqatib yuborishi mumkin.

Demak, jamoat birlashmasining tarqatilishi ikki ko'ninishda bo'ladi, birinchisi - majburiy tarqatish, sud qaroriga asosan, ikkinchisi - ixtiyoriy tarqatish, tegishli oliy organning qarori bilan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, jamoat birlashmalari faoliyatida dinni siyosatlashtirishga, qurolli tuzilmalar tuzishga harakat bo'lgan taqdirda ham ular tugatiladi.

3§. Ommaviy axborot vositalari

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni hayotining barcha sohalarida boshlangan keng miqyosdagi huquqiy islohotlarni mazmun-mohiyatini fuqarolar ongiga singdirish, mamlakat aholisining ijtimoiy ongini va saviyasini, hayotga bo'lgan qarashlarini yanada takomillashtirish jarayonda ommaviy axborot vositalarining o'rni muhim egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2005 yil 28 yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rzasida beshta ustuvor vazifalaridan biri etib, O'zbekiston Respublikasida demokratik jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq choralarни amalga oshirish lozimligi belgilab berdi. Ommaviy axborot vositalarini jamiyatdagi o'rni yanada oshirish, ularni iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash muhim vazifalardandir.

Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini isloh qilish, ularning samarali ishlashiga ko'mak beruvchi mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, 1997 yil 26 dekabrdagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, 2002 yil 12 dekabrdagi «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi, 2003 yil 11 dekabrdagi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1996 yil may) Farmoni va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunida belgilanganidek, ommaviy axborot vositalarining turlari ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umum foydalanishdagi telekommunikasiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar shakllari ommaviy axborot vositalaridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 bob, 67

moddasi qoidalariga ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

Ommaviy axborot vositalari erkinligini, ularning faoliyat ko'rsatishi sharoitlarini ta'minlash bilan birga, bu erkinliklarning suiste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar berilayotgan axborotning to'g'riliqi uchun javobgar bo'lib, qonun hujjatlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining mavjud Konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etish, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor etish, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti-harakatlar sodir qilishni targ'ib qilish, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashish kabilarga ruxsat berilmaydi.

Jurnalist bu O'zbekiston Respublikasining yoki xorijiy davlatning ommaviy axborot vositalarida xizmat qiladigan yoxud ularda shartnomas asosida ishlaydigan va ma'lum mavzudagi axborotni to'plash, tahlil etish hamda tarqatish bilan shug'ullanuvchi shaxsdir. Jurnalistning faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni «Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida» qonun tartibga soladi, uning huquq va majburiyatlarini belgilaydi, unga huquqiy va ijtimoiy kafolatlar beradi, jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilaydi. Jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida u Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan shaxs daxlsizligi kafolatidan foydalanadi. Tanqidiy materiallar e'lon qilganligi uchun, agar ular haqqoniy bo'lsa, jurnalistni ta'qib qilishga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolar yoki boshqa axborot manbalari tomonidan ixtiyoriy ravishda ma'lum qilingan maxfiy xabar, shuningdek fakt yoki voqealar jurnalistika sohasining siri hisoblanadi. Jurnalistning jurnalistika sohasining siri hisoblanadigan ma'lumotlarni bu ma'lumotlar manbasining roziligidisiz oshkor etishi, shuningdek ulardan o'zining g'arazli manfaatlari yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab foydalanishi taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan bo'lib unga ko'ra, e'lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan

kelishib olinishi shuningdek, ularning matni o'zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo'q. Senzura oddiy qilib aytganda, bu muayyan axborot berilishiga (nashr qilinishiga) to'sqinlik qilish, unga nisbatan ta'qib va cheklov o'matishdir.

So'z erkinligi fikr bildirish erkinligini har qanday cheklash demokratiyaga xilosdir. Shu bilan birga senzuraning olib tashlanganligi jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari orqali xohlagan xabar, ma'lumot yoki materialni e'lon qilishini ko'rsatmaydi. «Jumalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga muvofiq jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirmi istisno etgan holda hujjatlar, materiallar va axborotdan foydalana olish huquqiga egadir. Ma'lumki, bugungi kunda jamiyatda demokratik jarayonlarning takomillashib borishida ommaviy axborot vositalari o'rni beqiyos bo'lib ularni ramziy «to'rtinchı hokimiyat», deya e'tirof etilmoqda. Bunday munosabat O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalariga davlat va jamiyat tomonidan berilayotgan alohida e'tibor namunasidir.

Tayanch so'z va iboralar

Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Jamoat birlashmalari tushunchasi va turlari. Jamoat birlashmalariga qo'yiladigan talablar. Jamoat birlashmalarining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari. Senzura tushunchasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxs va jamiyat munosabatlari va ularni tartibga solishda Konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati.
2. Jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rmini tushuntiring.
3. Ommaviy axborot vositalarini faoliyatining konstitutsiyaviy asoslarini izohlang.

6 BOB. O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma'muriy hududiy tuzilishi

1§. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi tushunchasi

2§. Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi

1§. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi

Har qanday mamlakat, jumladan, O'zbekiston ham ma'lum geografik joyda, belgilangan chegaralar doirasidagi hududda joylashgan. Bu mamlakatning hududi hisoblanadi. Aniq chegaralangan hududga ega bo'lish davlatni davlat sifatida ko'rsatuvchi asosiy shartlardandir. Ma'lum hududsiz davlat bo'lishi mumkin emas. Davlat aniq bir hududda faoliyat ko'rsatadi va davlat faoliyati shu hududda amal qiladi.

Hudud davlatga tegishli maydon. Hudud er, suv, osmon chegaralaridan iborat bo'ladi.

Har bir mamlakatning hududi katta-kichikligiga, aholisining soniga qarab, tegishli bo'lakchalarga bo'lib idora etiladi. Bu bo'lakchalar bir necha pog'onadan iborat bo'lib, ularning har biri o'z hududiga (chegarasiga) ega. Mamlakat hududining bo'lakchalarga bo'linishi davlat boshqaruvini mukammal tashkil etish bilan bog'liq bo'lganligi uchun u juda muhim davlat-huquqiy instituti bo'lib, Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining to'rtinchi bo'limi va uning ikki bobisi (XVI, XVII boblar) ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalariga bag'ishlangan. Uning alohida-alohida moddalarida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari huquqiy tartibga solingan.

Konstitutsiyaning 68-moddasida "O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tumanlar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat", — deb belgilash bilan mamlakat hududi qanday bo'laklarga bo'linishi va ularning nomlanishini mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining hududi viloyatlari, tumanlar,

shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat. Toshkent shahri o‘z hududi bilan davlatning yirik shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z hududi bilan eng yirik ma’muriy tuzilmasi hisoblanadi.

Viloyatlar hududi tuman va shahar hududidan iboratdir. Tuman hududlari shaharcha va qishloqlardan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tumanlar ovullarga bo‘linadi.

2§. Qoraqalpog‘iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi

O‘zbekiston Respublikasining haqiqiy suverenitetga ega bo‘lishi, mustaqillikka erishishi O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikalari munosabatida ham o‘z aksini topdi. Ular o‘rtasidagi munosabatning asoslari qabul qilingan hujjatlarda belgilab olindi.

Bu masalaga 1990 yil iyun oyida qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiya", 1990 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Qoraqalpog‘iston davlat suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiya" larda alohida e’tibor berildi va O‘zbekiston hamda Qoraqalpog‘istonning amaldagi Konstitutsiyalarida Qoraqalpog‘istonning huquqiy maqomi, har ikkala respublika o‘rtasidagi munosabat asoslari mustahkamlab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida "Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston tarkibiga kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi", –deb mustahkamlangan.

Konstitutsiyaning bu moddasi:

- Qoraqalpog‘istonning suveren respublika ekanligini belgilaydi va e’tirof etadi;
- U O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kirganini ko‘rsatadi;
- Qoraqalpog‘istonning suvereniteti O‘zbekiston tomonidan muhofaza qilinishini belgilaydi. Shu holat bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘z zimmasiga katta mas’uliyatni oladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi, suverenitetga egaligini tasdiqlovchi normalar ham O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Bular:

- Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z konstitutsiyasiga egaligi. Chunki Konstitutsiya har qanday davlatning suverenligini ko'rsatuvchi asosiy shart (Konstitutsianing 71-moddasi);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasini o'z ixtiyori bilan xalq xohish-irodasiga mos ravishda hech kimning aralashuviz Oliy hokimiyat organida qabul qilgan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z hududiga va chegarasiga ega;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi va chegaralari uning roziligidisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi (Konstitutsianing 73-moddasi);
- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining oliv hokimiyat organlariga ega va ularni tashkil qilish o'z Konstitutsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi;
- Qoraqalpog'istonning suverenligini belgilovchi eng muhim qoida "Qoraqalpog'iston Respublikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega"lidir (Konstitutsianing 74-moddasi).

Qoraqalpog'iston Respublikasining ajralib chiqishi huquqining mavjudligi xalq o'z taqdirini o'zi hal qilish imkoniyatiga egaligini ko'rsatadi.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, tarkibiy qismlari. Viloyatlar, shaharlar, tumanlarni tashkil qilishning huquqiy asoslari. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini aytинг.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqiy maqomini tushuntiring.
3. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishida Konstitutsiyaviy huquqiy normalarning o'rni qanday?

7 BOB. O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari.

1§. Oliy Majlis - davlat hokimiyati vakillik va qonun chiqaruvchi organi

2§. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti

3§. Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasining hukumati

4§. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

1§. Oliy Majlis - davlat hokimiyati vakillik va qonun chiqaruvchi organi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo‘limidagi XVIII bob "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi" deb nomlanib, uning moddalari Oliy Majlis faoliyatini tartibga soladi.

Oliy Majlis- O‘zbekiston Respublikasining Parlamenti bo‘lib, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiradi. Shu bilan birga, u davlat vakillik organidir.

Konstitutsiyaning 76-moddasida "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi" –deyilgan.

Eng avvalo, Oliy Majlis - davlat organi. Uni davlat vakillik organi deb yuritilishining sababi - u xalq vakillaridan iborat. Oliy Majlis ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat.

Oliy Majlis -qonunlarni qabul qiladi, ularga o‘zgartirish kiritadi va zarur hollarda amaldagi qonunlarni bekor qiladi. Qonun qabul qilish bilan mamlakat ijtimoiy hayotining huquqiy asoslarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari a'zolari senator va deputatlar besh yil muddatga saylanadi va besh yil davomida vakolatga ega.

Oliy Majlisning ikki palatali tuzilishi mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy hayotni, davlat qurilishi va boshqaruvni erkinlashtirish, jamiyat hayotini yanada demokratlashtirish natijasi bo'lib, 2002 yil 27 yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko'ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi qonunga muvofiq Konstitusiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali o'matildi.

Amaldagi Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida mamlakatimizda ikki palatali parlament faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq deputatlik o'rinalariga ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz elliq deputatdan iborat. Qonunchilik palatasiga mamlakatimizdagi siyosiy partiyalardan teng asosda nomzod ko'rsatish huquqiga ega va ular tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarga saylovchilarining ovoz berish yo'li bilan 135ta deputatlarni saylaydi. Shuningdek, O'zbekiston Ekologik harakatidan 15 nafar shaxs deputat etib saylanadi.

Oliy Majlisning Senati hududiy vakillik palatasi bo'lib, Senat a'zolaridan iborat bo'ladi va ular senatorlar deb ataladi.

Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges, viloyatlar, tumanlar va shaxarlar vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarda shu vakillik organlarining deputatlari orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasidan, har-bir viloyatdan va Toshkent shahridan 6 tadan senator saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosini turli sohalarda katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li deputatlar orasidan O'zbekiston Prezidenti tayinlaydi.

Oliy Majlisning har ikkala palatasiga 25 yoshga to'lgan, kamida besh yil O'zbekistonda muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarolari saylanadi.

Bir shaxs bir paytning o'zida ham Qonunchilik palatasiga, ham Senatga saylanishi mumkin emas.

Oliy Majlis palatalariga saylov "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" gi qonun bilan tartibga solinadi.

Oliy Majlis qonunchilik organi hisoblansa-da, u faqat qonun qabul qilish bilan cheklanmaydi. Unga davlat va jamiyat hayotining boshqa muhim ishlarini hal qilish vakolati ham yuklangan. Bular qonunchilik sohasi, davlat qurilishi sohasi, tashqi faoliyat, fuqarolarning huquqlari va nazorat sohasidagi vakolatlardir.

Oliy Majlisning vakolatlari uning palatalarining birgalikdagi vakolatlaridan va palatalarining alohida-alohida vakolatlaridan iborat.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiruvchi vazifalar qoida tariqasida awval Qonunchilik palatasida, so'ng Senatda ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolatlari Konstitusiyaning 78-moddasida belgilab qo'yilgan.

Oliy Majlisning palatalari alohida-alohida tashkil, umumiy vazifalardan tashqari o'zlarining alohida vazifalari ham mavjud. Shu tufayli ularning alohida vakolatlari belgilangan va alohida vakolatlar faqat shu palata tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari Konstitutsiyaning 79-moddasida mustahkamlangan.


Senatning mutlaq vakolatlari uning yuqori palata ekanligidan, hududiy manfaatlarni ifodalashidan kelib chiqadi.

Konstitutsiyaning 80-moddasida Senatning mutlaq vakolatlari belgilangan. Oliy Majlis palatalari o'z faoliyatini tegishli tartibda chiqariladigan majlislarda amalga oshiradi. Palatalar majlislarini o'tkazishga tegishli qoidalari Konstitutsiyaning 81-moddasida belgilangan. Konstitusiyaning 85-moddasiga asosan Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan (deputatlardan) Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rnbosarlarini saylaydi.

Spiker va uning o'rnbosarlari palata majlisida yashirin ovoz berish yo'li bilan palataning vakolat muddatiga saylanadi. Ular vazifasidan palata majlisida chaqirib olinishi mumkin.

Konstitutsiyaning 86-moddasiga binoan Senat Raisi Senat tarkibidan (senatorlardan) saylanadi. Senat Raisining nomzodi O'zbekiston Prezidenti tomonidan ko'rsatiladi. Rais o'rnbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasi vakili bo'ladi.

Konstitutsiyaning 85,86-moddalariga binoan Qonunchilik palatasining Spikeri va Senat Raisi quyidagi ishlarni amalgam oshiradi




Qonun qabul qilish jarayonida qonunchilik tashabbusi huquqi alohida rol o'ynaydi. Qonunchilik tashabbusi huquqi deb, qonun qabul qilishni rasmiy taklif qilish huquqiga egalik qilish tushuniladi.

Deputatlar va senatorlar xalq vakillari bo'lib, keng vakolatlarga va mas'uliyatga ega. Ular o'z faoliyatini erkin, hech qanday to'siqsiz olib borishlari uchun qonunlarda turli kafolatlar belgilangan.

Konstitutsiyada ham deputatlar va senatorlar faoliyatining kafolatlari huquqiy asoslari belgilangan bo'lib, ular 88-moddada o'z ifodasini topgan.

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga
asosan, qonunchilik tashabbusi huquqiga**




Konstitutsiyaning 95-moddasida Oliy Majlis palatalarini tarqatib yuborish asoslari belgilangan. Bular palatalar tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloslar yuz berishi, palatalar bir necha marta O'zbekiston Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilishi, shuningdek, palatalar o'rtaida Oliy Majlisning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloslar yuz berganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy sud bilan bamaslahat qabul qilgan qarori asosida Qonunchilik palatasi va Senatni tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkinligidan iboratdir.

2§. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti

Sobiq Ittifoq respublikalari orasida O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib, davlat boshqaruvning prezidentlik shakli joriy etildi. Prezidentlik instituti O'zbekistonda 1990 yilning martida "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovlari muqobililik asosida o'tkazilib, I.A.Karimov mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga asosan Prezident lavozimiga nomzodlarga quyidagi talablar qo'yiladi




Davlat boshqaruvining prezidentlik shaklida Prezident umumuxalq saylovlarda saylanadi va davlat boshlig'i hisoblanadi.

"Prezident" tushunchasi Konstitutsiyaviy - huquqiy ma'noda davlat boshlig'ini anglatadi. Aynan shuning uchun bu institut jahon davlat - huquqiy amaliyotida yaratilgan edi. Uning bunday roli Prezidenti bo'lgan har qanday zamonaviy demokratik respublikaga xosdir. Prezident davlatni jipslashtirishi, davlat hokimiyyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, **Prezident** - hokimiyatlar bo'linishi prinsi piga rioya qilinishida davlat mexanizmi uchun eng muhim institutdir.

Konstitutsiyada mustahkamlangan Prezident vakolatlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 89-moddasida "O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta‘minlaydi", –deyilgan.

Davlat boshlig‘i sifatida Prezident davlat hokimiyati organlari tizimida etakchi va muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynaydi. Prezident davlat ichida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekistonning Oliy vakilligini amalga oshiradi. Davlat boshlig‘i o‘zida u yoki bu hokimiyat tarmog‘ini emas, balki davlat va butun davlat hokimiyatining birligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-bobi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti", –deb nomlanadi. Bu bob to‘qqizta moddadan iborat bo‘lib, ularda O‘zbekiston Respublikasi Presidentining Konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 90-moddasining 2-qismida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining saylanish prinsiplari aniq belgilab qo‘yilgan. Prezidentlik Respublikalarida Prezident mamlakatning barcha saylovchilari tomonidan umum-xalq saylovlari yo‘li bilan saylanadi.

O‘zbekistonda Prezident saylovlari umumiyligi, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Prezidentning o‘z lavozimida bo‘lish muddati 7 yildir. Prezident saylovlarini o‘tkazish tartibi 1991 yil 18-noyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlari to‘g‘risida"gi Qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning 93-moddasida Prezident vakolatlari mustahkamlangan. Bundan tashqari, Prezident vakolatlari Konstitutsiyaning boshqa moddalarida ham ko‘rsatilgan, jumladan, Konstitutsiyaning 10,80,83,86,94,95,98,102-moddalarida o‘z ifodasini topgan.

Konstitutsiya bo‘yicha Prezidentga berilgan vakolatlarni bir necha guruhlarga bo‘linib o‘rganilsa, Prezident vakolatlari haqida aniqroq tasavvur hosil bo‘lishi va ularni osonroq tushunish mumkin.

3§. Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasining hukumati

Hukumat bu - davlat boshqaruving oliy organi bo‘lib, Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

Turli mamlakatlarda hukumat turli nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, Vazirlar Kengashi, Kabinet, Ministrler Kabineti, Davlat kengashi, Ma’muriy Kengash, Federal Hukumat, Hukumat va hokazo. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonuniga binoan, u O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan Respublikada ijro etuvchi hokimiyatning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qoida hukumat maqomi, uning alohida huquqlarini, tarkibini, qonun chiqaruvchi organlari, ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o‘zaro munosabatlari tarkibini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsipiiga asoslanadi. Respublikada yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olish uchun o‘z faoliyatini oshkorralik, insonparvarlik va qonuniylik asosida olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo‘yilgan o‘z tarkibiga ega. Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning

birinchi o'rribosari va o'rribosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqanuvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar. Vazirlar Mahkamasining tarkibini tuzish borasida mamlakat Prezidentiga juda katta vakolatlar berilgan. Ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasining 89, 93, 98-moddalarida mustahkamlab qo'yilgan.

2002 yil 27-yanvarda o'tkazilgan Referendumda O'zbekiston xalqi mamlakatda ikki palatali parlament tuzishni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan etti yil qilib uzaytirishni yoqlab ovoz berdi. Ushbu qarorlar ijtimoiy - siyosiy turmushni demokratlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish bilan bog'liq.

Referendum qarorlarini hayotga tatbiq etish uchun, eng avvalo umumxalq ovoz berishi natijalarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujatlarida aks ettirish lozim bo'ldi. Referendum yakunlari fuqarolik jamiyatni institutlari to'g'risidagi, davlat hokimiyatini tashkil etish tizimini, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va uning palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va sud hokimiyatining Konstitutsiyaviy maqomini tartibga soluvchi yangi qonunlarini takomillashtirishni taqozo etdi.

Yuqorida qarorlarini hayotga tatbiq etish uchun, eng avvalo umumxalq ovoz berishi natijalarini O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonunni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish yakunlariga binoan amalga kiritilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan belgilab qo'yildi.

2002 yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumni natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Konstitutsianing XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan¹. Mazkur o'zgartish va qo'shimchalarga binoan Konstitutsiyani 89-moddasining

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida gi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2003, №3-4, 27-modda.

"O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ayni vaqtida Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi" degan so'zlardan iborat bo'lgan ikkinchi xatboshisi olib tashlandi.

Demak, qonun kuchga kirgandan so'ng, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasiga saylov va O'zbekiston Respublikasining Senatini shakllantirish yakunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanmaydi.

Konstitutsianing 98-moddasiga hamda yangi tahrirdagi qonunning 15-moddasiga ko'ra, Bosh vazir Vazirlar Mahkamasini faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo'ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, boshqacha qilib aytganda Vazirlar Mahkamasini Raisi funksiyalarining barchasini amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi. Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish Senat va Qonunchilik palatasining birgalidagi vakolatlariga kiritilgan bo'lib, qoida tariqasida, ushbu masala avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda qo'rib chiqiladi. Bosh vazirmi o'z lavozimidan ozod qilish masalasini esa Prezidentning shaxsan o'zi hal qiladi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi hamda lavozimidan ozod qilinadi, ya'ni Vazirlar Mahkamasini a'zolarining nomzodi Bosh vazir tomonidan ko'rsatiladi.

4§. Mahalliy davlat hokimiyyati asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobida mahalliy davlat hokimiyyati organlari faoliyatining konsti-tusiyaviy asoslari mustahkamlangan. Unda mahalliy davlat hokimiyyati vakillik organlarining tizimi, tuzilish tartibi, ularning vakolatlari, faoliyatining shakllari, o'zini-o'zi boshqarish organlari va qabul qiladigan huquqiy hujjatlari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy normalar ko'rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga binoan, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolaming manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlarga taalluqli masalalarни hal etadilar. Demak, Konstitutsiyaning bu moddasiga binoan, mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari viloyatlarda, tumanlarda va shaharlarda tashkil etiladi. Tumanlarga bo‘ysunadigan va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda esa davlat hokimiyati vakillik organlari tashkil etilmaydi. Bu joylarda faqat ijroiya hokimiyati organlari — hokimlar bo‘lishi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga berilgan vazifalar ko‘rsatilgan bo‘lib, ular mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarining Konstitut-siyaviy asoslari hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 101-moddasida xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati besh yil deb belgilangan.

Bu muddatda hokim shu erdagи sharoit bilan to‘la tanishishi, ish uslubi va qobiliyati qanday darajada ekanligini namoyon etishi uchun etarli vabu vaqt ichida uning faoliyati natijalari ma’lum bo‘ladi. Qolaversa besh yillik muddatda anchagina xayri ishni amalga oshirish mumkin.

Konstitutsiyaning 102-moddasida hokimlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibi belgilangan. Unga asosan viloyatlarning hokimlari va Toshkent shahar hokimi lavozimga O‘zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlar va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Bu tumanlarda xalq deputatlari Kengashlari bo‘limganligi sababli ular shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo‘ysunuvchi shaharlarning hokimlari tuman hokimi

tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, bu shaharlarda ham xalq deputatlari Kengashlari yo'q bo'lganligi uchun xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.



Hokim lavozimi tayinlash va tasdiqlash asosida rasmiylashtiriladi. Lavozim qonuniy bo'lishi uchun ham tayinlash hamda tasdiqlash jarayoni albatta amalga oshirilishi kerak.

Konstitutsiyaning 105-moddasida "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ularning, tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi", – deb belgilab qo'yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalariga muvofiq, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari – bu fuqarolar yig‘inidir. Fuqarolar yig‘ini doimiy ishlovchi organ, faqat ular har ikki yarim yilda raislarini (oqsoqolni), rais maslahatchilarini saylashadi. Fuqarolar yig‘ini shaharcha va qishloqlarda, shuningdek, shahardagi mahallalarda faoliyat ko‘rsatadi

Tayanch so‘z va iboralar

Davlat hokimiyati. Oliy Majlis – davlat hokimiyati vakillik va qonun chiqaruvchi organi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari. Qonunchilik palatasi va Senat. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti. Prezident davlat boshlig‘i. Vazirlar Mahkamasi. Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston hukumati. Vazirlar Mahkamasining tarkibi. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari. Mahalliy davlat hokimiyati.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oliy Majlisning – O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi organi sifatidagi vazifalarini tushuntirib bering.
2. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi qanday?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini bayon eting?
4. Ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari nimalardan iborat?

8 BOB. Saylov tizimining Konstitutsiyaviy asoslari


1§. Saylov huquqi tushunchasi va uning Konstitutsiyaviy kafolat lanishi

2§. Saylov tizimi tushunchasi va asosiy tamoyillari

3§. Saylovlar va ularni o'tkazish tartibi

1§. Saylov huquqi tushunchasi va uning Konstitutsiyaviy kafolatlanishi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhim siyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir (Konstitusyaning 117-moddasi). Fuqarolar ushbu huquq orqali davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali davlatning eng muhim siyosiy masalalarini muhokama qilish va hal etishda faol ishtirok etadilar (Konstitusyaning 32-moddasi).



Saylov tushunchasi vakillik organini ovoz berish yo‘li bilan tashkil toptirish tartibidir. Vakillik organlarini saylash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar saylov huquqi deb ataladi. Saylov huquqi O‘zbekiston Konstitutsiyaviy huquqining muhim institutidir. Saylov huquqi tushunchasining yana bir ma’nosi ham bor. Bu tushuncha fuqaroning saylovdagi ishtiroki, vakillik organlariga saylash va saylanish kabi sub’ektiv huquqini ta’riflab berish uchun ishlataladi. Bu borada aktiv saylov huquqi bilan passiv saylov huquqini bir-biridan farq qilish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobida fuqarolarning saylov huquqi kafolatlanishi alohida mustah-kamlangan. Konstitutsiyaning 117-moddasida shunday deyiladi: "O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining 18 yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi. Saylov o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

2§. Saylov tizimi tushunchasi va asosiy tamoyillari

Saylovlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb qilishning eng muhim shakllaridan biridir. O‘zbekistonda saylov tizimi va saylov huquqi chinakam demokratik prinsi plarga asoslangan bo‘lib, bu prinsiplar O‘zbekiston fuqarolarining davlat suverenitetini to‘liq amalga oshirishni ta’minlaydi.

Davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo‘lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilaydigan tartib saylov tizimi deyiladi.

Saylov tizimi jamiyatda amlga oshirilayotgan demokratik jarayonlarning qay darajada amal qilinayotganligini ko‘rsatuvchi asosiy omildir.

Birinchisi: umumiy saylov huquqi prinsipi. Bu prinsip shundan iboratki, O‘zbekistonning 18 yoshga to‘lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan fuqarolar bundan mustasnodir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘limgan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o‘n yil O‘zbekiston hududida muqim yashagan O‘zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

O‘zbekistonning 25 yoshga to‘lgan fuqarosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiyyidir. Saylov kunigacha 21 yoshga to‘lgan O‘zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovida qatnashish uchun yosh senzidan boshqa cheklovchi senzlarning yo‘qligi saylov huquqining chinakam va real umumiyligini ko‘rsatadi. Bu huquq demokratiyaning eng muhim prinsiplariga xalq suverenitetiga, O‘zbekiston fuqarolarining huquqiy jihatdan tengligiga asoslanadi.

2004 yilning 26 dekabrida mamlakatimizda ilk bor O‘zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti - Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar bo‘lib o‘tdi. 2009-yil 27-dekabrda Oliy Majlisga va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga navbatdagi saylovlar o‘tkazildi.

Umumiy saylov huquqi O‘zbekistonning barcha fuqarolariga nisbatan joriy etiladi. Fuqaroligi bo‘limgan shaxslar va O‘zbekiston hududida yashovchi ajnabiylar saylovda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga ega emas. Umumiy saylov huquqi O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida,

kasalxonalarda, tug‘ruqxonalarda, sanatoriylarda va boshqa shifoxonalarda, yirik temir yo‘l stansiyalarida, aeroportlarda va shu singarilarda saylov uchastkalarini tashkil etish yo‘li bilan ham ta’milanadi. Tegishli organlar saylov uchastkalarini tuzish va ovoz beriladigan joylarni belgilash vaqtida saylovchilar uchun eng ko‘p quaylik vujudga keltirish zarurligini ko‘zda tutadi.

Saylov dam olish kuni o‘tkaziladi. Saylov bilan bog‘liq harajatlar davlat hisobidan bo‘lib, bu qoida saylov to‘g‘risidagi qonunlarda mustahkamlab berilgan. Saylov o‘tkazish uchun eng yaxshi jamoat binosi ajratib beriladi. Fuqarolarning o‘z saylov huquqini amalga oshirishiga hech narsa xalaqit bera olmaydi.

Qonunda fuqarolarning saylov huquqlarini buzganlikda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Umumiy saylov huquqining qonunda kafolatlanganligi fuqaro-larning ovoz berishda ishtirot etishlarini ta’minlaydi.

Ikkinchisi: teng saylov prinsipi. Saylov tizimining demokratik mohiyati sayloving umumiy bo‘lishida, ya’ni barcha fuqarolar ning saylovda ishtirot etishidagina emas, shuningdek sayloving teng bo‘lishidahamdir. Umumiy vateng saylov prinsiplari o‘zarо chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Umumiy saylov bo‘lmasa, teng saylov ham bo‘lishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida hamda Oliy Majlisga saylov to‘g‘risidagi Qonunida “*Har bir fuqaro - saylovchi bir ovozga ega*”. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma’lumoti, tili, dingga munosabati, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat‘i nazar teng saylov huquqiga egadirlar”, – deb belgilangan. Saylov huquqining tengligi, saylovchi faqat bitta saylovchilar ro‘yxatiga kiritilishi va ovoz berishi bilan ta’milanadi.

Uchinchisi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov prinsipi. O‘zbekiston Respublikasida saylov umumiy va teng bo‘libgina qolmay, shu bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamdir, ya’ni vakillik organlariga deputatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanadi, xalq deputatlarini barcha vakillik organlariga fuqarolar bevosa saylaydilar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri

saylov to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘limgan saylovdan shu bilan farq qiladiki, birinchi holda deputat saylovchilar tomonidan bevosita xohish-irodalarini erkin ifoda etishlari yo‘li bilan saylanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlarning joriy etilishi saylovchi-larning deputat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov ko‘p bosqichli saylovdan shu bilan farq qiladiki, bunda saylovchilar o‘z deputatini yaqin biladilar, undan hisob berib turishini talab qila oladilar.

To‘rtinchisi: yashirin ovoz berish prinsipi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlariga saylovlar yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyaning amalga oshirish shakllaridan biridir. Zero, bunday ovoz berishda fuqarolar o‘z xohish-istiklarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Konstitutsiyadasaylov huquqi prinsiplarining mustahkamlanishi O‘zbekiston Respublikasida saylovchilar uchun barcha imkoniyatlarining yaratilganligi, ularning saylovlarda qatnashish huquqlari hech qanday senzlar bilan cheklanmaganligi va fuqarolarning davlatni idora etishda faoliigi oshganligining yaqqol namunasidir.

3§. Saylovlar va ularni o‘tkazish tartibi

Bizga ma’lumki, 2002 yil 27 yanvarda bo‘lib o‘tgan referendum natijasida O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati amalga oshirilishiha muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II-chaqiriq, sakkizinch sessiyasida, "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida"gi Konstitusiyaviy Qonuni qabul qilindi¹. Bu esa yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasi hayotida davlat boshqaruvini amalga oshirilishi borasida tub islohotlarni boshlab berdi.

¹ «Referendum yakunlari hamda davlat xokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002, №4-5, 60-modda.

Davlat hokimiyati organlarini shakllantirish tartibi jamiyat a'zolarining diqqat e'tiborida bo'lib, hozirgi kunda ham har doimgidan ko'ra ko'proq e'tibomi o'ziga jalb etmoqda. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar va jamiyat munosabatlardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalar rivoji, har bir shaxsning ijtimoiy ongiga ta'sir etib, uning siyosiy-huquqiy ongini shakllanishiga olib kelmoqda. Shunday jarayonlardan biri, albatta saylovga bo'lgan munosabatlarda ko'rindi.

Demokratik jarayonlarning izchil rivoji o'zbek xalqining asriy orzularining yuzaga chiqishiga omil bo'lib kelmoqda. Saylov instituti Konstitutsiyaviy huquqning asosiy instituti bo'lib, bevosita va bilvosita demokratiya shakllaridan biri hisoblanadi. Xalq o'z hokimiyatini o'zi shakllantirar ekan, bu orqali o'z kelajak taqdirini ham shu hokimiyatga ishonib topshirdi. Hokimiyat ushbu ishonch va orzu-umidlarni ruyobga chiqishiga mas'uldir. Shuning uchun ham saylov jarayonlarini huquqiy tartibga solish saylovlarni o'tkazish-dan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan saylov o'tkazish tamoyillarini hayotga yanada keng va chuqur tatbiq etish uchun ham ushbu moddada aks etgan qoida juda muhimdir. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning Konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to'g'ri kelib qolgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytiriladi.

Shunday qilib, ushbu modda Prezident saylovini, Oliy Majlisning quyi palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi davlat hokimiyatining vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlarni aniq ma'lum kunda o'tkazilishini belgilab berdi. Ushbu organlar vakolat muddati tugaydigan yil saylov yili hisoblanib, shu yilning dekabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasi saylov o'tkaziladigan kun deb olindi.

Yakshanba kuni saylov kuni deb belgilanishi ham aksariyat davlatlarda qonunchilikda ifodasini topgan. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligi saylovni yakshanba yoki ish kuni hisoblanmagan kunda o'tkazishni taqozo etadi. Chunki, yakshanba kuni saylovchilarining deyarli barchasi o'zlarining doimiy istiqomat joylarida bo'lib, saylov uchastkalari saylovchilarining doimiy yashash joyini hisobga olib tashkil qilinadi. Ma'lumki, saylov uchastkalari, saylovchilarining bevosita erkini-irodasini belgilovchi ovoz berish joyidir. Saylovni ish kuniga to'g'ri kelishi ularning ham, davlatning ham iqtisodiy manfaatlarini biroz bo'lsada cheklashi mumkinligi e'tiborga molikdir. Qolaversa, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ham hisobga olib saylovning yakshanba kuni o'tkazilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Saylov to'g'risidagi qonunlarga asosan saylov uchastkalari shahar, tuman hokimlarining taqdimnomasiga asosan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. Harbiy qismlarda saylov uchastkalari qismlar yoki harbiy qo'shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida saylov uchastkalari Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov uchastkalari saylov tayinlangandan keyin o'ttiz kundan kechikmay tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun tuziladi hamda u o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Markaziy saylov komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Saylov to'g'risidagi qonunlarga, referendum to'g'risidagi qonunga va boshqa qonunlarga amal qilib ish olib boradi.

Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis palatalari tomonidan o'n besh nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Markaziy saylov komissiyasining a'zolari Qoraqolpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining tavsiyasini bo'yicha Oliy Majlis palatalari tomonidan tasdiqlanadilar. Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a'zolari orasidan

Prezidentning taqdimnomasi bilan komissiya majlisida saylanadi. Raisning o'rribosari va komissiya kotibi komissiya a'zolari orasidan komissiya majlisida saylanadilar. Markaziy saylov komissiyasi respublika hududida saylov to'g'risidagi qonunning ijro etilishini nazorat qiladi va uning hamma joyida bir xilda qo'llanishini ta'minlaydi.

Okrug saylov komissiyasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovgaga kamida etmish kun qolganda komissiya rais, rais o'rribosari, kotib va yana kamida 6 nafar boshqa a'zodan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyalarining vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi qonunda to'liq ko'rsatilgan. Saylov okrugi saylov to'g'risidagi qonunning ijrosini nazorat qiladi, saylov uchastkalarini tuzadi va ularga rahbarlik qiladi, deputatlikka nomzodlarga saylov kampaniyasida ishtirok etishlari uchun teng sharoit yaratilishini ta'minlaydi, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan deputatlikka nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi va bu nomzodlarga tegishli guvohnomalar beradi, saylov okrugi bo'yicha saylov natijalarini aniqlaydi va Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi va qonunda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Uchastka saylov komissiyasini okrug saylov komissiyasi tuzadi. Uchastka saylov komissiyasi saylov tayinlangandan keyin ellik kundan kechikmay 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rribosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini hududida uchastka saylov komissiyasi raisning vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi vakillik organlari saylovlariga tayyorgarlik ko'rish, ovoz berishni tashkil qilish va berilgan ovozlarni sanab chiqish uchastka saylov komissiyalari vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Uchastka saylov komissiyasi aholini saylov kuni va ovoz berish joyi to'g'risida xabardor qiladi. Ovoz berish binolari va saylov qutilari hamda boshqa saylov ashyolari tayyorlab qo'yilishini ta'minlaydi. Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari to'liq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida saylovga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar orasida deputatlikka nomzodlar ko'rsatish eng muhim va mas'uliyatli tadbirlar hisoblanadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalari hamda O'zbekiston ekologik harakatidan ko'rsatiladi. Siyosiy partiya saylov e'lon qilingan kundan kamida to'rt oy oldin Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan bo'lsa deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga ega. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 135 nafar deputat ko'ppartiyaviylik asosida hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha saylansa, 15 nafar deputat O'zbekiston Ekologik harakatidan saylanadi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar haqida to'xtab, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Deputat bo'lishni istagan odam, avvalo, halol-pokligi, ma'naviy etukligi, teran bilimi, qobiliyati, el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatidan ustun qo'yish kabi xususiyatlari bilangina saylovchilarning ishonchiga sazovor bo'lishi mumkin"².

Tayanch so'z va iboralar

Saylov tushunchasi va uning ahamiyati. Fuqarolarning saylash va saylanish huquqi. Saylov o'tkazish prinsiplari. Saylovlari va ularni o'tkazish tartibi. Saylov senzi. O'zbekiston Ekologik harakati. Markaziy saylov komissiyasining vazifalari. Saylov okruglari va uchastkalarini tashkil etish tartibi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Saylov tushunchasi, tizimi va tamoyillarini tushuntiring.
2. Aktiv va passiv saylov huquqi tushunchalarini izohlang.
3. O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonining Konstitutsiyaviy-huquqiy belgilarini aytинг.
4. Referendum va uni o'tkazish shartlarini tushuntiring.

¹ "Saylov to'g'risidagi qonun xujjalari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, №12, 637-modda.

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: O'zbekiston, 2000 yil 63b.

9- BOB. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (OMBUDSMAN)

1§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatining huquqiy asoslari

2§. O'zbekiston Respublikasi Ombudsmanning fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vakolatlari

3§. Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ning qonun xujjalalarini takomillashtirishda ishtiropi

1§. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatining huquqiy asoslari

Mamlakatimizda inson huquqlari himoyasini ta'minlashda milliy institutlarning roli beqiyosdir. Mustaqillik yillarda inson huquqlari himoyasini ta'minlashning ustuvor qonunchilik asoslari yaratilibgina qolmasdan, balki uni amalga oshirish bo'yicha milliy institutlarni shakllantirishga e'tibor qaratilayotganligi huquqiy tizimni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz insonning iqtisodiy huquqlarini amalga oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olib, uning davlat tomonidan ishonchli kafolatlari yaratilganligi o'zining samarasini bermoqda. Chunki, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish barobarida fuqarolarning huquq va manfaatlарни himoya qilish ta'minlanayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

Mamlakatimizda inson huquqlari himoyasining konstitutsiyaviy asoslari yaratilganligi, ularning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlарни muhofaza qilishda asosiy huquqiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy principlarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi. Uning 14-moddasida ham belgilanganidek, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik principlari asosida amalga oshiradi.

Inson huquqlari milliy institutlari tizimida O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) muhim o'rincini tutadi. Uning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida "gi (yangi tahrirda) Qonun bilan belgilanadi. Ushbu qonun vakilning (Ombudsman) huquqlarini, majburiyatlarini, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va kafolatlarini belgilaydi.

Vakil o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariiga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga amal qiladi. Vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'limgan tarzda amalga oshiradi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobdordir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rindbosarlarini saylash ham kiradi. Vakil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi. Vakil lavozimiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining va Senatining vakilini saylash to'g'risidagi qarori palatalarning majlislarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senati a'zolari umumiyligi sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Vakil nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining majlislarida ko'rib chiqilganidan keyin bu masala yuzasidan qabul qilingan uzil-kesil qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga qonunda belgilangan tartibda yuboriladi. Vakil o'zining vakolatlari muddati tugagach, yangi vakil saylanguniga qadar o'z vazifasini bajarishni davom ettirib turadi.

Saylanish kuni yigirma besh yoshga to'lgan, kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi vakil lavozimiga saylanishi mumkin. Vakilning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari tomonidan saylanadigan o'rindbosari bo'ladi. Vakil o'z lavozimidan muddatidan ilgari ozod qilingan taqdirda, vakil o'rindbosari uning vazifasini yangi vakil saylanguniga qadar bajarib turadi va vakil uchun belgilangan kafolatlar ana shu davrda unga nisbatan tatbiq etiladi.

Vakil faoliyatining asosiy prinsiplari bo'lib qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm, insonparvarlik, oshkoraliq, har bir inson uchun ochiqlik

hisoblanadi. Vakilning hisoboti qonun hujjaligiga muvofiq har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida eshitiladi. Vakilning yillik hisoboti belgilangan tartibda e'lon qilinadi. Vakil inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro shartnomalarining bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining yillik ma'ruzalarini tayyorlashda ishtirot etadi. Vakil siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtirot etishni o'z vakolatlari muddatiga to'xtatib turishi yoxud tugatishi shart. Vakil ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Vakil lavozimdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan muddatidan ilgari ozod qilinishi mumkin: xususan u o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilish to'g'risida ariza bergen taqdirda; uning sog'lig'i holati barqaror tarzda buzilgan va bu tibbiyot muassasasi tomonidan berilgan guvohnoma bilan tasdiqlangan taqdirda; unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan taqdirda; u qonunga ko'ra Vakil faoliyatiga nomuvofiq bo'lgan lavozimga saylangan yoki tayinlangan taqdirda.

Vakil O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlарini buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdar shaxslarning harakatlari yoxud harakatsizligi ustidan bergen shikoyatlarini ko'rib chiqadi va u o'z tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega. Vakil uchinchiligi shaxslarning, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan bir kishi yoki bir guruh shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi ustidan bergen shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun, basharti ularning bunga roziligi bo'lsa, qabul qiladi. Vakil sudning vakolat doirasiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqmaydi.

Vakil arz qiluvchiga o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran yoki arz qiluvchi, agar u huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning boshqa vositalaridan foydalangan hamda qabul qilingan qarorlardan qanoatlanmagan bo'lsa, o'z shikoyati bo'yicha qabul qilingan oxirgi qarordan xabar topgan paytdan e'tiboran bir yil davomida berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Shikoyatga arz qiluvchining talablarini tasdiqlovchi hujjalar va boshqa dalillar ilova qilinadi. Vakilga berilgan shikoyat uchun davlat boji undirilmaydi.

Vakil shikoyatni ko'rib chiqish, arz qiluvchi o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun foydalaniishi mumkin bo'lgan vositalar va shakllarni ko'rsatish, shikoyatni uning mohiyatiga ko'ra hal qilishga vakolatli bo'lgan tashkilot yoki mansabdar shaxsga yuborish, arz qiluvchini uning huquqlari va qonuniy manfaatlari daxldor hujjalar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishtirish, sababini albatta ko'rsatgan

holda shikoyatni ko'rib chiqishni rad etish, qonun hujjatlariga zid bo'limgan boshqa chora-tadbirlarni ko'rish kabi huquqlarga ega.

Vakil shikoyatlarni ko'rib chiqish, shuningdek fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi hollarini o'z tashabbusi bilan tekshirish chog'ida aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirishda ko'maklashishni so'rab tashkilotlar va mansabdar shaxslarga murojaat qilish, aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni tekshirish uchun tashkilotlarning vakillarini va mansabdar shaxslarni taklif etish, tekshirishni harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berilgan tashkilotga yoxud mansabdar shaxsga topshirish mumkin emas; tashkilotlarga va mansabdar shaxslar huzuriga moneliksiz kirish, tashkilotlar va mansabdar shaxslardan hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlami so'rash hamda olish; mansabdar shaxslardan tushuntirishlar olish; aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan tashkilotlar va mutaxassislarga xulosalar tayyorlashni topshirish; inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariiga daxldor masalalar yuzasidan tashkilotlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan o'tkazilayotgan tekshirishlarda ishtirok etish; ushlab turilgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxs bilan uchrashuv va suhbatlar o'tkazish, harakatlarida inson huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli organlarga iltimosnama bilan kirish huquqlariga egadir.

Vakil daxlsizlik huquqidan foydalanadi va u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining rozilgisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas. Vakilga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkin. Vakilni majburiy keltirishga, ushlab turishga, shuningdek uning shaxsiy buyumlari, yuki, transporti, turar joyi yoki xizmat xonasini ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi. Vakilga shikoyat bergen shaxs, shuningdek vakil tomonidan axborot to'plash va uni tahlil etish yoki ekspert baxosi berish topshirilgan shaxslar bunday harakat uchun ta'qib qilinishi yoki huquqlari boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 10 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyatini takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi ushbu yo'naliishdagi ishlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

2§. O'zbekiston Respublikasi Ombudsmanning fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vakolatlari

"Ombudsman" shvedcha so'z bo'lib, kimningdir manfaatini ifodalovchi, degan ma'noni bildiradi. Ayrim mamlakatlarda Ombudsman saylanadigan, ba'zi mamlakatlarda esa tayinlanadi-gan shaxs bo'lib, u inson huquqlariga amal qilishni nazorat qilish vakolatiga egadir. Inson huquqlari bo'yicha vakil faoliyati bilan shug'ullanuvchi mansabdar shaxslar, ya'ni Ombudsmanlar xorijiy davlatlarda turlicha nomda yuritiladi. Masalan, Shvesiya, Daniya, Hindistonda Ombudsman, Ispaniya va Kolum-biyada xalq himoyachisi, Fransiyada vositachi, Ruminiyada xalq advokati, Rossiyada inson huquqlari bo'yicha vakil va hokazo. Qayd etilgan davlatlarda Ombudsman turli davlat organlari tomonidan turli muddatga saylanadi yoki tayinlanadi. Masalan, Ispaniyada Ombudsman besh yil muddatga parlament tomonidan saylansa, Fransiya davlatida esa Vazirlar Kengashi tomonidan tayinlanishi qonun bilan aniq belgilanib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) milliy huquqiy tizimda nisbatan yangi huquqiy institut bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, inson huquqlari eng oliy qadriyat bo'lib hisoblanadi. Shu bois, davlatimiz o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshirilayotganligi har bir yo'nalish bo'yicha islohotlarning ustuvor vazifasi sifatida qaralayotganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov e'tirof etganidek, inson huquqlarining davlat manfaatlardidan, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining esa milliy huquqiy me'yorlardan ustunligi ham Konstitutsiyada muhrrab qo'yildi. Asosiy Qonunning 13-moddasida belgilanishicha, davlat fuqarolaming Konstitusiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ta'minlaydi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy hatti-harakatlari sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Mamlakatimizda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega. Fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning Konstitusiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi asoslangan tarzda ifoda etilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydag'i

"Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinganligi mamlakatimiz-ning inson huquqlariga sodiqligining va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olib ijtimoiy hayotda qaror toptirayotganligining yorqin dalilidir. Qayd etilgan Deklarasiyaning muqaddimasida insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquq-larini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi belgilangan. Mazkur deklarasiyaning 1-moddasiga ko'ra, hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquq-lari bo'yicha (Ombudsman) vakilining fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vakolatlari o'ziga xos xususiyatga egadir. Birinchidan, vakil o'zining maqomi jihatidan mansabdor shaxs bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, vakilga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlari riousha etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan. Ya'ni vakil inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlarni riousha etilishi bo'yicha yagona parlament nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxsdir.

Vakil fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni o'ziga berilgan vakolat doirasida shikoyatlarni ko'rib chiqish va tekshiruvni o'tkazish orqali amalga oshiradi. Qonunga ko'ra, vakil O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning hamda O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarni buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan bergen shikoyatlarini ko'rib chiqadi va u o'z tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega. Bunday shikoyatlar o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra qonunbuzilishi holati bilan bog'liqdir. Ya'ni tashkilotlar yoki mansabdor shaxslar harakatlari yoki harakatsizligi oqibatida fuqarolarning, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda ular vakilga ham shikoyat bilan murojaat etishga haqli bo'ladi.

Fuqarolar vakilga murojaat qilishining talab va shartlarini ham mukammal bilishi talab etiladi. Bunday talab va shartlarni bilmaslik fuqarolarning shikoyatlarini oqibatsiz qoldirilishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, sudning vakolat doirasiga kiradigan masalalarni ko'rib chiqmasligi qat'iy mustahkamlab qo'yilgan.

Vakil tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqishning sharti bo'lib birinchidan, vakil arz qiluvchiga o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bo'lsa, ikkinchidan, arz qiluvchi agar u erkinliklari va huquqlarini himoya qilishning boshqa vositalardan hamda qabul qilingan qarorlardan qanoatlanmagan bo'lsa, uchinchidan, o'z shikoyati bo'yicha qabul qilingan oxirgi qarordan xabar topgan paytdan e'tiboran bir yil davomida berilgan taqdirda bunday shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Qonunda vakil tomonidan shikoyatlarni qayd etilgan shartlar asosida ko'rib chiqish muddati bir yil davomida deb belgilangan. Demak, bunday muddat davomida vakil tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish va tekshirish amalga oshiriladi. Vakil tomonidan shikoyatni ko'rib chiqish va tekshirish natijalari bo'yicha xulosa tayyorlanadi. Vakilning xulosasi huquqni qo'llash huijati bo'lib tegishli huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradi. Vakilning xulosasida ish tashkilot yoki mansabdar shaxs tomonidan oxiriga etkazilishi zarurligi, tashkilot yoki mansabdar shaxsning qarori o'zgartirilishi yoxud bekor qilishini kerakligi, tashkilot yoki mansabdar shaxsning qarori asoslanishi zarurligi, tashkilot yoki qo'shimcha qaror qabul qilishi lozimligi va boshqalar ko'rsatilishi mumkin. Vakilning xulosasi asosida tashkilot va mansabdar shaxsga beriladigan tavsiyalar fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning o'ziga xos usuli bo'lib hisoblanadi.

Vakil tomonidan fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha vakolatlarini amalga oshirishi ular manfaatlariiga putur etkazilishining oldini olishda muhim huquqiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

3§. Oliy Majlisи inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) ning qonun xujjalalarini takomillashtirishda ishtiroki

Mustaqil mamlakatimizda davlat hokimiysi tizimining hamma tarmoqlarida, bozor munosabatlarini rivojlantirishda va inson huquqlari himoyasini ta'minlashda qonunning rolini oshirish dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Davlat tomonidan qonunchilik faoliyatini tubdan yaxshilash borasida milliy huquqiy tizimni shakllantirishga va tom ma'noda qonunning ustuvorligini ta'minlashga eng ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Qonun ijodkorligi sohasida davlat siyosati samarali amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, taraqqiyotimiz va demokratik yangilanish zaminini belgilab beradigan qonunlarni o'z vaqtida qabul qilishimiz, ularga hayot taqazo etayotgan o'zgartirish va qo'shimchalami kiritishimiz zarurati bugun nechog'li dolzarb ekanini anglash, tushunish qiyin emas.

Qonun ijodkorlik faoliyatini sub'ekt tarkibiga ko'ra, shartli ravishda uchta guruhga birinchidan, qonunchilik ikkinchidan, ijro uchinchidan, sud hokimiyyati qonun ijodkorlik faoliyatiga ajratish mumkin. Bunday faoliyat qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 83-moddasiga binoan qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliv vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi sharoitda qonun ijodkorlik faoliyatining asosiy yo'nalishi moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etishning huquqiy asoslarini yanada yuksaltirishga va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilmog'i lozim. Qonunchilik faoliyati bilan shug'ullanishning tarmoqlari keng va xilma-xildir. Davlatning mavjud bo'lishi ham aynan Konstitusiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashga bog'liqdir. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyat sari" degan metodologik asos qonun ijodkorlik faoliyatining negizini tashkil etadi.

Ayniqsa, inson huquqlari milliy institutlarining bu boradagi faoliyati kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qonunchilik asoslarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining 2006 yildagi "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'limgan davlat organlarining, nodavlat tashkilot-lar va fuqarolarning qonunlar loyihalarini tayyorlashda ishtiroy etishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquq-lari bo'yicha vakili (Ombudsman) ham qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'limgan sub'ekt bo'lib sanaladi. Vakilning inson huquqlari bo'yicha qonun hujatlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini tashkil etish muhim o'rinn tutadi. Vakilning qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'limgan sub'ekt sifatida faoliyatning o'ziga xos xususiyati inson huquq va erkinliklariga rioya qilish ustidan parlament nazoratini amalga oshiruvchi milliy institut maqomiga ega ekanligida yorqin namoyon bo'ladi. Tizimli ilmiy-amaliy tahlillar natijasi ko'rsatishicha, fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish va uni xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirish faoliyati nafaqat ularning bu boradagi

ishini sifatini oshiradi, balki qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlariga ko'maklashishi orqali qonun ijodkorlik jarayonida bilvosita ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga ahamiyat berilayotganligi bois uning qonunchilik asoslarini takomillashtirish ham ob'ektiv jarayondir.

Vakil qonunlar loyihalari bo'yicha ularni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan princi plari va normalariiga muvofiq holga keltirishga, qonun hujjatlaridagi ziddiyatlarni bartaraf etishga, ulardagи bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritishga qaratilgan takliflar bilan xulosalar taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Inson huquqlari bo'yicha vakilining inson huquqlari sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, ularning qo'mitalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisni Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari bilan o'zaro hamkorligiga bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, inson huquqlari bo'yicha vakilning qonun hujjatlarini takomillashtirishdagi ishtirokining ta'minlanishi va uning bu boradagi faoliyatining samaradorligi oshirilishi fuqarolar huquq va manfaatlarini himoya qilishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman). Vakilning inson huquqlari bo'yicha qonun hujjatlarini takomillashtirish borasidagi faoliyati. Vakil fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rni. Ombudsman shikoyatlarni ko'rib chiqish va tekshiruvni o'tkazish tartibi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari bo'yicha milliy institutlari faoliyatining huquqiy asoslarini aytинг.
2. Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining asosiy huquq va majburiyatlari nimalardan iborat.
3. Ombudsmanning inson huquqlari bo'yicha qonun hujjatlari-ni takomillashtirish borasidagi faoliyatini izohlang.
4. Ombudsman fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda qanday ta'sir vositalariga ega.
5. Ombudsman fuqarolarning ariza, shikoyatlarni ko'rib chiqish va tekshiruvni o'tkazish tartibini tushuntiring.

Test savollari:

1) "Konstitutsiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?

- A) tuzilish.
- B) belgilash.
- C) tasdiqlash.
- D) o'rnatish.

2) O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish zarurligi to'g'risidagi g'oya qachon paydo bo'ldi?

- A) XII chaqiriq Oliy Kengashining 1990 yil martidagi birinchi sessiyasida.
- B) O'zbekiston Respublikasi BMTga a'zo bo'lganidan keyin.
- C) O'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan so'ng.
- D) Mustaqillik deklaratasiysi e'lon qilingandan so'ng.

3) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dastlabki loyihasi matbuotda qachon e'lon qilingan edi?

- A) 1992 yil 8 dekabrda.
- B) 1992 yil 2 dekabrda.
- C) 1991 yil 8 dekabrda.
- D) 1992 yil 26 sentabrda.

4) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi ikkinchi bor matbuotda qachon e'lon qilindi?

- A) 1992 yil 21 noyabrda.
- B) 1992 yil 8 dekabrda.
- C) 1992 yil 15 dekabrda.
- D) loyiha faqat bir marta e'lon qilingan, xolos.

6) O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyiy huquqning asosiy manbai bo'lib quyidagilardan qaysi biri hisoblanadi:

- A) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
- B) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari.
- C) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyiy sudi qarorlari;
- D) Prezident farmon, qarorlari va farmoyishlari.

7) 1992 yil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qaysi vakolatli organ tomonidan qabul qilingan:

- A) Parlament tomonidan.
- B) Prezident tomonidan.
- C) Referendum orqali.
- D) Senat tomonidan.

8) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining oliy yuridik kuchi - bu . . .

A) barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning unga rioya qilish majburiyati.

B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining unga muvofiq kelishi.

D) barcha boshqa huquqiy hujjalarning unga majburiy muvofiqligi.

E) barcha javoblar to'g'ri.

9) O'zbekiston Respublikasida insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish Konstitutsiyaning qaysi qismida ta'kidlangan?

A) xalq hokimiyatchiligi bobida.

B) muqaddimada.

D) davlat suvereniteti bobida.

E) asosiy prinsiplar bo'limida.

10) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi qaysi jumla bilan boshlanadi?

A) O'zbekiston xalqi va mamlakati mustaqildir.

B) O'zbekiston - mustaqil davlat.

D) O'zbekiston - insonparvar demokratik huquqiy davlat.

E) O'zbekiston - suveren demokratik respublika.

11) Konstitutsiyaga binoan, davlat organlari va mansabdar shaxslar kimning oldida mas'uldirlar?

A) Jamiat va fuqarolar oldida.

B) Saylovchilar oldida.

D) Prezident oldida.

E) Prokuratura oldida.

12) O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi va hududi Konstitutsiyaviy qoidalarga ko'ra:

A) daxlsiz va qo'riqlanadi.

B) daxlsiz va o'zgartirish mumkin emas.

D) bo'linmas.

E) daxlsiz va bo'linmasdir.

13) O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining birdan bir manbai:

A) xalq.

B) qonun.

D) hukumat

E) saylovchilar.

14) O'zbekiston Respublikasida demokratiya qanday prinsiplarga asoslanadi?

- A) umuminsoniy.
- B) milliy.
- D) tabiiy.
- E) fuqaroviyligi.

15) Konstitutsiyamiz bo'yicha qanday masalalar referendumga qo'yiladi?

- A) mudofaaga oid eng muhim masalalar.
- B) jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari.
- D) favqulodda holat joriy qilish bilan bog'liq masalalar.
- E) respublika iqtisodiy taraqqiyotining eng dolzARB masalalari.

16) O'zbekiston xalqi nomidan kimlar ish olib borishi mumkin?

- A) Prezident va Bosh vazir.
- B) Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi.
- D) Oliy Majlis va Prezident.
- E) Bosh prokuror, diplomat va muxtor elchilar.

17) O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi qanday bo'linish principiga asoslangan?

- A) Qonun chiqaruvchi, sud, prokuratura.
- B) Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati.
- D) Adliya vazirligi, qonun chiqaruvchi, sud hokimiyati.
- E) Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudlari.

18) Demokratik huquq va erkinliklar kim tomonidan himoya qilinadi?

- A) Konstitutsiya va qonunlar bilan.
- B) Xalq tomonidan.
- D) Prokuratura tomonidan.
- E) Ichki ishlar organlari tomonidan.

19) Davlat o'z faoliyatini qaysi prinsiplar asosida amalga oshiradi?

- A) qonunlarni takomillashtirib borish.
- B) fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengaytirib borish.
- D) xususiy mulkchilikni shakllantirish.
- E) ijtimoiy adolat va qonuniylik.

20) O'zbekiston Respublikasida qanday fuqarolik holati o'rnatilgan?

- A) butun hududda yagona fuqarolik o'rnatilgan.
- B) yagona fuqarolik faqat ayrim hududlardagina mavjud.
- D) ikki davlat fuqaroligi maqomiga ega bo'lish istisno tariqasida mumkin.
- E) ayni paytda Qoraqalpog'iston fuqaroligi bilan ikki fuqarolik.

21) O'zbekiston Respublikasida kimga qonunchilik tashabbusi huquqi berilgan?

- A) har bir fuqaroga.
- B) prezidentga.
- D) oliv sud sudyalariga.
- E) prokuror va tergovchilarga.

22) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'yicha majburiy mehnatga qachon yo'l qo'shiladi?

- A) iqtisodiy nochorlik nuqtai nazaridan.
- B) faqat xususiy mulkdorlarga ruxsat beriladi.
- D) yollanib ishlanayotgan shaxslar uchun.
- E) sud hukmida nazarda tutilgan bo'lsa.

23) Konstitutsiyaga ko'ra qanday shakldagi ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi?

- A) umumiy ta'lim.
- B) boshlang'ich ta'lim.
- D) oliv ta'lim.
- E) o'rta maxsus ta'lim.

24) Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashlari shartmi?

- A) to'lashga majburdirlar.
- B) faqat soliqlarni to'lashlari shart.
- D) mahalliy yig'imlarni to'lash ichtiyoriy.
- E) mahalliy yig'imlarni to'lash shart.

25) O'zbekiston iqtisodiyotining negizini qanday shakldagi mulk tashkil etadi?

- A) fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulklari.
- B) ommaviy, oilaviy, mahalla mulki.
- D) jamoa mulki, diniy tashkilotlar mulki.
- E) xilma-xil mulk.

26) O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi qanday?

- A) viloyatlar, tumanlar va shaharlardan iborat.
- B) shaharlар, shaharchalardan iborat.
- D) qishloqlar va ovullardan iborat.
- E) barcha javoblar to'g'ri.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA QILINAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari:

- 1.Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lli.-T.: O'zbekiston. 1992.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'lli.-T.: O'zbekiston. 1993.
- 3.Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.-T.: O'zbekiston. 1995.
- 4.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: O'zbekiston. 1995.
- 5.Karimov I.A. Vatan taraqqiyoti uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. -T.: O'zbekiston. 2001.
- 6.Karimov I.A. Adolat va qonun ustuvorligida / Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. -T. O'zbekiston. 2002.
- 7.Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'lli. T.11. - T.: O'zbekiston. 2003.
- 8.Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat-T.: O'zbekiston. 2005
- 9.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir.-T.: O'zbekiston. 2005.
- 10.Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. -T.: O'zbekiston, 2009.
- 11.Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. - T.: O'zbekiston, 2009.
- 12.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi.// Xalq so'zi, 2009 - 14 fevral.
- 13.Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2009 - 6 dekabr.
- 14.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir / 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2010 - 30 yanvar.

II. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari

- 15.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston. 2009.
- 16.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.-T.: Adolat. 2007.
- 17.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.-T.: Adolat. 2007.

- 18.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. -T.: Adolat. 2007.
- 19.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. -T.: Adolat 2008.
- 20.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.-T.: Adolat. 2008
- 21.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi.-T.: Adolat. 2009.
- 22.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. -T.: Adolat. 2008.
- 23.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.-T.: Adolat. 2010.
- 24.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi 1991 yil 18 noyabrdagi Qonuni.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, №1, 27-modda.
- 25.O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagı "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonuni.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, №9, 328-modda.
- 26.O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi 1992 yil 2 iyuldagı Qonuni.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 yil, №9, 338-modda.
- 27.O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 10 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, №1, 52-modda.
- 28.O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 2, 48-modda.
- 29.O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagı "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 9, 225-modda.
- 30.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagı "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, № 9, 227-modda.
- 31.O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 1-2, 8-modda.
- 32.O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagı "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 9-10, 169-modda.
- 33.O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 14-dekabrdagi "Sudlar to'g'risida"gi yangi tahrirda tasdiqlangan Qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, №12-modda.
- 34.O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagı "Prokuratura to'g'ri-sida"gi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni (yangi tahriri)// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001, № 9-10, 168-modda.
- 35.O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002, №12, 215-modda.

- 36.O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasining Axborotnomasi, 2002 yil, №12, 213-modda.
- 37.O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrdagi "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi yangi tahrirda Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003, № 1, 7-modda.
- 38.O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustdag'i "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 yil, №9-10, 134-modda.
- 39.O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdag'i "Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004, № 9, 160-modda.
- 40.O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 16 oktyabrdagi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006, № 10, 541-modda.
- 41.O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008, № 1, 1-modda.
- 42.O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 25 dekabrdagi "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008 yil, № 12, 637-modda.
- 43.O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 17 apreldagi "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008 yil, № 4, 190-modda.
- 44.O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 16 apreldagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009 yil, № 4, 137-modda.
- 45.O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 1 iyundagi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 yil, № 22, 173-modda.

III. Maxsus adabiyotlar

- 46.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar. -T.: "O'zbekiston", 2008.
- 47.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T.: "Adolat", 2000. -446 b.
- 48.O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga sharhlar. -T.: "Adolat", 2000.
- 49.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat prosessual kodeksiga sharhlar.-T.: "Adolat", 2000.

- 50.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga sharhlar. -T.: TDYuI, 2008. -985 b.
- 51.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish: bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. Jamoa. - T.: "O'zbekiston", 2001. - 463 b.
- 52.O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.T.: TDYuI.- 2005. -545 b.
- 53.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1998. T.: "Sharq", 1999.
- 54.O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. -T.: "NORMA", 2010. -288 b.
- 55.Azizxo'jayev A. Husanov O. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. O'quv qo'llanma - T.: "Sharq", 2001.
- 56.Gasanov M.Yu., Sokolov E.A., "O'zbekiston Respublikasida mehnat shartnomalari (kontrakt)". O'quv uslubiy qo'llanma.T1-2. - T.: "O'qituvchi", 1996.
- 57.Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrirlar H. B. Boboyev, H. T. Odilqoriyev. - T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. - 528 b.
- 58.Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteev va boshq.; X.T.Odilqoriyev tahriri ostida.-T.: "Sharq", 2009.-592 b.
- 59.Jahon Konstitutsiyalari (Jahon davlatlari Konstitusiyalari to'plami, 1-jild). Tuzuvchilar: Y.Tojixonov, A.X.Saidov. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. -457 b
- 60.Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. -T.: "Adolat", 1999.
- 61.Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi./ Mualliflar jamoasi.-T.: "O'zbekiston", 2010. -368 b.
- 62.Inoyatov A.A.Mehnat huquqi. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi". 2002.
- 63.Inog'omjonova Z.F. Jinoyat prosessi.(Yumumiyligini qism). Darslik.-T.: "Yangi asr avlodi", 2002. -384 b.
- 64.Islomov Z.M. Huquq tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy vazifasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDYuI, 2004. -138 b.
- 65.Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi.-T.: "Adolat", 2007. -916 b.
- 66.Islomov Z., Mirhamidov M. "Huquqshunoslik".O'quv qo'llanma. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. -239 b.
- 67.Otaxo'jayev F.M. Oila huquqi. -T.: TDYuI, 2005. -280 b.
- 68.Rustamboyev M.X., Nikiforova E.N. Huquqni muhofaza qilish organlari. Darslik.- T.: TDYuI, 2005. - 495 b.
- 69.Rustambayev M.X., Tuxtasheva Y.A. Sudebnaya vlast i sudebno-pravovaya reforma v Respublike Uzbekistan: nauchno-publisisticheskoye izdaniye. - T.: Izdatelstvo TGYuI, 2008. -513 b.
- 70.Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. -T.: "ILM ZIYO", 2006.

- 71.Ro'zinazarov Sh.N.. Yuridik fanlarning rivojlanishi va zamonaviy muammolari / Ma'sul muharrir: H.R.Rahmonqulov.-T.: 2006.- 392 b.
- 72.Saburov N. Davlat va huquq nazariyasi (savollar, ta'riflar, tushuncha va atamalar) / O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: TDYul, 2005. -95 b.
- 73.Saidov A., Tadixanov Y. Davlat va huquq nazariyasi. I-II jild. T.: "Adolat", 2001.
- 74.Tursunov Y, Ysmonova M. Mehnat huquqi. T.: -"Moliya", 2001, 228 b.
- 75."Xalqaro xususiy huquq". Darslik. Masul muharrir yu.f.d., O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, prof. H. Rahmonqulov. - T. "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2002.
- 76.Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik prosessual huquqi. -T.: "Adolat", 2001.-378 b.
- 77.Esanov M.G., Mirzayev M.A. Prokuror nazorati hujjatlari.-T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIV, 2010. -648 b.
- 78.Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi.T.: "O'zbekiston", 2006.

MUNDARIJA

Kirish.....	3	
I Bo'lim.	Davlat va huquq asoslari.....	5
1 BOB.	Davlat va huquq nazariyasi haqida asosiy tushunchalar.....	5
2 BOB.	Huquq nazariyasi, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.....	26
II Bo'lim.	Mehnat huquqi asoslari.....	51
1-BOB.	Mehnat huquqi tushunchasi, subektlari. Mehnat shartnomasi.....	58
2-BOB.	Ish vaqtি, dam olish vaqtি, mehnatga haq to'lash, hamda mehnat intizomini ta'minlash.....	62
3-BOB.	Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi. Mehnat nizolari	76
III Bo'lim.	Oila huquqi asoslari.....	91
1 BOB.	Oila huquqi tushunchasi, manbalari, nikoh tuzish tartibi va shartlari	91
IV Bo'lim.	Sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlari.....	112
1 BOB.	Sud, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi hamda ular faoliyatining huquqiy asoslari.....	112
V Bo'lim.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquq asoslari.....	141
1 BOB.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish, uning maqsad va vazifalari.....	141
2 BOB.	Konstitusyaning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati.....	150
3 BOB.	Mustaqil O'zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari.....	162
4 BOB.	O'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari haida burchlari.....	178
5 BOB.	O'zbekistonda jamiyat va shaxs munosabatlarining Konstitutsiyaviy belgilari.....	200

6 BOB.	O'zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi.....	210
7 BOB.	O'zbekiston Respublikasining davlat organlari.....	213
8 BOB.	Saylov tizimining Konstitutsiyaviy asoslari.....	227
9 BOB.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (OMBUDSMAN).....	236
	Umumiyl foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.....	249

MAHMUDOV H.H., BERDIYAROV R.T., ISROILOVA G.M.

Huquqshunoslik: noyuridik oliv o'quv yurtlari bakalavriyatları
uchun darslik /H.H. Mahmudov, R.T. Berdiyarov, G.M. Isroilova.

-T.: «Voris-nashriyot», 2010. —256b.

BBK 67ya73

MAHMUDOV HAMZA HASANOVICH
BERDIYAROV RAHMATJON TOJINOROVICH
ISROILOVA GULCHEHRA MIRZAYEVNA

HUQUQSHUNOSLIK
darslik

*Noyuridik oliv o'quv yurtlari bakalavriyatları
uchun darslik*

Toshkent – «Voris-nashriyot» MChJ – 2010

Muharrir	<i>M.Omon</i>
Badiiy muharrir	<i>B.Ibrohimov</i>
Sahifalovchi	<i>S.Akramov</i>

Original-maketedan bosishga 05.08.2010 da ruxsat etildi.
Bichimi 60x84¹/₁₆. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 16,0.
Shartli b.t. 00.00. Adadi 500. Buyurtma №661.

«Voris-nashriyot» MChJ, Toshkent, Shiroq ko'chasi, 100.

«Shoakbar» xususiy ilmiy ishlab chiqarish tijorat firmasi bosmaxonasida
chop etildi. 100031, Toshkent, To'g'on Rejametov ko'chasi, 1 a.



«Voris-nashriyoti»

ISBN 978-9943-375-13-0

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-375-13-0.

9 789943 375130